

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI**  
**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

**“Himoyaga ruxsat etildi”**  
**Magistratura bo’limi boshlig’i,**  
**dotsent \_\_\_\_\_ G’. A. Doliyev**

**5A120300 – O’zbekiston tarixi mutaxassisligi magistranti**  
**To’xtasinov Bobomurod To’lqinboy o’g’li**

**“O’ZBEKISTONDA MADANIY-MA’RIFIY MUASSASALAR**  
**FAOLIYATI (NAMANGAN VILOYATI MISOLIDA)”**  
**mavzusidagi**

**MAGISTRLIK**  
**DISSERTATSIYA ISHI**

Tarix kafedra mudiri: \_\_\_\_\_ t.f.n. dots. A. A. Erqo’ziyev  
MDI rahbari: \_\_\_\_\_ t.f.d. prof. A. N. Rasulov

**NAMANGAN–2019**

## MUNDARIJA:

|                                                                                                                            |               |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------------|
| <b>KIRISH.....</b>                                                                                                         | <b>3</b>      |
| <br><b>I BOB. TURKISTONDA MA'DANIY-MA'RIFIY JARAYONLAR (1917-1924-YIL).</b>                                                |               |
| 1.1. Turkistonda ilm-fan, ta'lim tizimi (1917-1924-yil).....                                                               | 12            |
| 1.2. O'lka hayotida madaniy-ma'rifiy muassasalarning tutgan o'rni.....                                                     | 22            |
| <br><b>II BOB. NAMANGANDA MADANIY-MA'RIFIY AHVOL: MUAMMO VA YECHIMLAR.</b>                                                 |               |
| 2.1. Namanganda matbuot ishlarining tashkil etilishi ("Namangan haqiqati" gazetasi misolida). Namanganda radio tarixi..... | 33            |
| 2.2. Namanganda maktabdan tashqari ta'lim muassasalarini tashkil etilishi va ularning faoliyati.....                       | 52            |
| <br><b>III BOB. O'ZBEKISTON SSRDA MADANIY-MA'RIFIY HOLATLAR (1980-1991-YIL).</b>                                           |               |
| 3.1. Sovet mafkurasining madaniy-ma'rifiy hayotga ta'siri va oqibatlari.....                                               | 58            |
| 3.2. O'zbekistonda XX asr 80-yillaridagi madaniy-ma'rifiy muassasalar faoliyatidagi o'zgarishlar.....                      | 72            |
| <br><b>XULOSA.....</b>                                                                                                     | <br><b>87</b> |
| <br><b>FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI.....</b>                                                                | <br><b>91</b> |
| <br><b>ILOVALAR.....</b>                                                                                                   | <br><b>94</b> |

## KIRISH

**Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va dolzarbligi.** O‘zbekiston Respublikasining istiqbolga erishishi barcha sohalarda bo‘lgani kabi tarix faniga ham katta imkoniyatlar eshigini ochib berish bilan birga tarixchilar zimmasiga ham mas’uliyatli vazifalarni yukladi. Bugungi kunda tarix “...millatning haqiqiy tarbiyachisiga aylanib bormoqda. Buyuk ajdodlarimizning ishlari va jasoratlari tarixiy xotiramizni jonlantirib, yangi fuqarolik ongini shakllantirmoqda”<sup>1</sup>.

Mustaqillikning qo‘lga kiritilishi, sovet hukmronligi yillarida soxtalashtirilgan tarixni turli tazyiqlardan xoli ravishda, haqqoniy yoritishni talab etmoqda. Mustaqillikning dastlabki yillaridanoq ushbu masala O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I. A. Karimov tomonidan davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Tarixiy haqiqatni tiklash vazifasini esa “...olimlarimiz, tarixchilarimiz, adabiyotchilarimiz, el-yurtimizning haqiqiy vatanparvarlari o‘z zimmalariga olishlari darkor” ligi ta’kidlandi<sup>2</sup>.

Mustaqillik xalqimizga o‘zligini qaytarib berdi. Buning natijasi o‘laroq, hukumatimiz tomonidan iqtisodiy, siyosiy, madaniy hamda ijtimoiy, xususan, ilm-fan sohaslarini rivojlantirishga katta e’tibor qaratilmoqda. Jumladan, 2017-yilning 9-fevralida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev tomonidan tasdiqlangan “2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasi”<sup>3</sup>ning to‘rtinchi yo‘nalishida ta’lim va fan sohasini rivojlantirish, yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish vazifalarining belgilanishi fikrimizning yaqqol misolidir.

Ijtimoiy taraqqiyotning bugungi bosqichida mamlakatimiz barcha sohalarda ulkan yutuqlarga erishdi. Mamlakat rivojlanishining sifat jihatdan yangi modeli ishlab chiqildi. Ma’naviyat va ma’rifat davlat siyosatining ustuvor

<sup>1</sup> Каримов И.А. Ўзбекистон ХХІ аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. Хавфсизлик ва барқарор тараққиёт йўлида. 6–жилд. – Т.: Ўзбекистон, 1998. – Б. 137.

<sup>2</sup> Каримов И.А. Халқ ишончи – юксак масъулият. Биздан озод ва обод Ватан қолсин. 2–жилд. – Т.: Ўзбекистон, 1996. – Б. 349.

<sup>3</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг «2017–2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича ҳаракатлар стратегияси» ПФ–4947– сонли фармони // Халқ сўзи. – 2017. – № 28. – Б. 1–2.

yo`nalishi, deb e`lon qilindi. Ammo bizning bundan keyingi rivojimizga jamiyatda hali o`zining kuchli asoratlarini ko`rsatib turgan mustabid sovet tuzumining salbiy “merosi” ta`siri sezilib turibdi. Bunday holat mamlakatimizda sobiq kommunistik mafkura hukmronligi yillarida madaniy-ma'rifiy sohada amalga oshirilgan tadbirlarni chuqur, ilmiy asosda tahlil qilishni, erishilgan ma`lum yutuqlar, muvaffaqiyatlarni sarhisob etishni hamda yo`l qo`yilgan xato va kamchiliklarni o`rganish, ulardan kelajak uchun zarur bo`lgan xulosalar chiqarishni talab qiladi. Ushbu xulosalar asosida kelib chiqadigan vazifalarni yangi tarixiy sharoitda bajarish esa ma`naviy jabhani yanada rivojlantirishda ham ilmiy-nazariy, ham amaliy jihatdan dasturulamal bo`lib xizmat qiladi.

Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, sovet mustabid tuzumi davridagi madaniy-ma'rifiy muhit madaniyatning jamiyat siyosiy-mafkuraviy institutlari bilan o`zaro aloqalari, milliy madaniyatni rivojlantirish yo`lidagi qiyinchiliklar, odamlarning jamiyat ma'naviy muhitidan begonalashuvi kabi jihatlarni ilmiy tahlil etish muhimdir.

Dissertatsiya mavzusining Namangan viloyati misolida etib tanlanishi ham bejis emas, sababi Namangan ham o`ziga xos boy tarix va o`tmishga egadir, ushbu fikrimizni yurtboshimiz Sh. M. Mirziyoyev ham ta'kidlab o`tganlar: “ Bu diyordagi mashhur Axsikent, Munchoqtepa, Ayritom, Mug'tepa kabi me'moriy yodgorliklar o`tmishda ushbu hududda o`ziga xos sivilizatsiya va boy madaniyat rivojlanganidan dalolat beradi”<sup>4</sup>. Viloyat madaniy-ma'rifiy muassasalarni sovet davridagi faoliyati ham bugungi kunda ilmiy jihatdan o`rganishni talab etadigan dolzarb vazifa hisoblanadi.

Haqiqatan ham, sovet mustabid tuzumi davridagi madaniy muhit mafkuraviy tazyiqqa uchragani uchun ham u jamiyatda ma'lum nufuzga ega bo`lmaydi. Ushbu masala bo'yicha yozilgan kitoblar, asarlar esa noxolisligi uchun ilmiy qimmatga ega emas. Biz tanlagan tadqiqotning ilmiy dolzarbligi ham shunda.

---

<sup>4</sup> Мирзиёев Ш.М. “Буюк келажакимизни мард ва олийжаноб халқимиз билан бирга қурамыз”. - Т.: “Ўзбекистон”, 2017. – Б. 73.

**Tadqiqotning ob'yekti va predmeti.** Tadqiqotning predmeti 1917-1991-yillarda O'zbekiston SSRda, jumladan, Namangan viloyatidagi ma'daniy-ma'rifiy muassasalar va ularning bevosita faoliyati hisoblanadi.

**Tadqiqotning maqsadi va vazifalari.** Dissertatsiyaning ilmiy-nazariy, metodologik holatidan, uning dolzarbligi, tadqiq etilishi darajasidan hamda tanlangan davriy chegara xususiyatidan kelib chiqqan holda O'zbekiston madaniy-ma'rifiy muassasalari faoliyatida ziddiyatli holatlarning shakllanishi, madaniy-ma'naviy hayotda siyosiylashuv jarayonining kuchayishi mexanizmi ilmiy asosda, yangi metodologik konseptual talablar asosida o'rganishdan iborat maqsadlar belgilanadi.

Belgilangan maqsaddan kelib chiqqan holda quyidagi vazifalar aniqlandi:

- O'zbekiston madaniy-ma'rifiy muassasalari faoliyatining 1917-1991-yillardagi siyosiylashuv jarayonining mohiyatini ochib berish;

- partiyaviy va siyosiy mafkuraviy aqidalarning o'zbek milliy madaniyati rivojiga salbiy ta'sirini, madaniy-ma'rifiy muassasalar faoliyati umumbashariy qadriyatlarni kamsitish mexanizmining paydo bo'lishini ko'rsatish;

- jamiyat a'zolarida siyosiylashgan madaniyatdan bezish va undan begonalashuv holatining yuzaga kelishini o'rganish;

- ijtimoiy hayotda madaniyat va mafkura masalasi, ular nisbatining buzilishi sabablarini ilmiy jihatdan, yangi mafkuraviy muhit va millat manfaatlari nuqtai nazaridan tahlil etish;

- madaniy-ma'rifiy muassasalari faoliyatida milliylikni cheklash bo'yicha olib borilgan davlat siyosatining mohiyatini va u keltirgan salbiy natijalarni tadqiq etish;

- madaniyat va demokratiya masalasini o'rganish, tanlangan mavzu va belgilangan xronologik davr muhitida madaniyatga ma'muriy-buyruqbozlik tizimining salbiy ta'siri mohiyatini aniqlash;

- madaniy-ma'rifiy muassasalar faoliyatining kontseptual-metodologik nuqtayi-nazaridan cheklanganligini tahlil etish;

-o'rganilgan aniq materiallarga asoslangan holda to'plangan tajribani nazariy jihatdan umumlashtirish asosida O'zbekiston madaniy-ma'rifiy muassasalari faoliyatini, ayniqsa, milliy madaniyatning yanada ravnaqini ta'minlovchi aniq tavsiyalarni taklif etish kabi masalalar tadqiqot mavzusining maqsad va vazifalarini tashkil etadi.

**Tadqiqotning ilmiy yangili.** Dissertatsiya mavzusining ilmiy yangili sifatida quyidagi xulosalarni keltirishimiz mumkin;

sovet hokimiyatining dastlabki yillarida madaniy-ma'rifiy muassasalar faoliyati yagona tizimga ega bo'lmaganligi, 1921-yildan boshlab faollashib borgan sovet madaniy-ma'rifiy muassasalari shaklan yangicha bo'lsada, mohiyatan ular bolsheviklar g'oyalari, mafkuraviy targ'ibot, sinfiy kurash vositalariga aylanganligi asoslangan;

O'zbekistonda sovet tuzumi davrida tashkil etilgan va faoliyat olib borgan madaniy-ma'rifiy muassasalari (maktab, madrasalar, kutubxonalar, muzey, teatr, madaniyat uylar va hokazo) ning umumiy ahvoli va holati holisona yoritildi;

XX asr ikkinchi yarmidan keyingi davrda O'zbekiston SSRdagi madaniy-ma'rifiy muassasalarning kommunistik mafkurani butunittifoq xalqlari ma'naviy ongiga singdirish quroliga aylanib qolganligi asoslandi;

O'zbekiston SSR jumladan, Namangan viloyatining sovet davri madaniy-ma'rifiy muassasalari tarixi va faoliyati alohida mavzu sifatida o'rganildi;

**Tadqiqotning o'rganilish darajasi.** Ijtimoiy-gumanitar fanlarda u yoki bu masalaning muhokama etilishi, tahlil qilinishi, ilmiy xulosalar chiqarish, hech shubhasiz, mavjud tuzumning siyosiy-mafkuraviy negiziga, hukmron kuchning manfaatlariga bevosita bog'liqdir. Shu ma'noda aytish kerakki, sovet tuzumi yillarida yaratilgan asarlarning aksariyat qismida madaniy-ma'rifiy muassasalari faoliyati va madaniyat masalalari, ayniqsa, ular samaradorligini aniqlash mezonlari mafkuraviy asosda belgilandi. Xususan, bu fikrlar X. Po'latov, Q. Oqilov, K. Bo'ronov, A. Valiyev, S. Shermuhammedov kabi madaniyat, ijtimoiy masalalar bo'yicha jiddiy izlanishlar olib borgan tadqiqotchilarga tegishlidir.

Ularining asarlarida<sup>5</sup> madaniyat va millat, madaniyat va jamiyat, madaniyat va mafkura, ma'naviy omillarning ijtimoiy masalalar bilan uyg'unligi kabi masalalar o'sha davr mafkurasi, siyosiy aqidalari nuqtayi nazaridan tahlil etildi.

Ushbu asarlardagi, hech shubhasiz, ijobiy jihatlarni e'tiborga olgan holda, ularning qator xato, kamchiliklarini ham qayd etish kerak. Bular nazarimizda quyidagilardan iborat:

- KPSSning madaniyat ustidan, xususan, madaniy-ma'rifiy muassasalar faoliyatida yakka hokimlik monopoliyasi "asoslab" berilgan;

- millatlarning va milliy madaniyatlarning asta-sekin yaqinlashuvi va qo'shilib ketish "dialektikasi" ishlab chiqilgan;

- milliy madaniyatlarni rivojlantirish uchun har qanday harakatning millatchilik bilan bog'liqligi ko'rsatib berilgan;

- ijtimoiy-madaniy faoliyat ustidan partiyaviy va siyosiy-mafkuraviy rahbarlik "tamoyillari" ishlab chiqilgan.

O'zbekiston tarixi, jumladan, madaniyat tarixiga oid qator ilmiy, ilmiy-ommabop asarlar mustaqillikning ilk davrlaridan boshlab chop etila boshladi. Bunday asarlar sirasiga G'.Najimov, M.Nishonov, A.Mavrulov, A.Jalolov, kabilarning tadqiqotlarini kiritish mumkin<sup>6</sup>.

Mazkur asarlarning e'tiborli jihatlari shundan iboratki, ularda madaniyat masalalari, milliy tiklanish muammolari ilk marotaba yangicha usulda, millat va Vatan manfaatlari asosida hal etishga harakat qilindi. Boshqacha so'z bilan aytganda bu asarlarda ma'lum ma'noda eski usuldan qaytish, yangi yo'lda tadqiq etishga intilish yuzaga keldi.

---

<sup>5</sup> Пулатов Х. Коммунизм, государство, культура, личность.-Т., 1971; Холмухаммедов М. Дружба народов - могучий ускоритель общественного прогресса. М., 1972; Акилов К. Ленин и культурная революция в Узбекистане.-Т.,1972; Буранов К. Дialeктика развития социалистической культур.-Т., 1974; Арифханова З,Чеботарева В. Решение национального вопроса в Узбекистане.-Т., 1979; Шермухамедов С. Некоторые вопросы теории и практики развития социалистической культуры.-Т.,1980; Тен В. Руководство КПСС процессами сближения наций в условиях развитого социализма. Т., 1981; Гитлин С. Национальная политика КПСС в условиях развитого социализма. -Т., 1983 ва бошқалар.

<sup>6</sup> Атамуратов С. Национальное самосознание и интернациональное воспитание.-Ташкент,1991; Культура, нравственность человек.-Ташкент,1991; Нажимов Г. Новые традиции и культуры.-Ташкент,1992; Нишанов М. Обновление духовной жизни нации.-Ташкент,1992; Маврулов А. Маънавий соғломлаштириш даври.-Т,1992; Жалолов А. Ўзбекистон: мустақиллик, маънавият, мафкура.-Тошкент,1994; Узбекистан:

Keyingi yillarda O'zbekiston olimlari madaniyat masalalarini, jamiyatni ma'naviy yangilash muammolarini ijtimoiy hayotdagi ko'pgina hodisalar, masalan, san'at, mafkura, umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg'unlikda ifodalashga harakat qilmoqdalar. Shu o'rinda, X. Shayxova, Q. Nazarov, D. Kamolova, A. Erkaev, B. Abdurahimov, M. Sodiqova, Z. G'ofurov, Z. Islomov asarlarini alohida e'tiborga olish lozim<sup>7</sup>.

Tadqiqot mavzusining Namangan viloyati misolida etib belgilanishi ham bejiz emas. 1917-yil Sovet hokimiyatining o'rnatilishidan O'zbekistonning mustaqillikka erishishi va hozirgi kungacha bo'lgan davridagi Namangan viloyati tarixi, jumladan madaniy-marifiy muassasalar faoliyati bugunga qadar mustaqil tadqiqot sifatida yetarli darajada o'rganilmagan. Namangan viloyatining tashkil topgunigacha bo'lgan davri (1941-yilgacha) tarixi Farg'ona vodiysi tarixiga oid ayrim manbalarda u yoki bu holda yoritilgan. Viloyatning tashkil topishidan bugungi kungacha bo'lgan davri tarixiga oid ba'zi ma'lumotlar ilmiy adabiyotlarda qisman keltirilgan bo'lib, ular ham mafkuraviy ta'sirlardan holi emas.

Namangan viloyati tarixiga oid yaratilgan ba'zi adabiyotlarga to'xtalib o'tamiz. XX asrning 20-40-yillarida viloyat tarixiga oid fundamental ilmiy asarlar yaratilmagan. Bu holatni Namangan viloyatining rasman 1941-yilda tashkil topganligi bilan izohlash mumkin. XX asr 50-60-yillariga kelib, viloyat ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotiga bag'ishlangan kichik hajmdagi adabiyotlar nashr etila boshlandi. Ularda tabiiyki, kommunistik mafkura tazyiqi va ta'siri yaqqol ko'zga tashlanadi. Bu davrda chop etilgan adabiyotlardan Z. Akramovning "Namangan oblasti" tarixiy-geografik mavzudagi kitobini keltirish mumkin<sup>8</sup>.

---

<sup>7</sup> Шайхова Х., Назаров Қ. Умуминсоний қадриятлар ва маънавий камолот.-Тошкент., 1992; Камолова Д. Ўзбекская художественная культура. Ташкент., 1995; Ўзбекистон миллатлараро ҳамжиҳатлик йўлида.- Тошкент., 1996; Эркаев А. Духовность - энергии независимости.-Ташкент., 1998; Санъатшунослик масалалари.-Тошкент., 1998; Абдурахимов Б. Художественная культура Узбекистана. Содиқова М. Истиклол шароитида кишлок жамоат ташкилотлари.- Тошкент., 2001; Бобоев Х, Г'офуров З., Исломов З. Миллий истиклол мафкураси ва таракқиёт. -Тошкент., 2001 ва бошқалар.

<sup>8</sup> Акромов З.М. Наманганская область (историко-географический очерк).-Т.: Из-во АН Уз ССР, 1955.-176 с.

XX asr 60-yillarida viloyat tarixiga bag'ishlangan ba'zi maqolalar chop etilgan<sup>9</sup>. Ularda viloyat hududidagi dam olish maskanlari, ularning o'tmish, mazkur davrdagi holati, tarixiy yodgorliklar va ularni o'rganilish darajasi yoritilgan.

Namangan viloyatining sovet davri tarixiga oid ayrim ma'lumotlar, mustaqillik yillarida chop etilgan to'plamlarda ham o'z aksini topgan. Shular jumlasiga Respublika yetakchi oliy o'quv yurtlarida<sup>10</sup> va Namangan Davlat Universitetida o'tkazilgan ilmiy anjumanlar materiallari asosida chop etilgan to'plamlarni kiritish mumkin.

Mustaqillik yillarida yaratilgan ayrim adabiyotlarda viloyatdagi madaniy-ma'rifiy hayotiga bag'ishlangan ma'lumotlarni ham uchratish mumkin<sup>11</sup>. Ushbu kitobda viloyatda sovet hokimiyati dastlabki o'rnatilgan kezlardagi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot haqida so'z boradi.

Shuningdek, Namangan viloyatining sovet davri tarixini o'rganishda O'zbekistonning yangi tarixi markazi tomonidan nashr etilgan "O'zbekistonning yangi tarixi. O'zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida"<sup>12</sup> deb nomlanuvchi ikkinchi kitobining tahliliy ma'lumotlari g'oyat qimmatlidir. Ushbu kitobda mualliflar sovet jamiyatidagi ijtimoiy-siyosiy, madaniy-mafkuraviy jarayonlarni bugungi kun talablaridan kelib chiqqan holda tahlil qilganlar.

Yuqoridagi tahlil shundan dalolat beradiki, so'nggi paytlarda biz tanlagan mavzu bo'yicha ma'lum ishlar amalga oshirildi. Ayrim maqolalar, ilmiy-ommabop nashrlarda Sovet davri madaniy-ma'rifiy muassasalari faoliyatiga doir ma'lumotlar berildi. Ammo, ular hozirgi kun talablariga javob bermaydi, shu asnoda quyidagi xulosaga kelish mumkin:

<sup>9</sup> Рахмонов А. Чортоқ / Фан ва Турмуш.-1962. -№10. – Б 26-27. Г'уломов Я., Ахроров И. Ахсикент обидалари изидан // Фан ва Турмуш.-1964. -№8. – Б 17-19.

<sup>10</sup> Ўзбекистонда урбанизатсия жараёнлари: тарих ва ҳозирги замон. Халқаро илмий-амалий материаллари. -Т.:ЎЗМУ, 2007.

<sup>11</sup> Мирзалиев Э.Ю., Базаров М.Т. -Наманганнинг XIX аср охири XX аср бошидаги социал-иқтисодий ва маданий ривожланиши. Наманган. 1998.

<sup>12</sup> Ўзбекистоннинг янги тарихи. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. Иккинчи китоб.-Т.: Шарқ, 2000.

1. Milliy istiqlol g'oyasi va tarixni o'rganishning yangi metodologik talablari asosida o'tgan asrdagi madaniy-ma'rifiy muassasalar faoliyati jiddiy tahlil etilmadi.

2. Madaniyat, jumladan, o'zbek madaniyatining ma'muriy buyruqbozlik tizimi iskanjasiga olinishi va uning siyosiy jarayoni mexanizmini ochib beradigan tadqiqotlar e'lon qilinmadi.

3. Mustabid tuzum sharoitida o'zbek milliy madaniyatini rivojlantirish yo'lidagi to'siqlar umumlashtirilgan holda tadqiq etilmadi.

Bularning bari mazkur tadqiqot yuritilishiga asos bo'ldi.

**Tadqiqot mavzusi bo'yicha adabiyotlar sharhi.** Tadqiqot ishini yoritishga doir manba va adabiyotlarni shartli ravishda uch guruhga ajratishimiz mumkin:

1. Arxiv hujjatlari
2. Sovet davrida chop etilgan adabiyotlar
3. Mustaqillik yillarida chop etilgan adabiyotlar

**Tadqiqotning nazariy va amaliy ahamiyati** quyidagilardan iborat. Birinchidan, ushbu dissertatsiya O'zbekistonning Sovet davri madaniy-mafkuraviy holatini yaqqol tasavvur etishga imkon beradi. Ikkinchidan, ish davomida paydo bo'lgan ilmiy xulosalar O'zbekiston tarixining aniq davri bo'yicha mavjud bo'shliqni to'ldiradi. Uchinchidan, tadqiq etilgan tarixiy davr o'zbek milliy madaniyatining hozirgi rivojlanish bosqichida o'sha davrda yo'l qo'yilgan xato-kamchiliklar takrorlanishining oldini olish imkonini beradi. To'rtinchidan, dissertatsiya natijalari hamda to'plangan boy tarixiy materiallar O'zbekiston tarixining mazkur davr bo'yicha yaxlit variantini yaratishga imkon beradi.

**Tadqiqotning nazariy-metodologik asosi.** Sovet mustabid tuzumi davrida ro'y bergan voqea hamda hodisalarga dialektik munosabat, ilmiy tahlilda xolislik, tarixiylik-ilmiylik asosini tashkil etadi.

Ayni paytda, Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning asarlari, ayniqsa “Tarixiy xotirasiz kelajak yo`q” risolasi, O`zbekiston FA Tarix instituti, O`zbekistonning yangi tarix markazi to`g`risida chiqarilgan hukumat qarorlarida xolisona tarix yaratish bo`yicha bildirilgan fikrlar ushbu muammoni o`rganishda muhim nazariy asos bo`ldi.

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2017-yil 14-yanvar kuni mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo`ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo`nalishlariga bag`ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasida O`zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi, Oliy va o`rta maxsus ta'lim vazirligi oldiga yoshlar va aholi o`rtasida mamlakatimizning boy tarixini, uning betakror madaniyati va milliy qadriyatlarini keng targ`ib qilish maqsadida chora-tadbirlar kompleksini ishlab chiqish va amalga oshirish vazifasi yuklatildi<sup>13</sup>.

Yuqoridagi ustuvor vazifalar ushbu dissertatsiya mavzusini tadqiq etishda juda katta nazariy-metodologik mazmun kasb etdi.

**Dissertatsiya tarkibining qisqacha tavsifi.** Magistrlik dissertatsiyasi ishi kirish, uch bob, olti paragraf, xulosa, foydalanilgan manba va adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

**Tadqiqotning davriy chegarasi.** Tadqiqotning davriy chegarasi 1917-1991-yillarini o`z ichiga oladi. Tanlangan tarixiy davr O`zbekiston uchun ijtimoiy- iqtisodiy, siyosiy va ayniqsa madaniy-ma`rifiy sohalarda o`ta ziddiyatli bo`lganligi bilan xarakterlanadi.

---

<sup>13</sup> Мирзиёев Ш. М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қондаси бўлиши керак. –Т., “Ўзбекистон”, 2017. –Б. 46.

## **I BOB. TURKISTONDA MA'DANIY-MA'RIFIY JARAYONLAR (1917-1924-YIL)**

### **1.1. Turkistonda ilm-fan, ta'lim tizimi (1917-1924 –yil)**

Turkiston o'lkasi qadim-qadimdan ma'rifat o'choqlari-maktablarni va ilm dargohlari-madrasalarning o'ziga xos o'qitish uslublari va an'analari, o'zbek xalqi tomonidan yaratilgan ta'lim-tarbiyaning betakror shakllari mavjud bo'lganki, ular asrlar davomida sekin-asta takomillashib borgan. O'lkaning Toshkent, Qo'qon, Samarqand va boshqa hududlarda yashovchi boylar va o'ziga to'q kishilar bolalarini xat-savodini chiqarish va ilmi qilish maqsadida maktabdor domlalar qo'lga topshirib o'qitar edilar. Ushbu maktabdor domlarning albatta o'zicha o'qitish uslublari bo'lgan. Xususan, ba'zilar bolalarning yosh xususiyatiga alohida e'tibor bergan holda, kichik yoshdagi o'quvchilarga husnixat va og'zaki hisobni o'rgatsa, katta yoshdagi o'quvchilarga “Qur'oni Karim”ning oyat va suralari va fors, arab, turkiy tillarda yozilgan hayotiy kitoblarni ham o'qitishni o'rgatar edilar.

1917 yil Fevral inqilobidan keyin Turkiston o'lkasida boshlangan ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar jarayonida ta'lim tizimi muammolari va islohotlari kun tartibidagi dolzarb vazifalardan biri edi. Xususan, 1917-yil 9-14 may kunlari Toshkent shahrida bo'lib o'tgan o'lka o'qituvchilari vakillarining I qurultoyida<sup>14</sup> ta'lim tizimi bilan bog'liq ko'pgina masalalar muhokama qilindi. Qurultoyda “Turkiston o'qituvchilar ittifoqi” tashkil etildi<sup>15</sup>, o'lkadagi rus-tuzem<sup>16</sup> maktablarini tugatish, ularning o'rniga milliy maktablar tashkil etish masalasi muhokama etildi. Turkiston muvaqqat hukumati a'zosi S.Maqsudov, sharqshunos L.Zamin va Farg'ona viloyatining maorif bo'yicha inspektori F.Yegorov ma'ruzalarida rus-tuzem maktablari mahalliy aholi savodxonligini oshirish ishiga qodir emasligini to'liq asoslab, uning ishi samarasiz ekanligini

<sup>14</sup> Комилов О. К. XX асрнинг 20-йилларида Ўзбекистон миллий маорифидаги ўзгаришлар. Тарих фан. ном. ... дис. – Т., 2009. – Б. 43.

<sup>15</sup> Ўзбекистоннинг янги тарихи. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. Иккинчи китоб.-Т.: Шарқ, 2000. – Б. 133.

<sup>16</sup> Rus-tuzem maktablari – (rus. “гуземец” – mahalliy aholi) Turkistondagi Rossiya mustamlakachiligi davrida mahalliy aholi bolalari uchun ochilgan boshlang'ich rus maktablari.

qayd etdilar<sup>17</sup>. O'qish ona tilida olib borilishi, rus tili esa xorijiy til sifatida o'qitilishi zarurligi ta'kidlab o'tildi.

Qurultoyda madrasalar va diniy usulda ta'lim beruvchi maktablar masalasi ham ko'rib chiqildi va bu sohada ham islohotlar o'tkazish zarurligi, madrasalardagi o'quv-tarbiya ishlari mudarrislar kengashi ixtiyorida bo'lishi, madrasalar ustidan nazoratni diniy boshqarma tomonidan amalga oshirilishi lozimligi ta'kidlandi. Shuningdek, eski usuldagi musulmon maktablari shariatga muvofiq tarzda bosqichma-bosqich isloh qilib borilishi, sinf o'quvchilari 10 tadan kam bo'lmagan har qanday maktabda Qur'on va ona tili o'qitilishi zarurligi belgilab qo'yildi.

Shuningdek, qurultoyda maktabdan tashqari ta'limga katta e'tibor berish, xalqning ma'rifiy rivojlanishi uchun turli joylarda kutubxonalar ochish, Toshkentda milliy muzey ochishi, maktabgacha yoshdagi bolalar uchun tarbiya uylari va bolalar bog'chalari tashkil etish kabi masalalar muhokama qilindi.

Biroq Turkistondagi 1917-yil sentabr-oktabr oylaridagi hokimiyat uchun kurashlar hamda Oktabr to'ntarishi 1917-yilgi ta'lim tizimi islohotlari loyihasini to'xtatib qo'ydi.

Milliy ziyolilar o'lkada zo'rlik bilan o'rnatilgan sovet hukumati va bolsheviklar faoliyati hamda mahalliy aholiga yod bo'lgan g'oyalaridan norozi bo'lishlariga qaramay, o'z mamlakati va xalqining kelajagi haqida qayg'urib, sovet andozalari va mafkurasi doirasida bo'lsa ham madaniyat, maorif sohasida faoliyat ko'rsatishga, xalqning savodini, ma'rifatini rivojlantirishga imkon qadar harakat qildilar. Ular ilmiy, madaniy-ma'rifiy muassasalar tashkil etish, mahalliy aholi uchun yangi maktablar ochish, o'qituvchi kadrlar tayyorlash, xotin-qizlarni ijtimoiy hayotga jalb qilish, o'zbek tilida darsliklar yaratish, milliy teatr tuzish jarayonlarida faol ishtirok etdilar.

Bu jarayonlarda shaharlardagi ijtimoiy-madaniy infratuzilmalar, xususan, ta'lim muassasalari faoliyatida ko'plab o'zgarishlar sodir bo'ldi. Demak quyida

---

<sup>17</sup> Ёўлдошев Ж., Ҳасанов С. Туркистонда ўқиш-ўқитиш ишлари тарихидан // Халқ таълими. – 1993. – № 8–9. – Б. 48.

ana shunday maorif va ta'lim muassasalari faoliyatini Farg'ona vodiysi shaharlari miqyosida ko'rib chiqamiz.

Masalan, Qo'qon shahri misolida olib qaraganda, 1917 yilda 7 ta yangi usul maktablari<sup>18</sup> bo'lib, ularda 535 ta o'quvchi tahsil olgan bo'lsa, 1918 yilda esa 8 ta maktabda 600 taga yaqin o'quvchi tahsil olgan (shundan 135 nafar qizlar). 1917 yilda Qo'qon shahrining eski qismida 7 ta madrasa va 50 ta an'anaviy maktablar bo'lgan. Hokimiyat uchun kurashlar avj olishi tufayli bu sohalarida o'zgarishlar sust bordi.

Vaqt o'tishi bilan yangi usul maktablarida diniy va dunyoviy fanlarning o'qitilishi bilan birga axloqiy-tarbiya ishlariga katta e'tibor berilishi natijasida ularning nufuzi orta bordi. Yangi usul maktablarida sinfda 30 tadan ko'p bo'lmagan bolalar faqat yoz va qish mavsum orasidagina maktabga qabul qilingan, har bir muallimda ko'pi bilan 3-4 ta sinf bo'lib, 7-8 yoshlardagi bolalarga 5 soatlik o'qish kuni joriy etilgan. Har darsdan so'ng 10 daqiqa tanaffus, juma va bayram kunlari dam olish, o'n oy o'qishdan so'ng yozgi ta'til joriy etilgan. Maktablar nufuzi kuchayib, 1921 yiga kelib Qo'qonda bunday maktablar soni 28 taga yetadi. Shundan 20 tasi mahalliy aholi uchun, 3 tasi yevropa millatiga mansub aholi uchun bo'lgan. Maktablarda 5.5 mingdan ortiq o'quvchi (2.418 nafar o'zbeklar, 2.374 nafar yevropa millatiga mansub aholi, 644 nafar yahudiylar, 143 nafar arman millatiga mansub) ta'lim olganlar<sup>19</sup>.

1917-yilda Qo'qon shahrida ilgari faqat uy sharoitida o'qitilgan qizlar uchun dastlabki rasmiy maktablar ochilib, ularda o'zbek, tatar ayol o'qituvchilar dars bera boshladi. Maktabda Solihaxon Muhammadjanova (direktor), Muharram Qodirova, Gulsum Ko'payeva, Fotima Burnasheva, Zebiniso Razzoqova, Maryam Sharipovalar faoliyat ko'rsatganlar. Pedagog o'qituvchilar tayyorlash uchun 1918-yilda Qo'qon shahridagi maktablarning birida uch oylik

<sup>18</sup> Yangi usul maktablari – musulmon maktablarining ta'lim usuli va dasturlarini isloh qilib, bolalarga ona tilida xat-savodni o'rgatgan va yangilik g'oyalarini ilgari surgan o'quv yurtlari.

<sup>19</sup> Мансуров У. 1917-1924 йилларда Фарғ'она водийси шаҳарлари тарихи. тарих phd....дисс.. – Т., 2018 – Б. 97

o'qituvchi tayyorlash kursi tashkil etilib, unda 200 ga yaqin kishi tahsil olishi yo'lga qo'yildi<sup>20</sup>.

Bunday yangiliklar Namangan shahriga ham kirib keldi. Maktablarni madrasalar qoshida, xususiylar uylarda ham tashkil qilina boshlandi. 1918-yili Namanganda bolsheviklar hokimiyati o'rnatilgandan so'ng shaharda yangi maktablar ochila boshlangan. Masalan, Qo'qon ko'chasidagi Nuriddin afandi uyida (hozirgi 18-maktab binosida) Turon maktabi tashkil etilgan<sup>21</sup>. Maktabda o'quvchilarga turk domla Nuriy afandi va Lutfulla Olimiy va boshqalar ta'lim bergan. Sardoba madrasasida Toji Rahmoniy degan kishi ham maktab tashkil qilib, o'quvchilarga ta'lim bergan.

Namangan shahrining Chuqur ko'cha, Ko'zagarlik va Uychi ko'chalaridagi bolaxonalarda to'rtta sinfdan iborat maktablar tashkil etilgan bo'lib, unga Azimjon Afandi mudirlik qilgan. Shahardagi maktablardan yana biri hozirgi 31-maktab o'rnida bo'lib, maktab Nodira nomi bilan atalgan va unga Botiriy domla mudirlik qilgan. Namangan shahridagi hozirgi 8-maktab ham 1918-yilda Umarshoh boyvachchaning hovlisida ochilgan bo'lib, unga Odil A'lamning o'g'li Ahmadjon mudirlik qilgan. 1923-yilda hozirgi Namangan Davlat Univesiteti binosining o'rnida bir yillik takroriy ta'lim-tarbiya kursi ochilgan. Maktabga Abduqodir Qayumiy degan kishi mudirlik qilgan. Huddi shu yilda mazkur kursni tamomlagan 70 nafar o'qituvchilar, Namangan uyezdi xalq maorifi tomonidan, uyezdning 36 ta volostiga taqsimlanganlar<sup>22</sup>.

Davriy matbuot xabarlariga ko'ra, Namanganda ham qizlar maktabi tashkil qilingan bo'lib, ularda muallimalar yetishmasligi bois 2–3 oy ishlab, yopib qo'yilgan. Namangandagi xotin-qizlar bo'limi qoshida savodsizlikni tugatish maqsadida qisqa muddatli muallimalarni tayyorlash kurslari, keyinchalik, xotin-qizlar pedagogika bilim yurti ochilgan. Ularda tatar muallimalari faoliyat ko'rsatishgan<sup>23</sup>.

<sup>20</sup> Иноятов Х. Ш. Октябрьская революция в Узбекистане. – Ташкент. 1957. – С. 304.

<sup>21</sup> Наманган вилоят Давлат архиви (НВДА) 796-фонд, 1-руйхат, 26-иш, 9-варақ.

<sup>22</sup> НВДА, 796-фонд, 1-руйхат, 26-иш, 10-варақ.

<sup>23</sup> Насретдинова Д. Туркистон маданият ҳаётида татар-бошқирд аёлларининг тутган ўрни (XIX аср охири – XX асрнинг биринчи чораги): Тарих фан. ном.... дис. – Т., 2011. – Б. 103.

Namangan shahrida maktablar soni juda sekin bo'lsa-da, ko'payib borgan. 1919 yilda bitta 3 bosqichli o'rta maktab tashkil etilgan bo'lsa, ularning soni 1923–1924 o'quv yilida 5 ta maktab va 22 ta sinfga, 1924–1925 o'quv yilida 17 ta maktab va 42 ta sinfga ko'paygan. Bundan tashqari, 1918 yilda uyezdda ikkita bolalar uyi ochilgan bo'lib, mazkur bolalar uyida 1923–1924 o'quv yilida 106 ta, 1924–1925 o'quv yilida esa 133 ta bola tarbiyalangan<sup>24</sup>.

Qiyoslab olib qaraganda, 1914-1915 yillarda Namanganda 8 ta boshlang'ich va bitta 4 sinfli 889 ta o'quvchi ta'lim oladigan shahar maktabi bo'lgan bo'lsa, 1924-1925 yillarga kelib 1149 ta o'quvchi ta'lim oladigan 17 ta maktab faoliyat ko'rsatgan<sup>25</sup>. Maorif tizimiga sarflanadigan mablag' asta-sekin ko'paya boshladi. Xalq maorifi uchun shahar byudjetidan 1923-1924 o'quv yilida 42.293 so'm, 1924-1925 o'quv yilida esa 96.911 so'm sarflangan<sup>26</sup>.

Xuddi shu davrlarda Namangan shahrida ishlab turgan Inomjon Nizomboyev ham shaharda xalq maorifi ishlarini rivojlantirishda katta ishlarni amalga oshirgan. Inomjon Nizomboyev 1921-yil martidan boshlab Namangan shahar xalq maorif mudiri lavozimida o'z faoliyatini boshlagan<sup>27</sup>. Bu yillarda Inomjon Nizomboyev o'zining ko'p qirrali hayotini Namangan shahrida xalq maorifining rivojlantirishga sarf qilgan.

Namangan shahar xalq ta'limi bo'limiga quyidagi shaxslar mudirlik qilishgan:

1917-1918 o'quv yilida-T.Badaliy;

1918-1921 o'quv yilida-L.Olimiy;

1921-1922 o'quv yilida-Orifxonov;

1922-1923 o'quv yilida-Sh.Usmonov;

1923-1925 o'quv yilida-M.Shohimardonov<sup>28</sup>.

Shuningdek, 1923-1924 yillarda Namangan shahrida oltita savodsizlikni tugatish maktablari ham faoliyat ko'rsatgan. Bu davrda mahallalarda eski usul

<sup>24</sup> НВДА, 796-фонд, 1-рўйхат, 26-иш, 13-варак.

<sup>25</sup> НВДА, 796-фонд, 1-рўйхат, 51-иш, 54-варак.

<sup>26</sup> НВДА, 796-фонд, 1-рўйхат, 26-иш, 13-варак.

<sup>27</sup> НВДА, Иномжон Низомбоевнинг шахсий фонди. 66-варак.

<sup>28</sup> НВДА, Р.796-фонд, 1-рўйхат, 26-иш, 17-варак.

maktablari ham saqlanib qoldi va o'z faoliyatini davom ettirdi. Ammo ularning ahamiyati pasayib bordi. 1923-1924 o'quv yilida shaharda bunday maktablar soni 49 tani tashkil etgan bo'lsa, bir yil o'tgach ular 29 taga tushib qoldi<sup>29</sup>.

Darhaqiqat, Namanganda xalq maorifini rivojlantirish oson bo'lmagan. Buning sababi, maktablarda muallim kadrlar yetishmas edi. Shu tufayli 1924-yili Namanganda dastlabki o'qituvchilar tayyorlash kurslari ochilgan. Unga xatimlodan xabardor ko'plab yoshlar jalb etiladi. Bo'lajak o'qituvchilarga Abduqodir Qayumiy, G'ulomjon Akromxonov, Obidulla va Abdulla To'qmulin, Lutfilla Olimiylar saboq berganlar.

Shu o'rinda mahalliy maktablardan tashqari o'lka maorifi hayotida rus-tuzem maktablarining ham o'rnini ta'kidlab o'tish darkor. Sababi Turkistonda rus maktablarining o'sishi, va ularning o'zbeklar o'rtasida ma'rifat tarqalishida ma'lum rol o'ynaganligini inkor qila olmaymiz.

Chorizmning so'nggi yillarida mahalliy aholining o'ziga to'q qismi o'z bolalarini rus-tuzem maktablariga tobora ko'proq bera boshlaydi. Gimnaziyalarda uncha boy bo'lmagan oilalardan chiqqan, shu jumladan, mahalliy millatlarga mansub bolalarning soni bir qadar ko'paydi. Fevral (1917) inqilobi arafasida o'zbek yoshlaridan 20-30 nafar rus o'rta maktablarining o'qituvchilari qo'lida tahsil ko'rmoqda edi. Bu yoshlardan o'zbek ziyolilarining to'ng'ich avlodi, shu jumladan, fizika-metamatika fanlari doktori T. Qoriniyozov, tibbiyot fanlari doktori Z. Umidova, Namangan maorifi boshlig'i I. Nizomboyev va boshqalar yetishib chiqdi<sup>30</sup>.

Namanganda ta'lim va maorif sohasida gap ketganda, ushbu soha rivoji uchun sidqidildan mehnat qilgan shaxslarni sanab o'tish joizdir. Ommani o'qimishli qilish uchun o'z hayotlarini qurbon qilgan namanganlik A. O'rinov va M. Sodiqov, xalq maorifini qaror toptirishning dastlabki tashabbuskorlari A. Mavlonov, V. Isoqov, A. To'qmulin, M. Isoqova, F. Nasriddinov, U. Akramov,

<sup>29</sup> НВДА, 13-фонд, 1-руйхат, 17-иш, 19-варак.

<sup>30</sup> Мирзалиев Э.Ю., Базаров М.Т. Наманганнинг XIX аср охири XX аср бошидаги социал-иқтисодий ва маданий ривожланиши. Наманган. 1998. – Б. 36.

S. Xoliqov, M. Mallaboyev, N. Badaliy, K. Mo'minova, A. Xoliqiy va boshqa o'nlab kishilar xalq orasida mangu qoladilar.

Ushbu fidoyi shaxslar orasida Muhammad Sharif So'fizoda alohida ta'kidlab o'tishimiz kerak. Chust shahar maorifida johillik, savodsizlik va adolatsizlik hukm surayotgan bir paytda, So'fizoda yangi maktab ochadi. Bu maktab bir bino va qo'llanmaga ega bo'lmasada, o'quvchilar o'tirgan yalanglikda So'fizodaning quyidagi shiori osiqlik edi: “Men bir oqllovchi, 12 oyda savodsiz qoralarni oqlayman”<sup>31</sup>.

So'fizoda ana shu shior ostida dastlab Chust shahrida, eski maktabdan keskin farq qiladigan, yangi bilimlarni o'qitishga mo'ljallangan yangi maktabga asos soladi. So'fizodaning yangi maktabida diniy aqidalar va ba'zi-bir urf-odatlariga qarshi bo'lgani uchun dindorlar, ayrim kishilar uni Chustdan chiqib ketishiga, maktabni yopilib qolishiga sababchi bo'ladilar.

1919-yili Muhammad Sharif So'fizoda Afg'onistonda qaytib kelgandan so'ng, Chust shahridagi progressiv muallimlar bilan birgalikda jadid maktablarini ochishga kirishadi. O'sha yillari Chust shahar maorifi ishini boshqaruvchisi Muhammad Sharif So'fizoda bo'lgan.

Andijon shahrida ham ta'lim muassasalari o'zgarib bordi. 1914-yilda Andijon shahrida 22 ta maktab, Andijon uyezdida esa 55 ta talabaga ega bo'lgan 2 ta madrasa, 100 o'quvchisi bo'lgan 7 ta qorixona, 1500 o'quvchiga ega bo'lgan 103 ta erkaklar maktablari, 704 o'quvchisi bo'lgan 45 ta ayollar maktablari faoliyat olib borar edi. Shaharning eski qismida 9 ta o'zbek va 2 ta qiz bolalar maktabi ochilgan<sup>32</sup>.

1917-yil apreldan boshlab Turkistonning ko'pgina shaharlarida tashkil etilgan “Muslimalar maorif jamiyati”ning sho'basi Andijon shahrida ham ochildi. Lekin unda ko'proq tatar ayollari qatnashganlar. Masalan, mazkur jamiyat yetakchiligida shaharda haftaning juma kunlari bo'lib o'tadigan siyosiy o'qishlar Robiya Safarova tomonidan amalga oshirilgan.

<sup>31</sup> Мирзалиев Э.Ю., Базаров М.Т. Наманганнинг XIX аср охири XX аср бошидаги социал-иқтисодий ва маданий ривожланиши. Наманган. 1998. – Б. 35.

<sup>32</sup> Мансуров У. 1917-1924 йилларда Фарғона водийси шаҳарлари тарихи. тарих phd....дисс.. – Т., 2018 – Б. 99

Andijon shahrida faoliyat yuritgan xalq ta'limi tomonidan 1918 yilda shaharning yangi qismida 6 ta yetti yillik rus maktabi, 1 ta o'n yillik va 1 ta bir bosqichli arman maktabi tashkil etilgan. Bundan tashqari, shaharda rus-tuzem maktablari ham faoliyat yuritgan.

1918-yil oxiriga kelganda Andijonda 15 ta milliy maktablar va 9 ta rus maktablari mavjud bo'lgan. Ularda 98 ta o'qituvchi jami 2.948 ta o'quvchiga ta'lim bergan. O'zbek maktablarida 1947 nafar o'g'il va 212 ta qiz bolalar ta'lim olganlar.

1921-yilda Andijon shahrining eski qismida yana 1 ta o'g'il bolalar maktabi va uchinchi qiz bolalar maktabi ochildi. Bundan tashqari 1 ta tatar va ozarbayjon millatiga mansub aholi bolalari uchun maktab ochildi.

1922-yilga kelib Andijon shahrida 2 ta 4 va 7 yillik rus maktablari bo'lib, ularda 575 nafar bolalar ta'lim olgan. Biroq maktablarda malakali kadrlar yetishmagan, shu bois shaharda qisqa muddatda olti oylik o'qituvchi tayyorlash kurslar tashkil qilingan. Unda 1919-yildayoq 80 nafar pedagogik kadrlar tayyorlangan.

1924-yil oxirlarida Andijon shahridagi maktablarda jami 58 ta sinf bo'lib, ularning 25 tasi mahalliy budjet hisobidan, 19 tasi ota-onalarning mablag'idan ta'minlangan. Shu bilan birga, vaqf bo'limiga qarashli 4 ta sinf bo'lgan. Shahardagi 58 ta sinfning 28 tasida o'zbek millatiga mansub o'g'il bolalar, 6 tasida o'zbek qizlari, 2 tasi uyg'ur bolalar, 1 tasi yahudiylar, 1 tasida tatar, 3 tasi arman va 17 tasida rus millatiga mansub bolalar o'qiganlar. Milliy maktablarda o'quvchilar 10 maydan yozgi ta'tilga chiqishsa, rus maktablarida o'qish jarayoni 1 iyungacha davom etgan. Maktablarda ikkinchi bosqichdan keyin o'quvchilarga shahodatnoma (attestat) berilgan.

Andijon shahrida Xalq talimi bo'limiga qarashli 2 ta bolalar internati ham bo'lib, u yerda mahalliy va rus millatiga mansub bolalar tarbiyalangan (228 ta mahalliy bolalar va 80 ta yevropa millati bolalari). Andijon shahridagi maktab va internat o'quvchilari yilda ikki marta tibbiy ko'rikdan o'tkazilgan, shahardagi 4-sonli maktabda bolalar ambulatoriyasi ham tashkil qilingan edi. 1924-yilga

kelib ham Andijon shahrida o'qituvchilar yetishmas, o'rtacha har bir maktabga 2 nafar o'qituvchi to'g'ri kelgan<sup>33</sup>.

1917-yil noyabr oyida Farg'ona ( Skobelev) shahrida ilk sovet maktabi (40 nafar bola tahsil olgan) tashkilotchilari T. N. Qori-Niyoziy va Hamza Hakimzoda Niyoziy edilar.

1922-yilda Farg'ona (Skobelev) shahridagi 12 ta maktabdan, faqat 2 tasigina o'zbek maktablari bo'lib, uning ham bittasi eski maktab edi. Mahalliy maktablarda 59 nafar o'quvchi ta'lim olgan. Shuningdek, shaharda bitta tatar maktabi ham faoliyat ko'rsatgan. Unda 2 ta sinf mavjud bo'lib, o'quvchilar soni esa 33 ta, shundan 8 tasi qizlar edi. Ota-onalarning istagi bilan maktabda 6 ta o'zbek bolalari ham talim olgan. Maktabda o'quvchilarga 2 ta o'qituvchi saboq bergan. Shaharda 1918-1919 yillarda xalq talimi bo'limi, o'qituvchilar tayyorlash kurslari, 1924-yildan pedagogika bilim yurti faoliyat ko'rsata boshlagan<sup>34</sup>.

O'sh shahrida 1918-yilda 14 ta bir bosqichli maktablar tashkil qilingan. Ularning 12 tasi o'zbek va 2 tasi esa rus maktablari bo'lgan. Biroq o'qituvchilar sonining kamligi hamda maktab jixozlari va o'quv qurollari yetishmasligi tufayli mavjud 12 ta o'zbek maktablaridan atigi 6 tasi ishlagan. Shuningdek, ikki bosqichli 1 ta rus maktabi ham bo'lib, o'qituvchi yetishmasligi oqibatida maktab faoliyat ko'rsatmagan. 1922-yilga kelib O'sh shahrida 1 ta rus maktabida 156 nafar bola hamda 15 ta mahalliy maktabda 700 nafarga yaqin bolalar ta'lim olgan. Shu bilan birga, shaharda 1 ta bolalar maktab internati va 1 ta mahalliy ayollar uchun tashkil qilingan maktab ham faoliyat ko'rsatgan.

1920-yil 17-sentabrda Turkiston ASSR Xalq Komissarlari Sovetining "Aholi o'rtasida savodsizlikni tugatish to'g'risida"gi dekreti<sup>35</sup> asosida shaharlarda savodsizlikni tugatish maktablari ochila boshlandi. Turkiston

<sup>33</sup> Мансуров У. 1917-1924 йилларда Фарғона водийси шаҳарлари тарихи. тарих phd....дисс.. – Т., 2018 – Б. 101

<sup>34</sup> Чориев А. Х. Мустабид шўро тузуми шароитида Ўзбекистон халқ таълими ва ўқитувчи кадрлар тайёрлаш: миллий-анъанавий ва шўро таълим тизимлари ўртасидаги зиддиятлар (20-30 йиллар). Тарих фан.док... дисс. – Тошкент, 1998. – Б. 115.

<sup>35</sup> Чориев А. Х. Мустабид шўро тузуми шароитида Ўзбекистон халқ таълими ва ўқитувчи кадрлар тайёрлаш: миллий-анъанавий ва шўро таълим тизимлари ўртасидаги зиддиятлар (20-30 йиллар). Тарих фан.док... дисс. – Тошкент, 1998. – Б. 53.

Respublikasida savodsizlikni tugatish bo'yicha jami 1700 ta maktab bo'lib, ularda 50 ming tinglovchi tahsil olar edi.

Masalan, 1921-yilda Qo'qon shahrida 21 ta savodsizlikni tugatish maktablari bo'lib, ularda 865 ta kishi ta'lim olgan. Savodsizlikni tugatish kurslari turli muassasalar, zavod-fabrikalar qoshida ham tashkil qilingan. Masalan, 1922-yilda Namanganda yog' zavodi qoshida savodsizlikni tugatish to'garagi tashkil etilib, unda 11 ayol tahsil oladi. 1923-1924 o'quv yilida shaharda 6 ta savodsizlikni tugatish maktablari faoliyat ko'rsatgan bo'lsa, 1924-1925 yillarga kelib ularning soni 17 taga yetgan<sup>36</sup>.

1924-yilda Farg'ona shahrida 5 ta savodsizlikni tugatish maktablari bo'lib, u yerda darslar 2 smenada o'zbek va rus tillarida olib borilgan. Shuningdek, savod o'rganish maktablari uchun kurslarda 2 mingdan ortiq o'qituvchi tayyorlangan.

1918-yil 21-aprelda Toshkentda Turkiston Xalq Universiteti ochilishi munosabati bilan shu yilning iyun oyida universitetning Qo'qon filiali tashkil qilinadi. 1919-1920 yillarda Qo'qonda xotin-qizlar instituti, o'rta texnik o'quv yurti tashkil etildi, ularda mahalliy millatga mansub qizlar ta'lim olishi yo'lga qo'yildi. 1920-yilda Qo'qon shahrida birinchi pedagogika texnikumi ochildi. Bilim yurtida o'zbek tili va adabiyoti fanidan Ashurali Zohidiy, rus tili va geografiya fanidan esa bilim yurtining tashkil etilishiga katta hissa qo'shgan shaxslardan biri T.N.Qori-Niyoziy talabalarga saboq bergan. Biroq mazkur texnikumda mahalliy millatga mansub qizlar ta'lim oluvchilarning 7-8 foizini tashkil etgan, xolos. Buning sababi qizlarning o'qishga kam qatnashishi sabablarini diniy ulamolar qarshiligi, sovet maktabi oldiga qo'yilgan vazifalarni to'la anglab yetgan o'qituvchilarning yetishmasligi, darsliklar va qo'llanmalarining yo'qligi bilan izohlanar edi.

1920-yil 20-fevralda Andijon shahrida 60 kishiga mo'ljallangan o'qituvchilar tayyorlash kurslari ochilgan. Kurslarda ayni vaqtda 65 nafar mahalliy aholi vakillari tahsil olishgan. Shu yilning 1-may oyidan boshlab 3 ta

---

<sup>36</sup> Мирзалиев Э. Наманган шаҳар халқ маорифи тараққиёти тарихидан. – Наманган, 1989. – Б. 10.

ayollardan iborat o'qituvchi tayyorlovchi kurslar ham ochilib, u yerda dastlab mahalliy aholi vakillaridan 10 kishi ta'lim olgan.

Farg'ona viloyati shaharlarida xalq ta'limi bilan birga ilk maktabgacha ta'lim muassasalari vujudga keldi. 1918-yilda Qo'qon shahri markazida 100 nafar bolaga mo'ljallangan birinchi bolalar bog'chasi, Andijon esa 2 ta (temir yo'lhilar va pivo zavodi klubi qoshida) ochilgan. Andijonda 2 ta bolalar uyi ham ochilgan bo'lib, unda 172 nafar ota-onasiz qolgan yetim bolalar tarbiyalangan<sup>37</sup>.

1920-yili Skobelev uyezdida asosan, yevropaliklarning bolalari uchun tashkil etilgan 4 ta bolalar bog'chasi bor edi. 1921-yilga kelib Andijonda bolalar bog'chasining soni 7 taga yetib, ularda 466 nafar bolalar tarbiyalangan. Bolalar bog'chalarida tarbiyachi sifatida asosan, Andijon shahridagi gimnaziya maktabi va qisqa muddatli kurslarda tahsil olgan ayollar faoliyat ko'rsatgan. 1921 yilda shahardagi qisqa muddatli kurslarda 36 nafar o'zbek qizlari tahsil olgan.

1922-yilda esa Qo'qon shahrining eski qismida 5 ta bolalar bog'chasi faoliyat ko'rsatgan.

Yuqoridagilardan xulosa qilib aytadigan bo'lsak, 1917-1924-yillarda Turkiston o'lkasida xususan, Farg'ona vodiysi shaharlarida ma'orif va ta'lim tizimi to'xtab qolmagan, garchi sovet mafkurasining yuqori bosimi ostida bo'lsada faoliyat olib borgan.

## **1.2. O'lka hayotida madaniy-ma'rifiy muassasalarning tutgan o'rni**

O'rta Osiyo madaniy o'choqlaridan biri bo'lgan Farg'ona vodiysi shaharlari ham qadimdan boy tarixiy madaniy an'analarga egadir. Xususan, bu yerda turli xalqlar ustalari ijod qilib, o'zlaridan boy madaniy meros qoldirganlar. XX asr boshlaridan boshlab vodiyl shaharlarida o'sha davr uchun zamonaviy bo'lgan yevropacha madaniy-ma'rifiy muassasalar vujudga kelib, faoliyat yurita boshlaydi. Jumladan, bu davrda turli xil gazeta va jurnallarni nashr etilishi,

---

<sup>37</sup> Мансуров У. 1917-1924 йилларда Фарғона водийси шаҳарлари тарихи. тарих phd....дисс.. –Т., 2018 – Б. 105

kutubxona, teatr, muzey, klub va to'garaklar singari muassasalarning tashkil etilganligi bu davr madaniy-ma'rifiy hayot to'xtab qolmaganidan dalolat beradi.

1917-yilning fevralida Rosssiyada inqilob yuz bergach, Turkistonda ham siyosiy uyg'onish yangi pog'onaga ko'tarildi. Fevral inqilobi tufayli vujudga kelgan siyosiy erkinliklar natijasida o'lkadagi mahalliy ilg'or ziyolilar ham zudlik bilan milliy jamiyat va nashrlar uchun harakat boshladilar. 1917-yil mart oyining boshlarida o'lka musulmon ziyolilarining "Sho'royi Islomiya" jamiyati tuzildi. O'z navbatida Namanganda 1917-yil aprel oyida mahalliy jadidlarning tashabbusi bilan bu jamiyatning bo'limi ochildi<sup>38</sup>. 1917 yilning 12 iyunida Namanganda musulmon deputatlari Kengashi barpo qilindi. Uni tuzish va shakllantirishda U.Abdurahmonov, Sh.Shomansurov, G'.Qosimov, N.Qoriyev, I.Nizomboyev va boshqa musulmon vakillari yaqindan yordam berdilar<sup>39</sup>.

Turkistonda sovet hokimiyati o'rnatilgach, Farg'ona vodiysi shaharlarida ko'plab yangi gazetalar nashr etila boshlagan. Mahalliy ziyolilarning vakillari tomonidan milliy jamiyat tuzish va matbuot nashrlarini tashkil etish harakati boshlandi. Turkistonda o'z oldiga siyosiy vazifa va milliy ozodlik g'oyalarini qo'ygan tashkilotlar tuzildi, shuningdek, yangi gazetalar ham chop etildi. Jumladan, Toshkentda "Xurshid", "Sadoi Turkiston", "Kengash", Namanganda "Ravnaqul islom", Qo'qonda "Sadoyi Farg'ona", "Tirik so'z", "El bayrog'i"<sup>40</sup> gazetasi va "Hurriyat" jurnali, Farg'onada "Farg'ona nidosi"<sup>41</sup> gazeta va jurnallari nashr etila boshlandi.

1917-yilgi fevral inqilobidan so'ng Qo'qonda milliy matbuot namunalari ko'plab chop etildi. Obidjon Mahmudov "Tirik so'z", Po'lat Soliyev "El bayrog'i", Ahmad Davishev "Xalq g'ayrati", "Xaloyiq jamiyati", "Ravnaqul islom" gazetasini chop ettirdilar. 1917-yil martidan Qo'qonlik jadidlar "Kengash" jurnalini, ma'rifatparvar tadbirkor Rahimjon Xoji Shodi o'g'li "Hurriyat" jurnalini, Ashurali Zohiriy "Yurt" jurnalini nashr qildirgan. Abdulla

<sup>38</sup> Ўзбекистоннинг янги тарихи. Иккинчи китоб. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. -Т.: Шарқ, 2000. -Б. 24-26.

<sup>39</sup> НВДА, 62-фонд, 1-рўйхат, 25-иш, 12-15 варақлар.

<sup>40</sup> Гуломов Я., Набиев Р., Вахобов М. Ўзбекистон ССР тарихи (бир томлик). – Тошкент: Ўз ССР ФА, 1958. –Б. 441.

<sup>41</sup> Каримов Ш. Тақдир изтироби / Мулоқот. – 1991. – №4. – Б. 53.

Avloniy ta'biricha, “bu jurnal shu vaqtgacha chiqqan jurnallarning eng ko‘rkami va ma'naviy tomondan boyi edi”.

1918-yildan boshlab Qo‘qon shahrida o‘zbek tilida “Народная газета”, “Кокандская правда” (keyinchalik “Известия совдепа” deb atalgan) gazetalari nashr etila boshlangan.

Yuqorida nomlari keltirilgan gazeta va jurnallarning umri qisqa bo‘lgan bo‘lsa-da, ular Turkiston milliy matbuoti tarixida o‘ziga xos o‘ringa ega bo‘lib, ularning sahifalarida o‘nlab taniqli adiblar, maqolanavislar va jamoat arboblarning ozodlik, milliy mustaqillik, ma'rifatparvarlik haqidagi qarashlari ilgari surilgan edi.

1919-yilga kelib Farg‘ona viloyatida bosmaxonalar soni 5 taga yetdi, ular Farg‘ona, Qo‘qon, Namangan va ikkitasi Andijon shahrida joylashgan edi. Biroq shu yildan boshlab o‘lkadagi barcha tipografiya va litografiyalar musodora qilinib, davlat tasarrufiga o‘tkazilgan.

Farg‘ona vodiysida nashr qilingan “Yangi Farg‘ona” nomli gazetaning birinchi soni 1918-yil 4-dekabrda 1919-yil 1-iyulgacha Qo‘qon shahrida “Xalq gazetasi”, 1919-yil 1-iyuldan 1921-yil 3-fevraligacha Farg‘ona shahrida “Yangi Sharq”, 1921-yil 3-fevraldan 1921-yil 25-maygacha Qo‘qon shahrida “Mehnat bayrog‘i”, 1921-yil 27-maydan boshlab “Farg‘ona” va, nihoyat, 1926-yil 22-oktabrdan boshlab “Yangi Farg‘ona” nomi bilan Qo‘qonda nashr qilina boshlangan<sup>42</sup>. Yangi Farg‘ona gazetasining 1918-1920 yillardagi faoliyati juda qiyin sharoitlarga to‘g‘ri kelgan. Gazetada ishlash uchun malakali kadrlar yetishmas edi. Gazeta sahifalarida “Andijon”, “O‘sh”, “Namangan”, “Qo‘qon”, “Marg‘ilon”, “Muhim xabarlar”, “Maktab turmushidan”, “Farg‘ona yoshlari”, “Chet ellarda” kabi mavzularda joylarda sodir bo‘lgan ijtimoiy-siyosiy va madaniy voqealar yoritilgan.

1920-yil iyuldan boshlab Rossiya telegraf boshqarmasi Namangan bo‘limining haftada 3 marta: chorshanba, juma va yakshanba kunlari o‘zbek

<sup>42</sup> Хайдаров М. «Янги Фарғона» газетасининг майдонга келиши ва унинг Совет ҳокимиятини мустаҳкамлаш учун курашдаги роли. Учёные записки. Выпуск V. Серия общественных наук. — Наманган, 1964. — С. 164.

tilida nashr etiladigan “Рост”<sup>43</sup> deb nomlangan gazetasi chiqa boshlagan. 1920-yil 19-oktabrdan boshlab Namangan shahrida o‘zbek tilida V.Isxaqov, D.Shayxov, M.Yo‘ldoshqoriyev va L.Alimovlarning sayi-harakatlari bilan “Qizil tikon” deb nomlangan jurnal ham nashr etilgan.

Shunday qilib, XX asr boshlarida Farg‘ona vodiysi shaharlarida matbaachilikning vujudga kelishi va uning rivojlanishi xalqning siyosiy faolligini oshirish va ilg‘or fikrlar bilan qurollantirishda hamda ijtimoiy-ma'rifiy fikrlarning takomillashuvida katta ahamiyat kasb etdi.

Sovet hokimiyatining dastlabki yillarida madaniy-ma'rifiy muassasalarda siyosiy targ‘ibot ishlari olib borishga katta e'tibor berildi. Kommunistik mafkurani aholiga singdirish maqsadida turli klub va to'garaklar tashkil qilindi. Farg'ona vodiysi shaharlarida ham musiqiy va dramatik to'garaklar hamda klublar ish boshlaydi. Xususan, 1921-yilda Qo'qonning “eski shahar” qismida musulmon xotin-qizlar klubi ochilib, unga 50 ta ayol a'zo bo'lgan edi. Bunday klublarda turli mavzularda ma'ruzalar tinglangan, shuningdek spektakllar qo'yilgan hamda savodsizlikni tugatish maktabi ishi yo'lga qo'yilgan.

Sovet hokimiyati tomonidan tashkil etilgan partiya klublari qoshida adabiy, tabiiy fanlar, musiqiy va xor to'garagi ham mavjud edi. 1923-yilda ochilgan Qo'qonda Mehnat saroyida birinchi navbatda ma'ruzalar va suhbatlar o'tkazilgan. 1924-yilda Farg'ona viloyati ijroiya komiteti “Qizil Sharq” nomli temir yo'lchilar tashkil qilish uchun 500 rubl mablag' ajratgan. Klublar turli ishlab chiqarish korxonalarida tashkil etilib, 1924-yilda Skobelev shahrida 25 ta klub faoliyat olib borgan.

Turkistonda sovet hokimiyati o'rnatilgandan so'ng aholi orasida madaniy muassasalarning yangi tizimi shakllana boshlandi. O'sha davrda Farg‘ona vodiysi shaharlarida adabiyot, musiqa va teatr sohasida yuz bergan o‘zgarishlarda H. H. Niyoziyning o‘rni katta bo‘ldi. Hamzaning maorif, adabiyot, musiqa va teatr sohasida bosilib turgan asarlari Farg‘ona yoshlari, xalq san'atchilari, musiqachilari va ashulachilari o‘rtasida keng tarqalgan, ularning

<sup>43</sup> НВДА, 796-фонд, 1-рўйхат, 44-иш, 2-варак.

Hamzaga bo'lgan e'tiborlari ortib borgan. Shu bilan birga, Farg'ona yoshlari o'rtasida Hamzaning Marg'ilonda 1915-yili tashkil qilgan muallimlar tayyorlash maktabida o'qigan shogirdlari ham ko'p edi. Bularning hammasi Hamzaning Farg'ona shahrida maorif va teatr sohasidagi ishlarining tez rivojlanishi uchun turtki bo'ldi. Uning tashabbusi bilan 1915-yilda Qo'qon shahrida havaskorlik teatriga asos solingan edi<sup>44</sup>. Shuningdek, Hamzaning rahbarligi va uning ishtiroki bilan 1918-1919 yillarda Farg'ona viloyatining bir nechta shaharlarida mahalliy teatrlar tashkil topdi. 1918 yilning o'rtalarida Farg'ona shahrida Hamza rahbarligida drama teatri to'garagi tashkil etiladi<sup>45</sup>.

Hamza maorif idoralari va yoshlar tashkilotlarining yordami bilan 1918-yil sentabr oyida havaskor yoshlardan iborat "Qo'qon drama truppasi"ni tuzgan<sup>46</sup>. Truppa ishlay boshlagach, shahar maorifi uni o'z qaramog'iga oldi va uning artistlariga maosh to'lay boshladi. Truppa repertuarlari asosan, Hamzaning asarlaridan iborat edi.

1921-yil Qo'qon teatri viloyat teatriga aylantirildi. 1924-yilda esa teatr davlat teatriga aylantirilgan<sup>47</sup>. Hamzaning harakati bilan 1918-yil Andijon shahrida ham "Qizil g'uncha" deb ataluvchi badiiy havaskorlik truppasi tashkil etilgan va bu truppaga Andijonlik san'atkorlardan To'xtasin Jalilov, Abduvahob Azimov, Is'hoq qori Karimov, Muhiddin hoji Najmiddinov, Orifjon Toshmatov, Mirzajon Alimov, To'ychi Aminov kabi san'atkorlar faoliyatlarini boshlaganlar<sup>48</sup>. Oradan biroz vaqt o'tgach, shaharning yangi qismida ham Fotih Boybekov tashabbusi bilan o'zbek va tatar yoshlari ishtirokida yana bir to'garak tuzilgan. Har ikkala truppa 1918-yilning oxirlarida birlashib "Birlashgan Andijon truppasi" deb atala boshlangan.

<sup>44</sup> Зияева Д. Ўзбекистон шаҳарлари XIX асрнинг иккинчи ярми-XX аср бошлари. – Тошкент., 2013. – Б. 297.

<sup>45</sup> Культурное строительство в Туркестанской АССР (Сборник документов). Том 1. – Ташкент: Узбекистан, 1974. – С. 17.

<sup>46</sup> Раҳмонов М. Ҳамза ва ўзбек театри. – Тошкент: Ўз ССР Давлат бадий адабиёт нашриёти, 1959. – Б. 180-181. Зияева Д. Ўзбекистон шаҳарлари XIX асрнинг иккинчи ярми-XX аср бошлари. – Тошкент., 2013. – Б. 297.

<sup>47</sup> Ўзбекистон Республикаси Миллий Энциклопедияси. – Тошкент: ЎзМЭ, 2005. 11-том. – Б. 209.

<sup>48</sup> Турсунбоев С. Андижон театри. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1970. – Б. 6.

1919-yilning sentabr oyida Farg‘ona muzofoti maorif ishlari noziri H.H.Niyoziy teatr tuzish maqsadida Namanganga kelgan va “Ko‘k ko‘ylak” truppasini tashkil etgan<sup>49</sup>. Truppa a'zolari, asosan, partiya, sovet tashkilotlarining xodimlaridan iborat bo‘lib, ular orasida inqilobiy qo‘mita raisi Inomjon Nizomboyev, qidiruv bo‘limi boshlig‘i Oxundada Solixonhojiyev, adliya xodimi Usmon Abdurahmonov, o‘qituvchilardan Fotimaxon Abdurahmonova, Eshon Nizomiy, jurnalist Himoyiddin Yo‘ldoshqoriyev, Asil Mansurov, shoir va o‘qituvchi Rafiq Mo‘minovlar bo‘lgan<sup>50</sup>. Oradan biroz vaqt o‘tgach, teatr jamoasi safiga san'atga havasmand yoshlardan Abdulla To‘raxonov, Muhiddin Abdullaxonov, Asqar Rahmoniylar qo‘shilgan. Truppaning repertuarlari, asosan, Hamzaning asarlaridan iborat bo‘lgan. Kichik hajmdagi spektakllar qisqa vaqt ichida tayyorlanar va har oqshom namoyish qilinar edi.

1919-yil sentabrdan boshlab, Hamza Namangan shahrida truppa a'zolari bilan mashg‘ulotlar o‘tkazish bilan birga, ularga aktyorlik va rejissiyorlikdan ta'lim berishni boshlagan. Namanganda Hamzaning o‘zi “Padarkush”, “Yetim va yetimalar” asarini sahnalashtirgan<sup>51</sup>.

1919-yildan Hamza “Sharq kechalari” uyushtirib, konsert va spektakllar tashkil etish uchun Andijonga tashrif buyuradi, havaskor artistlar yordamida o‘zbek teatr truppasini tashkil etgan. “Sharq kechasi” katta tayyorgarlik bilan yaratilgan teatrlashgan xalq tomoshasi bo‘lib, o‘z oldiga eski turmush illatlarini fosh qilish, xalqni teatrga qiziqtirish, havaskorlar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash kabi vazifalarni qo‘ygan edi. “Sharq kechasi” o‘zining tarbiyaviy ta'sir kuchi bilan Andijon teatrchilik harakatida salmoqli o‘rin egallagan edi.

Andijonga Farg‘onadan ham teatr truppalari tashrif buyurib, aholi o‘rtasida “Boy ila xizmatchi”, “Farg‘ona fojeasi” spektakllarini namoyish etganlar. Andijondagi havaskorlik truppasini “O‘zbek davlat truppasi”ga aylantirildi, 1919-yil 14-dekabrda havaskorlar truppasi uning bazasida Davlat teatri tashkil

<sup>49</sup> НВДА, 796, 1-рўйхат, 45-иш, 48-варақ.

<sup>50</sup> Абдураззоков И. Ҳамза изидан бориб. // Наманган ҳақиқати. 1977 йил, 4 февраль.

<sup>51</sup> Юсупов И., Мирзалиев Э. Наманган шаҳри тарихидан лавҳалар. – Наманган., 2010. – Б. 65.

etilgan. Shunday qilib, 1919-yil oxiridayoq Andijon maorifi qaramog'ida "Umid" nomli Andijon o'zbek davlat teatri rasmiy ravishda tashkil topgan<sup>52</sup>.

Shu tariqa Andijon shahrining yangi va eski qismida teatr binolari faoliyat ko'rsata boshlagan. 1924-yildan boshlab teatr truppasi uchun eski shahardagi karvonsaroy binosi berilgan. Artistlar va mahalliy tashkilotlarning yordami bilan teatr binosiga aylantirilgan.

Sovet hokimiyati bu maskanlar faoliyatidan mafkuraviy vosita sifatida foydalanishga harakat qildi. Masalan, teatr san'atidan milliy madaniyat ravnaqi niyatida emas, balki g'oyaviy maqsadlar yo'lida foydalanildi. Bu holatlar ularning repertuarlariga ham ta'sir etgan.

Madaniy-ma'rifiy muassasalar ichida kutubxonlar alohida o'rin tutadi. XX asr boshlarida mahalliy ma'rifatparvarlar tomonidan ilk xalq kutubxonalari tashkil qilina boshlangan. Ushbu yillarda Farg'ona vodiysida kutubxonalar soni ham ko'payib borgan. Chunonchi, Farg'ona vodiysining deyarli barcha shaharlarida: Namanganda (1903), Qo'qonda (1905), Andijonda (1907) va Chustda (1913) kutubxonalar ochilgan. Lekin mazkur ma'rifiy muassasalar asosan aholining rusiyzamon qatlamiga xizmat qilgan. Namangan shahrida birinchi kutubxona yuqorida aytganimizdek, 1903-yilda tashkil qilingan. Ushbu kutubxonaning ochilishida qatnashgan savdogar Solovev kutubxona fondiga o'zining 1400 dan ortiq kitobini sovg'a qilgan. 1918-yil Namangan shahridagi yog' zavodi klubi qoshida birinchi ommaviy kutubxona ochilgan. Kutubxonaning fondi dastlab 500 ta kitobdan iborat bo'lgan<sup>53</sup>. Kutubxonaga tashrif buyuruvchilarning asosini shaharlik aholi vakillaridan iborat bo'lib, ularning soni yiliga 200 tadan ortiqroqni tashkil etgan. Shuningdek, 1909-yilda tatar ziyolisi I.K.Sharipov rahbarligida Namanganda ham kitob do'koni ochilgan. 1919-yilga kelib Namangan shahrida kitob do'konlarining soni 15 taga yetgan<sup>54</sup>.

<sup>52</sup> Рахмонов М. Ҳамза ва ўзбек театри... – Б. 185.

<sup>53</sup> НВДА, 13-фонд, 1-руйхат, 45-иш, 2-варақ.

<sup>54</sup> Юсупов И., Мирзалиев Э. Наманган шаҳри тарихидан лавҳалар. – Наманган., 2010. – Б. 71.

1923-yilda Namangan shahrida yana ikkita kutubxona tashkil etilib, ularning birinchisi mahalliy aholiga, ikkinchisi esa rus millatiga mansub aholiga xizmat qilgan<sup>55</sup>. Shunday bo'lsa-da, bu davrdagi kutubxonalarning moddiy ahvoli og'ir bo'lishi bilan birga, ularda kadrlar ham yetishmas edi. Kutubxona binolari talab darajasida bo'lmagan.

Xususan, 1914-yilda Qo'qon shahrida 2 ta kitob do'koni ochiladi. Ularning biri "Chig'atoy" deb nomlanib, u yerda rus va eski o'zbek yozuvidagi kitoblar sotilgan. 1915-yilda Hamza Hakimzoda tomonidan shaharda "G'ayrat" deb nomlangan kutubxona tashkil etilib, unga Toshkent shahrida chop etilgan yangi darsliklar va qo'llanmalar hamda ta'lim-tarbiyaga oid adabiyotlar olib kelingan<sup>56</sup>.

1917-yilda Cho'lpon tomonidan Andijon shahrining eski qismida "Turon kutubxonasi" ochildi va uning yonida bir qiroatxona ishga tushgan. 1918-yil bahor oyidan boshlab kutubxona ishlari "yangicha", "inqilobiy" asosda qaytadan qurila boshlangan<sup>57</sup>. 1922-yilda Andijon shahrining yangi qismida joylashgan kutubxonaning kitob fondi rus aholisi uchun 7.412 tani tashkil etgan bo'lsa, shaharning eski qismida joylashgan kutubxonaning fondi 1.226 kitobdan iborat bo'lgan. Shuningdek, Qo'qon shahrida ham 2 ta kutubxona bo'lib, ularning birinchisi 3.000 kitob fondiga ega bo'lgan va mahalliy aholiga xizmat qilgan, ikkinchisi esa 12.000 kitob fondiga ega bo'lib, rusiyzabon aholiga xizmat ko'rsatgan<sup>58</sup>.

Shaharlar aholisining madaniy hayotidagi yangiliklardan biri drama va musiqa to'garaklarining tashkil qilinishi edi. 1918-yilda Namangan shahrida Xalq uyi ochilgan, rus-o'zbek ma'rifat tarqatuvchi to'garagi tashkil etilib, unda turli xil konsertlar va kechalar o'tkazilgan. "Xalq uyi"ga ziyolilar, amaldorlar va

<sup>55</sup> НВДА, 13-фонд, 1-руйхат, 17-йиг'ма жилд, 19-варак.

<sup>56</sup> Зияева Д. Ўзбекистон шаҳарлари XIX асрнинг иккинчи ярми-XX аср бошлари... – Б. 303.

<sup>57</sup> Камиллов А.А. Туркистонда миллий масала муаммоларини ҳал этишда Туркистон МСР миллатлар ишлари халқ комиссарлигининг фаолияти. Тарих фан. номзоди. ... дисс. – Т., 1993. – Б. 104.

<sup>58</sup> Мансуров У. 1917-1924 йилларда Фарғона водийси шаҳарлари тарихи. тарих phd....дисс.. –Т., 2018 –Б. 109

savdo-sanoat doiralari vakillaridan tortib, xizmatchilar, o'quvchilar va ishchilargacha kelib turgan.

1921-yilda Qo'qon shahrining eski qismida bir oy ichida 5 marta o'zbek ayollari ishtirokida o'tkazilgan yig'ilishlar natijasida musulmon ayollarining klublari tashkil etilgan. Ushbu klubning 50 ga yaqin musulmon ayol a'zolari bo'lib, klub tashkil etilganidan bir oz vaqt o'tgach, o'zbek tilida spektakllar namoyish eta boshlagan. Shuningdek, klubda turli xil mavzularda ma'ruzalar o'qilgan va ayollarning iltimosiga ko'ra, eski shaharda savodsizlikni tugatish maktablari tashkil qilingan. 1922-yilda Qo'qonda ayollar bo'limi tomonidan dramatik to'garaklar ham ochilgan.

1923-yil Qo'qon shahrida ochilgan Mehnatkashlar uyi madaniy-ma'rifiy tadbirlar o'tkaziladigan markazga aylangan. Madaniy-ma'rifiy tadbirlarda turli sohalarga bag'ishlab tashkil etilgan ko'rgazmalar asosiy o'rinni egallagan.

XX asr bo'sag'asida shaharlardagi madaniy muassasalar tizimida muzeylarni tashkil qilinishi ham o'z o'rniga ega bo'ldi. Dastlabki o'lkashunoslik muzeyi 1899- yilda Skobelev (Farg'ona) shahrida ochilib, u 3 ta (tabiat, etnografiya, qishloq xo'jaligi) bo'limlardan iborat bo'lgan. 1920-yilda Namangan va Andijon shaharlarida ham muzeylar ochiladi. Namangan shahridagi muzey xalq ta'limi bo'limiga qarashli 1-maktabning fizika fani o'qituvchisi Vladimir Ivanovich Ivanov yetakchiligida tashkil qilingan<sup>59</sup>. Ushbu maktab muzeyida dastlab fizika fanidan o'quv asboblari jamlangan edi. Keyinchalik esa V.I. Ivanov boshchiligida maktab o'quvchilari tomonidan o'lka tabiati, tarixi, etnografiyasiga oid ko'plab eksponatlarning olib kelinishi natijasida shaharda o'lkashunoslik muzeyini alohida tashkil etish uchun harakat boshlanadi. Sa'y-harakatlar oqibatida Namangan shahridagi savdogar Hamdam Qalandarovga tegishli bo'lgan do'kon binosi muzeyga ajratib beriladi. Muzey tashkil etilgan dastlabki paytda uning jamg'arma xazinasida 1000 ga yaqin eksponatlari mavjud bo'lgan<sup>60</sup>. Namangan shahar xalq ta'limi bo'limi shaharda

<sup>59</sup> НВДА, 796-фонд, 1-руйхат, 45-иш, 4-варак.

<sup>60</sup> Мирзалиев Э. Наманган вилоят ўлкани ўрганиш музейи: кеча ва бугун. – Фарғона., 2010. – Б. 10.

yangi tashkil etilgan o'lkashunoslik muzeyidagi eksponatlar sonining ko'payishiga e'tibor qaratib, 1920-1925 yillar davomida Turkiston xalq muzeyidan sutemizuvchilar va qushlarning eksponatlari, noyob tangalar va boshqa ko'plab eksponatlar keltirilgan. 1923-yil oxiriga kelib muzeyning zoologiya, mineralogiya, anatomiya, numizmatika, fizika kabi bo'limlari mavjud bo'lgan. Shu yili muzeyning eksponatlari soni 770 taga yetgan. 1920-yilda muzeyga 3.205 ta, 1923 yilda esa 20.339 ta odam tashrif buyurgan<sup>61</sup>.

1924-yilda Qo'qon shahridagi xon saroyida ham o'lkashunoslik muzeyiga asos solindi<sup>62</sup>. 1924-yilning sentabr va oktabr oylarida Qo'qon shahridagi sobiq xon o'rdasida Farg'ona viloyati qishloq xo'jaligiga bag'ishlab o'tkazilgan ko'rgazmaga 70 mingga yaqin kishi tashrif buyurgan. Ko'rgazmaga olib kelingan materiallar Qo'qon shahar o'lkashunoslik muzeyining ekspozitsiyalaridan asosiy o'rin egallagan.

Bu yillarda Skobelev shahrida Farg'ona vodiysining tabiati, tarixi va tabiiy boyliklariga oid materiallarni mujassam etgan muzey ham tashkil etildi.

XX asrda Farg'ona vodiysidan yetishib chiqqan qiziqchilar, hofizlar, xonandalar, sozandalar, qo'shiqchilar, raqqoslar o'z san'ati bilan xalq hurmatini qozonganlar. Marg'ilonlik o'zbek an'anaviy teatrining yirik nomoyandalaridan biri, raqs san'ati ustasi, mashhur qiziqchi, O'zbekiston xalq artisti Yusufjon qiziq Shakarjonov (1869–1959), uning shogirdi Oxunjon qiziq Huzurjonov (1903–1967) va Usmon Qori Rayimbekov (1886–1968) o'z tomoshalari bilan nafaqat vodiya, balki butun Turkistonda dong taratgan edilar.

1918-yilda Marg'ilon shahrida “Sanoyi nafisa” deb nomlangan qiziqchilar truppasi tuziladi. Yusufjon qiziq, Bolta hofiz, Mamatbobo Sattorov, usta Olim Komilov, Otaxo'ja Saidxo'jaev, Qo'zixon Madrahimov, Muhammadsaid changchi, Yo'ldosh maxsum naychi, Abdurahmon g'ijjakchi, Jo'raxon Sultonovlar a'zo bo'lib kirdilar<sup>63</sup>.

<sup>61</sup> НВДА, 796-фонд, 1-рўйхат, 45-иш, 5-варак.

<sup>62</sup> Шодмонова С. Ўзбекистон шаҳарларида трансформация жараёнлари (1917-1924 йиллар). – Тошкент: Adabiyot uchqunlari, 2015. – Б. 231.

<sup>63</sup> Маннопов С. Марғилон-маданият ва саноат маркази // Марғилон шаҳри ўтмиши, бугуни ва эртаси мавзусидаги республика илмий семинар материаллари. – Фарғ'она. 2007. – Б. 89-90.

Yusufjon qiziq 1918-yilda Marg'ilonda qiziqchilar truppasini qayta tashkil etdi. Unda Usmon qori Rayimbekov, Sulaymon Mirzarahimov kabi qiziqchilar, Mamatbuva hofiz, Xudoybergan hofiz, Otaxo'ja raqqos, mashhur doirachi Usta Olim Komilovlar faoliyat ko'rsatganlar<sup>64</sup>.

Xulosa qilib aytganda, o'lkadagi ijtimoiy va madaniy jarayonlar asosan shahar hayotida yaqqol namoyon bo'ldi. Shaharlarda ijtimoiy-madaniy muassasalar soni ko'payib bordi. Bu davrda an'anaviy ta'lim muassasalari bilan birga jadid maktablari ham asta-sekin tugatib borildi. Ularning negizida yangi maktablar tashkil qilindi. Ta'lim maskanlari dastlab turfa xil bo'lib, keyinchalik tobora ma'lum standartlarga o'ta boshladi. Ularning o'quv dasturi ham hukmron mafkura ta'siriga moslashtirib borildi. Shaharlarda hukmron mafkura g'oyalarini targ'ib qiluvchi matbuot nashrlari vujudga keldi. Shuningdek, bu davrda shaharlarda mavjud bo'lgan kutubxona va muzeylar faoliyati kengayib bordi. Ular sovet hokimiyatining targ'ibot maskanlari vazifasini bajarishga bo'ysundirilgan bo'lsada, shahar aholisi madaniy hayotining muhim ob'yektiga aylandi.

---

<sup>64</sup> Марғилон. – Тошкент: Шарқ, 2007. – Б. 206.

## II BOB. NAMANGANDA MADANIY-MA'RIFIY AHVOL: MUAMMO VA YECHIMLAR

### 2.1. Namanganda matbuot ishlarining tashkil etilishi (“Namangan haqiqati” gazetasi misolida). Namanganda radio tarixi.

“Milliy uygʻonish davri oʻzbek adabiyoti”<sup>65</sup> qoʻllanmasi mualliflarining maʼlumotiga koʻra, Namanganda matbuot 1918-yildan avvalroq paydo boʻlgan. Bir qator maʼrifatparlar Isʼhoqxon Ibrat, Husayn Makayev kabi shaxslar bir qator gazetalarga asos solishib Namanganda matbuotni olib kirishgan. Birgina Isʼhoqxon Ibratni misol keltiradigan boʻlsak: Ibrat 1907-yilning yozida Orenburgga boradi. U rus madaniyati, sanʼati va texnika yangiliklarini oʻrganadi. Ayniqsa, u yerdagi Gaufman bosmaxonasi uning eʼtiborini tortadi. Matbaachi Gaufman bilan yaqindan tanishib, oʻz yurtida bosmaxona tashkil etish masalasida yordam berishni soʻraydi. Gaufman Ibratga nusxa koʻchirish, kitob bosish sirlarini oʻrgatadi. Shundan soʻng, bir necha harflar toʻplami, bitta litografiya dastgohini oʻn yil davomida pulini toʻlash sharti bilan sotib olgan Ibrat ularni kata mashaqqatlar bilan poyezdda Qoʻqon shahriga olib keladi, Qoʻqondan esa ot-aravalarda Toʻraqorgʻonga yetkazadi. 1907-yili Ibrat oʻz hovlisida “Matbaʼayi Isʼhoqiya” nomi ostida bosmaxona tashkil etadi. Isʼhoqxon Toʻraning ushbu ishlariga hamqishloqlari yordamlashishadi. Hatto qoʻshnisi Mirzaboy Gʻiyosov harf oʻyish uchun uyidagi yongʻoq daraxtini kesib beradi. Ibrat chet ellarga tez-tez borib turgani sababli bosmaxonaga Oxunzoda Shohidiy rahbarlik qiladi<sup>66</sup>.

Sovet hokimiyati oʻzining dastlabki tadbirlaridan yana biri sifatida ishni omma orasida oʻz gʻoyalarini targʻib qiluvchi milliy nashrlar tashkil etishdan boshladi. Shu davrdan eʼtiboran “Ishchilar qalqoni”, “Erkinlik”, “Qizil tikon”, “Uygʻonish”<sup>67</sup> nomli gazeta-jurnallar nashr etila boshladi.

<sup>65</sup> Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти. (Олий ўқув юртларнинг филология факультетлари учун дарслик.) Тошкент, «Маънавият», 2004.

<sup>66</sup> Умматов Р., Парпиев М. Наманганнинг саркитоби. Т. 2019. – Б. 16.

<sup>67</sup> Мирзалиев Э.Ю., Бозорова М.Т. Наманганнинг ...Б. 56.

Namanganda chop etilgan ilk gazetalardan biri “Ishchilar qalqoni” gazetasidir. Ushbu gazetaning tashkil topishi 1918-yildir.

1918-yil 1-sentabrdan boshlab Namangan ishchi, dehqon va askarlar sovetining organi "Ishchilar qalqoni" (hozirgi “Namangan haqiqati” nomli gazeta ) gazetasi 600 adadida chiqa boshlagan<sup>68</sup>. Bu gazeta Turkiston Ijroiya Qo‘mitasi Favqulodda komissiyasining ko‘rsatmasi bilan ishchi, dehqon va askar deputatlari Namangan Ijroiya qo‘mitasi tomonidan nashr qilingan. Gazetaning birinchi soniga Tohir Fatxullin mas'ul muharrirlik qilgan. Gazeta haftaning seshanba, juma va yakshanba kunlari 1919-yilgacha 400 nusxada chop etilib, uning bahosi 35 tiyin qilib belgilangan<sup>69</sup>. Gazeta haqida ma'lum tasavvurlar bo‘lishi uchun uning birinchi sonini quyida tahliliy tarzda keltirish mumkin. Jumladan, “Ishchilar, o‘z gazetalarigizga mushtariy bo‘lib yozilingizlar” sarlavhasi ostidagi xitob bilan murojaat qilingan va “haftada 2 marotaba chiqadigan gazeta” deb e'lon berilgan. Namanganda “Xalq musiqa maktabi ochildi” sarlavhasi ostida e'lon bosilib, unda musiqa maktabida o‘qish bepulligi va bunga a'zo bo‘lish manzillari ko‘rsatilgan. “Maslak va maqsad” maqolasi gazetaning chiqishi munosabati bilan, uning maqsadi va maslagi nimadan iboratligi ko‘rsatilgan hamda inqilobdan oldingi matbuotsiz musulmonlar ahvoli va matbuotga ega bo‘lgan davr tahlil etilgan. Shuningdek, gazetada noma'lum muallifning “Iztirob” nomli she'ri berilgan bo‘lib, unda podsho hukumati davri qoralangan bo‘lsa, yangi hurriyat zamoni afzalligi aks ettirilgan.

“Ishchilar qalqoni” gazetasining har bir sonidagi sana ikki xil, ya’ni milodiy va hijriy taqvimda ko‘rsatgan. Birinchi son (1918-yil 1-sentabr) chiqqanda, hijriyning 1336-yil 20-zulqadasi (11-oyi) edi. “Ishchilar qalqoni”ning 14-soni 22-oktabrga to‘g‘ri kelib, 1-sahifaning avvalida ushbu so‘zlarni o‘qiymiz.

<sup>68</sup> НВДА, 796-фонд, 1-рўйхат, 44-иш, 2-варак.

<sup>69</sup> НВДА, 796-фонд, 1-рўйхат, 44-иш, 20-варак.

“Haftasiga juma ham seshanba kunlarida chiqodurg’on siyosiy, ijtimoiy va adabiy g’azitadur. Nomeri 14. Namangon, juma, 22 o’ktabr 1918-yil. 12-muharram, 1337-yil. Har donasi 35 tiyin<sup>70</sup>.”

Tabiiyki, “Ishchilar qalqoni” eski o’zbek (arabiy) alifbosida chop etilgan. Birinchi sahifaning eng yuqorisidan ta’sisining kimligi uqtiriladi: Namangon rus-musulmon va askarlar sho’rosining ijroiya qo’mitasining nashri afkoridur.

Gazeta nomining ikki yonidan ushbu bildiruvlar uzluksiz o’rin olardi: G’azita bahosi: bir oyga - 2 so’m 80 tiyin, uch oyga - 8 so’m 00 tiyin, bir yilg’a - 30 so’m 00 tiyin.

Uning ostiga e’lonlarning narxlari ham yozilib, gazetaning manzili quyidagicha bildirilardi: г. Наманган. Ферг.обл. ред. газеты «Щит Пролетариата».

Газитанинг маслагига мувофиқ ҳар хил халқга фойдали мақолаларга жой бериладур. Идора Намангонда, аввалги чопхона матбаъа биносинда<sup>71</sup>.

“Ishchilar qalqoni” ilk sonida o’z maslagini shunday ifodalaydi: bizning olgan yo’limiz ham, maslagimiz ham faqat ishchilar, mehnatkashlar foydasi uchun, o’z qo’li ila kun kechiruvchilar manfaatiga qaratilgan. Gazetaning muharriri Tohir Fatxullin, sarkotib Lutfulla olimiy edi.

Gazeta texnik jihatdan qanchalar mushkul ekani aytilmasa ham ayon. Lekin ijodiy tomoni ham osongina emas: shaharda mushtariylar bo’lsada, Ibrat, Makayev, Olimiy, O’g’izxon singari ijodkor-ziyolilar gazetachilikdan bohabar esalarda, Namangan sharoitida jurnalistika mutlaqo yangi soha, professional matbuotchilar yo’q desa bo’lardi. Buning ustiga kechagina inqilob bo’lib, jamiyat qalqib turibdi, ikki kuch o’zaro qonli kurash boshlagan. Shunday vaziyatda gazeta so’zini kim qanday qabul qiladi? Yozganlarning qizillarga yoqsa, oqlarga yoqmaydi, yoki aksincha. Har ikkisidan ham baloga qolish hech gap emas. Ana shunday tahluka to’fonida Namanganning o’z gazetasini yaratgan va oyoqqa qo’ygan mualliflar asl qahramonlar edilar. Bu so’zda mubolag’a yo’q.

<sup>70</sup> Умматов Р., Парпиев М. Наманганнинг саркитоби. Т. 2019. – Б. 37.

<sup>71</sup> Умматов Р., Парпиев М. Наманганнинг саркитоби. Т. 2019. – Б. 41.

Yohud gazeta sahifalarini qalam tutgan qo'llar uchun jasorat maydoni deya olamiz.

G'ulomali Akramxonov, Himoyiddin Yo'ldoshqoriyev (O'gizxon), Muhammadsharif So'fizoda, Nuriddin Qoriyev, Shog'afur Shomansurov, Inomjon Nizomboyev, Muhiddin Shohimardonov, Hamza Hakimzoda, Akmal Ikromov va boshqalar o'sha paytlari "Ishchilar qalqoni"ning ustunlari bo'lishgandi. Toxir Fatxullinning muharrirlik faoliyati uzoq davom etgani yo'q. Gazetaning nomi ham o'zgarib, 1919-yili "Erkinlikka" aylandi.

"Erkinlik" 1919-yildan chiqa boshlagani to'g'ri, lekin may oyini ko'rsatgan muallif va muarrixlar yanglishganlar. Qo'limizda mazkur gazetaning birinchi soni, u fotonusxa bo'lib, viloyat muzeyi fondida saqlanadi.

Нўмир-1, 20-шаввол 1337 сана, жума, 18 июл 1919 сана. г. Наманган, ред. газ. «Иркинлик». Тел. № 182. Цена одного номера 50 коп. Биттаси 50 тийин. «Иркинлик» («Воля»). Орган национального отдела при Наманганского Совдепа.

Birinchi sahifadagi beshala ustun ikki yirik maqola bilan to'lgan: "Erkinlik" va "Yangi hayot". Imzo qo'ymagan noma'lum muallif (muharrir bo'lishi ham mumkin) "Erkinlik" sarlavhasi ostida nashrning maslagi va maqsadini bayon etgan.

"Erkinlik" Namangan shahar firqo'mi<sup>72</sup>, ijrokumi va kasabalar sho'rosining fikr tarqatuvchisidir. Maslagi talablaringizga muvofiqdur va siyosiy, iqtisodiy, fanniy maqolalarga ochiqdur. Kelgon maktublarni tuzatmoq g'azita ixtiyorinda bo'lib, bosilmagon maqolalar egasiga qaytarilmaydur.

"Ishchilar qalqoni" ham, "Erkinlik" ham ma'muriy-partiyaviy organ ediki, g'oyaviy yo'nalishi muassis talabiga muvofiq bo'lardi, albatta. Shunday bo'lsa-da, yuz yil burun matbuot hiyla erkin ekaniga gazetaning o'zi shaxodat berib turibdi. Chunonchi, dindorlarga zug'um qilinmagan: tarixdan ayonki, Mulla Qirg'iz madrasasi, Qator masjidlar 1920-1930 yillar orasida ham faoliyat ko'rsatardi. O'sha paytdagi ro'znomalar sahifasida partiyaviy va diniy

<sup>72</sup> Firqo'm – firqa (partiya) qo'mitasi.

materiallar yonma-yon “murosa” qila olgan. Gazeta tikmalaridan ko’rdikki, muhim va dolzarb reklama-e’lonlar birinchi betda berilgan. “Ishchilar qalqoni”ning 29-soniga nazar solamiz. Yarim sahifani uchta e’lon band etgan.

“Ishchilar qalqoni” har xil e’lonlar qabul qiladi.

kommunist bolshavik portiyasidan

#### E`LON

Portiyaning umumiy majlisi shanba kuni soat 5 da hamda komititning majlisi seshanba kuni va yakshanba kuni soat 4 da bo’lajak (“Ishchilar qalqoni” no’mir 29, Namangan, juma, 13 dekabr. 1918-yil, 10 rabi ul-avval, 1337-yil, har donasi 35 tiyin).

Huddi shu e’lonning yonginasida sarlavha: Mavludi sharif kuni va kechasi. Uning ustida rukn: Ulug’ bayram. Maqola sahifaning choragini egallab, Mavludi sharif munosabati ila “Sharq kechasi” o’tkazilishi, u ikki qismdan iborat ekani va tadbirning kun soatlari haqida ham bildirish berilgan.

Namangan madaniy-ma’rifiy hayoti haqida gap ketganda, albatta, tatar ma’rifatparvarlari hisoblangan Husayin Makayev va uning rafiqasi Fotiha Makayevalarni alohida keltirib o’tishimiz darkordir. Husayin Makayev 1875-yili Saratov oblastining Xvalinsk rayonidagi Novokulak qishlog’ida (Rossiya) tug’ilgan. 1907-yili rafiqasi Fotiha bilan Namanganga kelgan va madaniy-ma’rifiy o’zgarishlarda faol ishtirok etgan. Ikkovilari matbaa ishida mavlono Ibratga yaqin yordamchi bo’lganlar. Tipografiya qoshida iqtidorli yoshlarning drama truppasi tuzilib, uning tashkilotchisi va rejissiyori Husayin Makayev 1910-yili “Cholborsiz” nomli namoyish qiladi. Bosh rollarni o’zi va Fotiha ijro etadi<sup>73</sup>.

“Farg’ona jurnalistikasi” to’plamida 1917-yili oz muddat chop etilgan ikki gazeta – “Farg’ona nidosi” va “Ravnaq ul-Islom” nashrlarining-muharriri Namanganlik Husayin Makayev ekani ko’rsatilgan.

Darhaqiqat, Husayin Makayev bevosita o’z ilmiy faoliyatida Is’hoqxon Ibratga katta amaliy yordam berdi. Ibrat taklifiga ko’ra Namanganga kelgandan

<sup>73</sup> Умматов Р., Парписев М. Наманганнинг саркитоби. Т. 2019. – Б. 45

so'ng maktabda dars beradi. Bir qator gazetalar nashr ettiradi. Jumladan “Farg’ona nidosi” va “Farg’ona sahifasi” nashrlari shular jumlasidan.

“Farg’ona sahifasi” gazetasi – 1917-yil 15-martdan Namanganda Husayin Makayev tomonidan o'zbek tilida nashr etilgan. Gazetaning 19 ta soni chop etilgan xolos<sup>74</sup>.

“Farg’ona nidosi” gazetasiga to'xtaladigan bo'lsak, ushbu gazeta ham 1917-yil dekabrda Namanganda tatarlar jamiyati tomonidan, bevosita Husayin Makayev muharrirligida nashr etilgan. Gazeta kichik hajmda bo'lsada, tez-tez chiqib turishi va eng so'ngi ma'lumotlarni to'liq yetkazib berishi bilan boshqa gazetalardan farqlanar edi.

E'tiborli jihat Husayn Makayev “Ishchilar qalqoni” gazetasining tashkilotchilaridan biri bo'ldi va 1921-yildan 1928-yilgacha Namangandagi davlat bosmaxonasini boshqardi. U 1937-yil qatag'on qurboni bo'lgunga qadar pedagogik faoliyat bilan shug'ullandi. H.Makayevning pedagogik, nashriyotchilik faoliyatida uning xotini F. Makayeva ham juda katta yordam bergan<sup>75</sup>.

Umuman, XX asr 20-30-yillardagi vodiy va Namangan matbuotida bu siymoning ijodi alohida o'rin tutadi.

1917-yil davomida Namangan uyezdida ko'plab jamiyatlar ham tashkil topdi, gazeta va jurnallar chop etila boshladi. Jumladan, Chust shahrida 1917-yilning boshlarida yoshlar tashabbusi bilan “Jumhuriyat” jamiyati ochildi<sup>76</sup>.

1917-yil oxiridan boshlab hozirgi "Namangan haqiqati", “Наманганская правда” gazetalarining dastlabki sonlari “Народная газета”, “Erkinlik”, “Ishchilar qalqoni”, “Совдеп” kabi nomlar bilan “Matbaayi Is'hoqiya” bomaxonasida chop etila boshlagan<sup>77</sup>. Shuningdek, 1917-yildan boshlab Namanganda rus tilida “Известия Наманганского Совета рабочих, солдатских и дехканских депутатов” deb nomlangan gazeta chiqa boshlagan. Gazeta

<sup>74</sup> Расулов А. Н., Исоқбоев А. А. Туркистон ва Россия муносабатлари тарихи. Наманган, 2011. – Б. 111.

<sup>75</sup> Расулов А. Туркистон ва Волгабўйи, Уралолди халқлари ўртасидаги муносабатлар.(1917-1924 йиллар).-Тошкент: Университет, 2005.-Б.179-180.

<sup>76</sup> Қосимов Ў. Қора кўзойнак билан ёзилган тарих.-Наманган, 1993.-Б.7.

<sup>77</sup> Самадов Ю. Мавлоно Ибрат ворислари. – Наманган. 1999. – Б. 5.

dastlab haftada 3 marta nashr etilib, 1919-yildan uning tiraji soni 350-400 nusxaga yetkazilgan<sup>78</sup>.

1918-yil 18-yanvardan boshlab Namangan ijroiya Sovdepi organiga tegishli bo'lgan “Народная газета” 300–400 adadida chiqa boshlagan.

Namanganda 1919-yil avgustdan boshlab esa haftada uch marta o'zbek tilida “Известия” gazetasi<sup>79</sup> va rus tilida “Бюллетен Наманганского Совдепа”<sup>80</sup> gazetasi 200 adadda nashr etila boshlagan. 1919-yil noyabrdan boshlab esa, musulmonlarning “Erkinlik”<sup>81</sup> (Свобода) deb nomlangan gazetasi va o'zbek tilida “Uyg'onish” gazetalari ham nashr etila boshlagan. “Erkinlik” gazetasi sahifalarida Akmal Ikromov, Husayn Makayevlarning ijtimoiy-siyosiy va madaniy masalalarga doir maqolalari bosilgan.

Farg'ona shahrida 1929-yil oktabr oyining boshlarida O'zbekiston markaziy ijroqo'mining 2-sessiyasi bo'lib o'tdi. Yetakchi muhokamalardan biri mehnatsiz xo'jaliklarni<sup>82</sup> tugatish masalasi bo'lib, bu haqda Fayzulla Xo'jayev ma'ruza qildi.

F. Xo'jayev matbuot ishiga nihoyatda e'tiborli bo'lib, sessiyaning borishi va uning nutqi okrugdagi aksariyat gazetalarda, jumladan, Namangan gazetasida ham keng yoritildi va muhokama qilindi.

VKP (b) MQ plenumi (1929-yil, noyabr) va Farg'ona okrujkom qarorlariga binoan Chustva Pop uchun ham sayyor gazeta chiqarish buyurilib, bu “Yangi Farg'ona” ijodiy jamoasining zimmasiga yuklandi. Tahrir hay'ati (Sharif Rizo, Xolbek Yodgoro, Anna Smorodkina) uzoq kengashgach, yangi nashrga “Kolxoz ilgari bos!”<sup>83</sup> deb nom berildi. Ancha mashaqqatdan so'ng: “Kolxoz ilgari bos!” ning 1-soni 1929-yil 23-dekabrda, 9-soni 1930-yilning 12-yanvarida bosmadan chiqdi. U paytlari na Chust va na Popda tipografiya yo'q edi. Sayyor gazeta tashkilotchilari o'zlari bilan ko'chma bosmaxona, ikki harf teruvchi va bir nashrlovchini birga olib kelishdi. To'rt sahifalik gazeta

<sup>78</sup> НВДА, 796-фонд, 1-рўйхат, 51-иш, 46-варак.

<sup>79</sup> НВДА, 796-фонд, 1-рўйхат, 44-иш, 2-варак.

<sup>80</sup> НВДА, 13-фонд, 4-рўйхат, 8-иш, 69-70-вараклар.

<sup>81</sup> НВДА, 796-фонд, 1-рўйхат, 51-иш, 48-варак.

<sup>82</sup> Mehnatsiz xo'jaliklar – ishlaydigan, mehnatsiz yashaydigan boylar, “quloqlar”.

<sup>83</sup> Умматов Р., Парписев М. Наманганнинг саркитоби. Т. 2019. – Б. 47.

mashinani qo'l bilan aylantirib, har bir soni ming nusxadan bosilgan. Ta'kidlaymizki, Pop-Chust uchun chiqarilgan "Kolxoz ilgari bos!" Namangandagina emas, O'zbekiston bo'yicha ham o'zbek tilidagi birinchi sayyor gazeta edi.

O'tgan asrning 60-yillarida "Namangan haqiqati" taxlamlarida o'zbek xalqi tarixining kata bir shahodati namoyon bo'ldi. Kosmosdan tortib, zamin kurrasigacha, Amerikadan to Qizilqumgacha, Misr mo'miyosi va kibernetika – hammasi bor.

Namangan shahri va Namangan gazetasiga<sup>84</sup> aylantirilgan sobiq viloyat nashri baribir o'z vazifasini uddalashga burchli edi. Ancha-munchalari urushda toblangan og'alarimiz gazetxon suygan an'analarni davom ettirdilar. "Namangan haqiqati"ga kosmonavtika mavzusi kirib keldi, akademik Korolyov va birinchi fazogirning suratlari qayta-qayta chop etilardi.

O'tgan asrning 60-yillari o'rtasida "Namangan haqiqati" matbuotda qariyb chorak asr davom etgan nohush an'anadan qutuldi. Oilaviy ajralishlar e'loni o'sha-o'sha gazetalar sahifasiga chiqmaydi. Ungacha Falonchining Pismadonchidan ajrashish haqidagi arizasi xalq sudi tomonidan qabul qilindi mazmunidagi "reklama" deyarli har sonda bosilardi.

Gazetaning nomi birinchi betning goh o'ng, goh chap tarafida, hatto sahifaning o'rtasida bo'lardi. Ellik-oltmish yil burun narxi 2 tiyin ekani, tahririyat manzili va telefonlarini so'nggi betda qayd etish boshlandi, lekin adadini ko'rsatmaslik deyarli an'anaga deyarli aylandi

Yilma-yil tahlamlardagi imzolar kishini quvontiradi, negaki, ular xilma-xil, tobora ko'payib, geografiyasi kengayib borgani, ijod olamida Namanganlik xotin-qizlarning faollashgani yaqqol seziladi. K. Xojimatov, R. G'afurov, F. Sirojiddinov, S. Turg'unov, A. Tursunov, R. Fayziboyeva, M. Abdullayeva, S. Xasanova, Xabib Sa'dulla, O. Xolmirzayev, T. Inomxonov, G. Akbarov, Y. Egamberdiev, M. Parpiyev, T. Sulaymonov, E. Yondoshev, S. Nasimxonov<sup>85</sup> va

<sup>84</sup> "Namangan haqiqati" 1962-yili (70-son) 10-iyundan to 1968-yil 9-fevralgacha shahar gazetasi edi.

<sup>85</sup> Уматов Р., Парпиев М. Наманганнинг саркитоби. Т. 2019. – Б. 75.

boshqalar 60-yillarda ijodga, jumladan, “Namangan haqiqati” sahifalariga kirib kelishdi. Ayni o’sha paytlari gazeta o’z tarixida ilk bor “foto”ga yolchidi. L. Soldatov, S. Hakimova, A. Abbosov, Q. Qurbonov, A. Ahmedov, Sh. Kamolovlar olgan suratlar gazetaning asl bezagiga aylandi.

1968-yilning avvalida “Namangan haqiqati” shahar organi bo’lib, haftada uchta soni chiqardi. Soli Otajonov 9-fevral kuni redaktor sifatida so’nggi bor qo’l qo’ydi. Gazeta 11-fevraldan (19-son) viloyat va shahar organiga aylandi, birinchi marta Lutfulla Xamroyev imzosi bilan chop etildi, ammo bichimi hamon kichkina (“A-3”) edi. O’sha yil oxirida (10-dekabr) tahririyat o’z mushtariylariga shunday bildirish va murojaat bilan chiqdi:

Hurmatli gazetxonlar! “Namangan haqiqati” 1969-yildan “Pravda” formatida chiqa boshlaydi. Binobarin, yangi yilda ishchi-qishlok, muxbirlari sermazmun va dolzarb xat-xabarlar yo’llab, bizga yana ham faol ko’mak beradilar degan umiddamiz.

“Namangan haqiqati”ning 1962-yilgi sonlarida 32-yil chiqishi” deb ta’kidlanishini oldinroq yozgandik. Keyinroq bu ma’lumot ko’rinmay ketgandi, 1968-yili yana paydo bo’ldi: “38-yil chiqishi”. Agar bu xaqiqat o’rnida qabul qilinsa, gazetamiz 1930-yili ta’sis etilgan bo’lardi. Arxiv materiallari muammoga oydinlik kiritdi va 1969-yili “Namangan haqiqati”ning tavallud sanasi 1918-yil ekani aniqlandi. Xullas, viloyatimizning bosh nashri dastlab “Ishchilar qalqoni” nomida bo’lgani va ilk soni 1918-yili sentabrda chiqqani belgilanganiga yarim asr bo’ldi...

1972-yil 16-noyabr (chorshanba) kuni “Namangan haqiqati”ning (o’n minginchi) 10000-soni bosmadan chiqdi. Bu o’ziga xos dovon ediki, o’sha gazetani qiziqish va ixlos bilan obdn o’qidik.

XX asr 70-yillarida Viloyat gazetasining materiallarini tanqidiy va rang-barang, mualliflarning qalami o’tkir va bayov bo’lganligini quyidagi tanqidiy maqolalarda yaqqol ko’rishimiz mumkin: “Mas’uliyatimiz rahbarlar” (1971-yil 28-yanvar), “Mas’uliyatni unutayotganlar” (1976-yil 18-may), “O’zibo’larchilik qachongacha” (1976-yil 6-avgust), “O’rinsiz kekkayish” (1977-yil 9-dekabr),

“Xotirjamlik evi bilan-da” (1976-yil 30-dekabr), “Qo’ynidan to’kilsa...”<sup>86</sup> (1979-yil 27-aprel) kabi felyeton va maqolalarda turli sohalardagi kamchiliklar, ayniqsa, mutasaddilarning beparvoligi qattiq tanqid ostiga olingan. Bu materiallarda jurnalistik mahorat nuqtayi-nazaridan o’rganishga loyiq fazilatlar anchagina.

Yana shuni alohida ta’kidlash o’rinliki, tanqidlar beiz ketmagan. Masalan, 1977-yil 9-dekabrda bosilgan maqolaning javobi atigi 15 kundan so’ng – 24-dekabrda e’lon qilingan. Bu xildagi munosabatlar deyarli har bir sonda bo’ladigan “Namangan haqiqati materiallari izidan” rukni ostida mushtariylarga taqdim etilgan.

Muharrir bo’lish osonmi? Gazetaga bir kishi rahbarlik qiladi, issig’iy-u sovug’iga, yaxshiy-u yomoniga ham o’sha yagona kishi javob beradi. Binobarin, sahifalardagi xatolar uchun eng avval jabr chakadigan ham u. Bu – muharrir.

Bir asr davomida “Namangan haqiqati”ning so’nggi sahifasi tubida o’sha imzo 40 martadan ortiq, 50 martaga yaqin almashti. Muharrirlikka 2-3 bor tayinlanganlar bo’ldi, hech qancha ishlamay frontga jo’natilgan redaktorlar ham bor, kimnidur nemis o’qi yiqitgan bo’lsa, kimnidur qatag’on mashinasi yamlab ketdi. Quyida mana shunday muharrirlar bilan tanishib chiqamiz:

1918-yil – “Ishchilar qalqoni”

Mas’ul muharrir – Toxir Fatxullin.

Mas’ul muharrir o’rinbosari – Himoyiddin Yo’ldoshqoriyev (O’g’izxon).

Mas’ul kotib – Lutfulla Olimiy.

1919-1931-yillar – “Erkinlik”

Mas’ul muharrir (oz muddat) – Himoyiddin Yo’ldoshqoriyev (O’g’izxon).

1920-yillar – “Yangi Farg’ona”

Bu gazeta usha davrda Namanganga ham xizmat qilardi. 1923-yildan mas’ul muharrir – Lutfulla Olimiy (Olimov).

1931-1934-yillar – “Zarbdor”

---

<sup>86</sup> Умматов Р., Парпиев М. Наманганнинг саркитоби. Т. 2019. – Б. 87.

Mas'ul muharrir – Ibrohim Abdullayev yoki Xudoyberdi Ayubov.

1934-1941-yillar “Ударник”

Mas'ul muharrir – I. Abdullayev, 1936-1937 yillarda Asil Mansur.

1941-yil – “Satlin haqiqati”

Mas'ul muharrir – B. Jonboyev<sup>87</sup>.

1942-yilda “Stalin haqiqati”dagi bosh imzo almashavergach, oy sayin, hatto har kuni yangilanardi.

1-yanvardan 7 martgacha – mas'ul muharrir B. Jonboyev.

8-martdan 15-martgacha – vaqtincha mas'ul muharrir L. Qayumov.

17-martdan 24-martgacha – vaqtincha mas'ul muharrir Q. Olimov.

“Stalin haqiqati” yoz bo'yi Q. Olimov imzosi bilan chiqqan, 1-sentabrdan vaqtincha mas'ul muharrir T. Rustamov bo'lib, 15-sentabrdan u mas'ul muharrir ekani qayd etilgan. O'sha yili (1942) dekabr oyida vaqtincha mas'ul muharrir I. Koneyev degan kishi bo'lgan.

1943-yili ham shu ahvol: 1-10 yanvar kunlari T. Rustamov mas'ul muharrir bo'lsa, 12-yanvar – 28-iyul orasidagi barcha sonlarga Rafael Myaskov imzo qo'ygan. O'sha yilning (1943) 30-iyulidan keyingi gazeta sonlari muharrir O'lmas Aliyev nomi bilan chiqqan.

1942-1943-yillari “Stalin haqiqati” gazetasida suratlar oz-moz bor, lekin birortasi ham mahalliy fotomuxbirlar mahsuloti emas. Barcha rasmlar ostida bir xildagi izoh: ТАСС yoki ЎзТАГ<sup>88</sup> fotoxronikasi edi.

1944-yil

Mas'ul muharrir – O'lmas Aliyev.

Bahor va yozning avvalida mas'ul muharrir – Q. Uzoqov.

Avgust oyida mas'ul muharrir o'rinbosari – T. Toshboyev.

1-11 dekabrda vaqtincha mas'ul muharrir – E. Rahimov.

12-dekabrdan mas'ul muharrir – U. Aliyev.

<sup>87</sup> Умматов Р., Парпиев М. Наманганнинг саркитоби. Т. 2019. – Б. 94.

<sup>88</sup> Умматов Р., Парпиев М. Наманганнинг саркитоби. Т. 2019. – Б. 96.

1945-yil

Yanvarda mas`ul muharrir – U. Aliyev.

2-fevraldan vaqtincha mas`ul muharrir – Q. Uzoqov, keyinchalik u mas`ul muharrir bo`lib ishlagan.

“Stalin haqiqati”ning o`sha yil (1945) kuzgi sonlariga avval E. Rahimov, keyin S. Otajonov vaqtincha mas`ul muharrir sifatida qo`l qo`yishgan.

1946-yil

Mas`ul muharrir – Q. Uzoqov.

1947-yil

Mas`ul muharrir – Q. Uzoqov.

Iyun-iyul oylarida mas`ul muharrir vazifasini bajaruvchi – E. Rahimov.

Avgust-dekabrda mas`ul muharrir – Q. Uzoqov.

1948-yil

Mas`ul muharrir – Q. Uzoqov.

Avgust-sentabrda mas`ul muharrir o`rinbosari – E. Rahimov.

Oktabr oyidan mas`ul muharrir – Q. Uzoqov.

1949-yil

Mas`ul muharrir – Qobiljon Uzoqov.

Fevral-mart oylarida mas`ul muharrir vazifasini bajaruvchisi – E. Rahimov.

Yil (1949) oxirigacha mas`ul muharrir – Qobiljon Uzoqov.

1950-yil

Mas`ul muharrir – Qobiljon Uzoqov.

1-oktabrdan 31-dekabrgacha mas`ul muharrirlik vazifasini vaqtincha bajaruvchi – E. Rahimov

1951-yil

Yil boshida “Stalin haqiqati”ga E. Rahimov mutasaddi bo`lgan. Lavozi: 1-yanvardan 6-fevralgacha – mas`ul muharrirlik vazifasini vaqtincha bajaruvchi,

7-fevral – 9-mart gazetalarida - muharrirlik vazifasini vaqtincha bajaruvchi, 10-martdan to 21-martgacha – redaktorlik vazifasini zashita bajaruvchi.

23-martdan to yil oxirigacha muharrir - S. Otajonov.

1952-yil

Redaktor – S. Otajonov.

Oktabr-dekabrda redaktor imzosi o'rniga редколлегия<sup>89</sup> yozilgan.

1953-yil

Yanvar-martda redaktor – T. Soatov.

15-martdan redaktor vazifasini vaqtincha bajaruvchi – Aziz Tursunov.

Avgust oyidan redaktor – Qobiljon Uzoqov.

1954-yil

15-mayga qadar redaktor – Q. Uzoqov.

16-may – 4-iyun sonlarida – redkollegiya.

5 iyun – 11-iyun kunlari redaktor vazifasini bajaruvchi – S. Tillayev va u

12-iyundan to yil oxirigacha redaktor bo'lgan.

1955-yil

“Stalin haqiqati”ning yanvardagi 6 ta soni ostiga redkollegiya qayd etilgan, keyin redaktor – S. Tillayev.

Iyun oyining avvalida redaktor o'rinbosari – A. Tursunov.

10-iyuldan 28-avgustgacha redaktor – S. Tillayev.

30-avgustdan 12-oktabrgacha redaktor o'rinbosari – A. Tursunov.

14-oktabrdan 31-dekabrgacha redaktor – S. Tillayev.

1956-yil

Yil bo'yi redaktor – S. Tillayev.

1957-yil

“Stalin haqiqati”ning nomi o'zgarib, 5-maydan “Namangan haqiqati”ga aylandi. Gazetaga Sanjar Tillayev 1960-yilgacha uzluksiz rahbarlik qildi.

---

<sup>89</sup> Умматов Р., Парписев М. Наманганнинг саркитоби. Т. 2019. – Б. 97.

## 1960-yillar

1960-yil yanvarda Namangan viloyat sifatida tugatilib, 1967-yil dekabrga qadar asosan Andijon, qisman Farg'ona viloyati tarkibida bo'ldi. Ana shu yillarda "Namangan haqiqati" Namangan shahar va Namangan tumani gazetasiga aylandi. 1962-yil 20-iyun (№ 70) sonidan boshlab esa butunlay shahar tasarrufiga o'tdi. Haftada uchta soni (chorshanba, juma, yakshanba) chiqib, gazetaga 7 yildan ortiq (1960-1968) Soli Otajonov muharrirlik qildi.

## 1968-yillar

"Namangan haqiqati" 9-fevralga qadar hamon shahar gazetasi bo'lib, haftasiga uch kun S. Otajonov imzosi bilan chop etilib turdi.

11-fevralda (19-sonida) u viloyat va shahar rahbariyatining organiga aylanib, muharrir sifatida Lutfulla Hamroyev ilk bor qo'l qo'ydi.

Gazetaning birinchi sahifasida ijodiy jamoaning shunday bildiruvi va murojaati bosilgandi:

Assalomu alaykum, qimmatli mushtariylar! Sevimli gazetangiz "Namangan haqiqati" bugundan e'tiboran haftada besh marta: seshanba, chorshanba, payshanba, juma, shanba kunlari chiqa boshlaydi. Redaksiya sizlardan yangi-yangi maqola va lavhalarni she'r-u hikoyalarni, xat-xabarlarini kutadi.

Ayni shu sondan (11-fevral) viloyat ahliga cheksiz quvonch bag'ishlovchi muhim xabar ham o'rin olgandi.

## 1968-1975-yillar

Redaktor – Lutfulla Hamroyev.

## 1976-1981-yillar

Redaktor – Abdulhaq Madumarov.

## 1981-1993-yillar

Redaktor – Talaboy Nazirov (1990-yilda redaktormas, muharrir va 1991-yil 1-yanvardan bosh muharrir).

Yuqoridagilardan xulosa o'rnida aytishimiz mumkinki, Namanganda matbuotning kirib kelishi va rivojlanishi o'ziga xos murakkab davrda kechdi, shunga qaramay sovet mustabid tuzumi davrida matbaa ishlari to'xtab qolmadi.

O'zbekistonda televideniya va radio tarixi ham alohida xususiyatga egadir. 1924-yildan O'rta Osiyoda birinchi marta O'zbekistonda radio eshittirishlarning moddiy-texnika bazasi yaratildi<sup>90</sup>. O'zbekistonda dastlabki radio eshittirish tajribalari 1926-yil Toshkentda amalga oshirilgan. 1927-yil 11 fevralda quvvati 2 kvv bo'lgan ommaviy radio stantsiya ishga tushirildi. Hozirgi kunda O'zbekistonda 14 ta radiostudiya mavjud<sup>91</sup>. Radioning o'zigi xos xususiyatlaridan biri undagi jonli so'z – asosiy ifoda vastasi ekanligidir. Radio jurnalistikada fikr va axborotlarni bayon qilishda ifoda vositalari sifatida musiqiy ohanglar jo'rliigi dilga jo'r bag'ishlaydi. Radio – axborot tarqatishning tezkor uslubi. Radio – axborotning asosiy hususiyati ma'lumotlarning hujjatlarga asoslanganligidir. Radio eshittirish dasturlari dolzarb, haqqoniy, aniq, targ'ib qilinayotgan mavzu dalillirga boy bo'lishi zarur. Namangan shahrida radioni ishga tushirilishi to'g'risida turli xil taxminlar bor. 1932-yilda Namangan radiosi birinchi bo'lib faoliyatini Mulla Qirg'iz madrasasi xonaqolaridan birida boshlagan edi. Yana bir taxminga ko'ra, 1928-yilda Uychi ko'chasida Mulla Qirg'iz madrasasi binosiga pochta, keyinroq radiouzel joylashtirildi. Birinchi qavatda apparatxona, ikkinchi qavatda esa studiya jihozlandi. Ammo u vaqtda bironta xonadonda “radiotochka” yo'q edi. Radio - gazeta, axborot, shu jumladan mahalliy sozanda va hofizlarning chiqishlari simyog'ochlarga o'rnatilgan bor yo'g'i 15 ta radiokarnay orqali eshittirilardi. Shu boisdan ham arxiv hujjatlari Namanganda o'sha uzoq 1932 yilni ayni bahorida radio rasman jaranglaganidan dalolat beradi.

“Diqqat qiling! Diqqat qiling! Namangan radiouzelidan gapiramiz”. Bu so'zlarni ilk bor radioda yangrashni madaniyat va istirohat bog'iga yig'ilganlarni katta hayajonga soldi. Chunki simyog'ochga ilib qo'yilgan “Temir quti”

<sup>90</sup> Абдуазизова Н. Ўзбекистон оммавий ахборот воситалари. –Т.: Академия. 2003. – Б. 16-17.

<sup>91</sup> Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 12- том. Давлат илмий нашриёти. – Б. 231.

to'satdan gapira boshlagandi. Bu haqda S.E. Smirnov o'zining 1932-yilda Moskvada nashr etilgan «Говорит Ташкент» kitobining 11-betida shunday yozgan edi: “Namangan radiouzeli sobiq madrasa binosiga joylashdi. Namangandan chiqadigan «Ударник» (“Zarbdor”) gazetasi xodimlari radiogazeta tayyorlashni o'z zimmlariga olishdi”. Shunday qilib, radiogazeta kunora chiqadigan bo'ldi. Smirnov ta'kidlaganidek, radiogazeta eshittirishiga ko'pchilik o'rganib qoldi.

Namangan shahrida radio ishga tushirilishida O'zbekiston radiosi va respublika “Radio do'stlar jamiyati” hamda O'zbekiston kasaba uyushmasining qo'shgan hissasi katta bo'ldi. Namangan radiouzeli ilgarigiga nisbatan ancha takomillashgan apparatlar bilan ta'minlandi. To'rt lampali 50 nuqtali quvvatga ega bo'lgan “EKL-5” markali kuchaytirgich o'rnatildi. Natijada Toshkent eshittirishlarini “B – 43” markali radiopriyomnik orqali Namanganliklarga olib berish imkoni tug'ildi.

Yangi radio tarmog'i tortildi. Uni yog'-ekstrakt zavodining elektr ustalari bajarishdi. Uychi dehqon bozori, Vorovskiy(hozirgi Ko'zagarlik ko'chasi), Samarqand ko'chalariga, Kurashxona choyxonasiga sim tortilib, radio karnaylari o'rnatildi. Keyinchalik esa radiouzel tomonidan Uychi tumanidagi “Qizilravot” sovxoziga, Yorkatay, Yangiqo'rg'on paxta tayyorlash punktlariga, Namangan tumanidagi Yosin qishlog'iga radiopriyomniklar ajratildi. 1932-yili Namangan rayonidagi Shamsiko'l qishlog'iga 20 “nuqta”li kuchaytirgich o'rnatildi. Norin tuman markazi Haqulobodda ham 100 “nuqtali”li radiouzel qurildi<sup>92</sup>. Respublika radiosi qoshida tashkil etilgan radio instruktorlar tayyorlash kursini tutallab kelgan Sara Epasova boshchiligida Chustda radiolashtirish boshlandi. 1968-yilda viloyatimizda 10 ta tuman radiolari barpo etildi. Har bir tumandan radio uchun jihozli ishxona va maxsus studiyalar tashkil etilib, “MEZ-18” magnitofonlari, ya'ni yozuv mashinalari bilan ta'minlandi.

<sup>92</sup> «Тарих тилга кирганда». // даврий тўплам № 2. Наманган. 2008. – Б. 62

Namangan shahri radiosida ilk boshlovchilik qilgan shaxs mashhur san`at arbobi marhum Razzoq Hamroyev bo`lgan. 1934-yilga kelib mahalliy eshittirish ikki tilda, o`zbek va rus tillarida berila boshlandi. Radio atrofiga Ibrohim Abdurazzoqov, Aleksandra Aver`yakova, Sara Epasova, Solijon Mirobidov, Zohid Dadaboyev, Hayitboy Aliyev, Isroil Aliyev kabi yosh radiohavaskorlar uyushishdi. Iste`dodli aktyor Lutfulla Qayumov ularga boshchilik qildi.

1939-yili Katta Farg`ona kanali qazila boshlandi. Radiojurnalistikada fikr va axborotlarni bayon qilishda ifoda vositalari sifatida musiqiy ohanglar jo`rligi dilga zavq bag`ishlaydi. Radio axborot tarqatishning eng tezkor uslubi bo`lib qoldi. Shu sababli, Toshkentdan uchta ko`chma radiostantsiya yuborildi. Farg`ona vodiysidan Niyozovni, Andijon radiosidan Azimovni, Namangan radiosidan Qayumovni kanal qurilishida qo`lga kiritilayotgan yutuqlardan vodiy ahlini xabardor qilish uchun chaqirtirildi. 1950-yillardan keyin Namanganda radioeshittirishlar, ayniqsa, yuqori saviyaga ko`tarildi. Bu paytda radiojurnalistikaning Mariya Isakovna Yudasina, Sayfiddin Nasriddinov, Aziz Tursun, Mirzaahmad Mamatov, Egamberdi Rahimov, Fazliddin Mirzayev, Xolida G`aniyeva singari fidoyilari etishib chiqdi. O`zbek tilidagi eshittirishlarni birinchi marta erkak va ayol diktorlar birgalikda 1956-yilda olib bordilar. Bular N. Jo`raboyev va jurnalist Toshtilla Rasulovalar edi<sup>93</sup>.

Radioeshittirishi dasturlari dolzarb, haqqoniy, aniq, targ`ib qilinayotgan mavzu dalillarga boy bo`lishi zarur. Axborot va maqolalar tayyorlab bo`lingach, eshittirish payti etganda diktor yoki olib boruvchi studiyaga kirib, o`qishni boshlardi. Uning ovozi yagona mikrofon orqali radiouzel kuchaytirgichi vositasida ham shahar tarmog`iga, ham telefon tarmog`iga uzatilardi. Sim orqali borgan signalni rayon radiouzellari qabul qilib, yana kuchaytirgich “radionuqtalar”larga uzatardi. Xuddi shu paytda shahar va tumanlararo telefon simlari kunda yarim soat band etilib, buning uchun aloqa boshqarmasiga katta pul to`lanardi. Bu holat 1969-yilgacha davom etdi. 1955-yili Toshkentdan Namanganga “MAK-7-8” markali magnitofon keldi. Uning og`irligi mikrofoni

<sup>93</sup> «Тарих тилга кирганда». // даврий тўплам № 2. Наманган. 2008. – Б. 63

bilan 100 kg dan ortdi. Bu magnitofonni ishlatishni bilinmaganligi uchun 2 yil mobaynida qarovsiz yotdi. Fazliddin Mirzayev ishlamayotgan magnitofonni radiouzel texniklarining yordami bilan o`rganishda tashabbus ko`rsatdi. 1957-yilda birinchi marta Norin tumanidagi partiya komitetining 1- sekretari bo`lgan S. Qoraboyev bilan reportaj tashkil etildi. Bir hafta davomida katta qiyinchiliklar bilan bir necha daqiqali eshittirish tinglovchilarga havola etildi va bu shahar radiosiga juda katta shuhrat keltirdi. 1954-yilga kelib viloyat qishloq joylaridagi radiouzellar soni 1948-yilga qaraganda 5 barobar ko`paydi. Radionuqtalar soni ham 6 marta, qishloq joylarida esa 8 marta ko`paydi. Viloyatda 11 ming radionuqta o`rnatildi. 1961-yil shahar radiouzel xodimlari "AVX-1" nusxadagi eng yangi apparat va yuqori voltli radiouzatgich yo`li o`rnatdilar. Shahar radiouzeli qishloq radiotarmoqlarini otalig'iga olib, ularga texnik va moddiy yordam berib keldi. 1966-yilga kelib shahar radiouzeli 15 kvt quvvatga ega bo`ldi. O`sha mahalda shaharda 17 ming atrofida "radionuqtalar" mavjud edi. Bu quvvat bilan 30 ming radioshashobchaga xizmat qilishga sharoit tug'ildi. Ibrohim Yunusov 1968-yilda radiokomitet raisligiga tayinlandi. U Namangan ovozinining birinchi marta efirga olib chiqishga erishdi. Radioning birinchi injeneri Abbosxon Muxammadjonov Namangan radiosini zamonaviy texnika vositalari bilan jihozlangan korxonaga aylantirdi. Radio korxonasi bor edi, lekin uning aniq binosi yo`q edi.

Radio binosi qurilishida obkomning birinchi sekretari bo`lib ishlagan Asadulla Ashropovich Xo`jayevning xizmati katta. Bu inson radioga tez-tez kelib turgan. Ular birinchi bor radioga ta'slif etilganda Sovet ko`chasida 26-uyda(hozirgi Bobur bog'i xiyoboni), ikkinchi marta esa Krasnoarmeyskaya ko`chasidagi 14-uyda (hozirgi Hurriyat ko`chasi), uchinchi safar Bank ko`chasidagi 9-uyda radiochilar kutib olishgan<sup>94</sup>. Bu voqealardan Asadulla Xo`jayev radio idorasi qurish kerakligini va unga qo`lidan kelgancha yordam qilishini aytgan. Shundan so`ng 1971-yili kerakligini va unga qo`lidan kelgancha yordam qilishini aytgan. Shundan so`ng Lenin prospekti boshida

<sup>94</sup> «Тарих тилга кирганда». // даврий тўплам № 2. Наманган. 2008. – Б. 64

oziq-ovqat magazni ustidagi ko'p qavatli uy bilan go'daklar uyi oralig'ida yashovchi 10 ta oilaga boshqa yer berilib, radio uyi qurilishiga maydon ajratildi. Toshkentga binoning loyihasi uchun buyurtma berildi. Texnik imkoniyatlari uchun 20 dan ortiq muassasa qaydnomalari to'plana boshlandi. Biroq A. Xo'jayevning Toshkentga Markaziy Komitet(markazkom)ga ishga ketishi radio uyi qurilishini orqaga surdi. Buning ustiga shahar Ijroya Komiteti(ijrokomi) radioni yana boshqa joyga - Krasnoarmeyskaya ko'chasidagi 15-uyga ko'chirdi. O'zbekistonda televideniye va radioeshittirish komitetlari orasida birinchi rais ayol bo'lgan Dildora Yo'ldosheva bir necha bor Moskvaga borib bo'lsa ham radio uyi qurilishiga ruxsat oldi. Shaharning qoq o'rtasidan Yangiariq bo'yidan joy ajratildi. 1981-yilda bu ruxsatnomaga erishildi. Shu yilning o'lchovi bilan juda havoyi 1 mln. so'm mablag'ni undirdi. Atigi 3 yil mobaynida radio uyi qurib bitkazildi. Bu Farg'ona vodiysidagi birinchi va yagona radio uyi edi.

Namangan radiosida o'sha paytlarda "Qadriyat", "Qopqon", "Iqbol", "Hur fikr", "Yuzma-yuz" kabi tinglovchilarni mulohazaga chorlovchi eshittirishlar bor edi. Ayniqsa, Muxammadjon Maqsudovning "Keling ochiqchasiga gaplashaylik", "Oshkora muloqot", Asqarjon Obidovning "G'uncha", A. G'oziyev va X. Rustamovlarning "Yoshligim — oltin chog'im" radiojurnallariga o'ziga xos muxlislariga ega edi.

Radioni rivojlanishida rus redaksiyasini mohirlik bilan boshqargan Anna Apollonovna Kokorina, muxbir Nadejda Petrovna Kochubey, Mixail Puzanov, mashinistkalar Fotima Daminova, Masturaxon Maxmudova, qalamkash Lyudmila Nikolayevna Provaslanovnalarning xizmatlari katta bo'ldi.

1986 yili 56 mln. so'm mablag' sarflanib, zamonaviy radio uyi qurib bitkazildi. 1990 yil 18 oktyabrda Namangan televideniyesi ochilgan bo'lib, ushbu binoning 1- qavatiga televideniye joylashtirilgan bo'lsa, 2- qavatida esa radio o'z faoliyatini davom ettirdi

## **2.2. Namanganda maktabdan tashqari ta'lim muassasalarini tashkil etilishi va ularning faoliyati**

Namanganda o'quvchilarni bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkik etish hamda ularni ijodiy fikrlashni kuchaytirish, bolalarni kasbga bo'lgan mehrini kuchaytirish uchun asta-sekin maktabdan tashqari ta'lim muassasalari ham tashkil etilgan. Quyidagi shularning ayrimlari xususida to'xtalib o'tamiz.

Namangan shahar 1-sonli o'quvchilar ijodiyot markazi

Namangan shahar o'quvchilar ijodiyot markazi (sobiq pionerlar uyi) nomi bilan 1935-yilda tashkil etilgan. Dastavval unda 4 ta to'garak bo'lib, bunga 100 dan ortiq o'quvchi qatnashgan, kasb-hunar sirlarini o'rgangan. 1950-yilgacha markaz to'garaklarida o'quvchilar soni 80 nafarga yetgan. 1960-yilga kelib o'quvchilarni kasb-hunar o'rgatishga va ularning maktabdan bo'sh vaqtlarini unumli o'tkazish maqsadida to'garaklar soni 15 taga, o'quvchilar soni 1000 nafarga yetkazilgan<sup>95</sup>. Bu davrda markazda chevarchilik, musiqa, duradgorchilik, naqsh-o'ymakorlik, mashinkada yozishni o'rganish to'garaklari mavjid bo'lgan.

To'garaklarda o'rnatilgan san'at sirlari natijasida musiqa to'garagiga qatnashib, musiqa sirlarini mukammal o'rgangan O'zbekiston xalq artisti Kamoliddin Rahimov, xushovoz xonanda Bahodir Bakirov, duradgorlik to'garagida milliy hunarmandchilikka munosib hissa qo'shgan keksa usta Ibrohim Nurmatovlar bunga misol bo'la oladilar. 1960-1964-yillarda markazga Nuriddin Ahmedov, 1965-1968-yillarda Solixon Turg'unov, 1968-1973-yillarda To'xtasin Xojiyevlar direktorlik qilishgan. Bu davrida "Yosh aviasozlar", "Milliy kashtachilik", "Yosh radiohavaskor"lar to'garagi tashkil etildi.

Muassasaga 1968-1973-yillarda To'xtasin Hojiyev, 1974-1975-yillar Fotima Yo'ldasheva, 1976-1978-yillarda Sheshinalar rahbarlik qilishgan. 1978-yilda Sheshina rahbarligi davrida o'quvchilar ijodiyot markazi Bobur nomi bilan

---

<sup>95</sup> Ражабов В. Наманган шаҳар халқ таълими тизимининг ривожланиш тарихи. "Ноширлик ёғдуси", 2011. – Б. 66.

ataluvchi madaniyat va istirohat bog'idagi binoga ko'chib o'tilgan. Bu davrga kelganda davlat tominidan o'quvchilar ijodiyot markazlariga e'tibor kuchaygan.

1978-1983-yillarda ijodiyot markaziga Mahmudjon Abdurahimov rahbar etib tayinlangandan so'ng turli yo'nalishlarda to'garaklar sonini ko'paytirish, maktablardan o'quvchilarni to'garaklarga jalb etishga erishildi. Maktablarga borib u yerlarda ko'chma kurslar, ko'rgazmalar tashkil etildi. Bu davrda to'garaklar soni esa 1600 nafarga yetdi.

1983-yilda 21 nafar pedagog oliy, 20 nafari o'rta maxsus, 19 nafari malaka oshirish va qayta tayyorlovdan o'tgan mutaxasislarni tashkil etgan<sup>96</sup>. 1988-yilda ijodiyot markaziga yangi zamonaviy bino ajratilgan. 1991-yildan boshlab Pioneerlar uyi o'quvchilar ijodiyot markaz nomi bilan atala boshlandi.

Namangan shahar 2-sonli Bolalar va o'smirlar ijodkorlik markazi

1979-yil 3-noyabrda Namangan shahrining sobiq Sovet tumani 3-kichik nohiyasida joylashgan 3 xonalik, 2 ta xonadonda tuman xalq ta'limi bo'limiga qarashli sobiq A.P. Gaydar nomli "Pioneerlar uyi" tashkil etildi.

O'sha paytda 15 ta to'garakda ish tashkil etilgan bo'lib, tuman mehnatkashlarining 500 nafar farzandi zo'r ishtiyoq bilan bu to'garaklarga qatnasha boshlagan. To'garak rahbarlarining pedagogik mahoratlari va o'quvchilarning qiziqishlari sababli moddiy qiyinchiliklar va kamchiliklarga qaramay juda yaxshi ishlar amalga oshirilgan.

Markazdagi ilk to'garaklardan "Mohir qo'llar" (to'garak rahbari E. Qobilyakova), "Radio-texnika" (to'garak rahbari Z. Qoraboyev), "Aviasozlik" (to'garak rahbari Ibragimov E.M.), "Teatr" (to'garak rahbari Agayeva M.S.). Bundan tashqari "Yosh rassomlar", "Kinomexanika", "Foto", "Milliy raqs", klublari o'z ish faoliyatlarini olib borganlar.

O'sha paytdagi qiziqarli to'garaklardan biri "Aviasozlik" to'garagi bo'lib, o'quvchilar bu to'garakka katta qiziqish bilan qatnashganlar. To'garak rahbari Ibragimov Envar Mambetovichning say'i harakatlari bilan xilma-xil, qiziqarli

---

<sup>96</sup> Ражабов В. Наманган шаҳар халқ таълими тизимининг ривожланиш тарихи. "Ноширлик ёғдуси", 2011. – Б. 67.

mashg'ulotlarga boy to'garak hozirgacha faoliyatini davom ettirmoqda va texnikaga qiziquvchi bolalarga quvonch bag'ishlagan.

Bundan tashqari markazda 2-avlod vakillari ham o'z ota-onalari izidan borib, bu sharaflı kasbni ulug'lab kelmoqdalar. Teatr to'garagi asoschisi Agayeva Mariyam Sabirovnani markaz pedagogik jamoasi juda yaxshi eslaydi. Mariyam Sabirovna tomonidan sahnalashtirilgan ko'pgina bolalar uchun teatrlashtirilgan sahna ko'rinishlari va ertak hali ham markazning oltin fondida saqlanmoqda. Bu hayrli ishni hozirgi kunda qizi, teatr to'garagi rahbari Agayeva Elmira Amirovna davom ettirmoqda.

1989-yil markaz tarixida zarhal harflar bilan bitsa arzigulik unutilmas sana bo'lib qoldi. Chunki shu yil bizning markaz uchun yangi zamon talablariga har jihatdan javob beradigan, hozirgi go'zal koshona qurib o'quvchilar ixtiyoriga topshirildi. Bu "ijodkor bolalar koshonasi" shahrimiz husniga husn, savlatiga-savlat to'kib turibdi. Ziyo tarqatuvchi murabbiylar esa ilmga tashna o'quvchilarning faxriga sevimli kishilariga aylandi. Bino 3 qavatdan iborat bo'lib, har bir qavat o'ziga xos qurollar, jihozlar bilan ta'minlangan. O'quvchilarimiz o'z qiziqishlari va iqtidorlarini namoyon qilishlari uchun imkoniyatlar yaratilgan. To'garaklar soni ko'paygani sari, o'quvchilar orasida ham turli yangi to'garaklarga qiziqish orta bordi. Bu jamoaning ulkan yutuqlaridan biri edi. Shu paytga kelib "Yetakchilar klubi", "Applikatsiya", "To'qish", "Yumshoq o'yinchoqlar", "Atrofimizdagi olam" singari o'nlab to'garaklar faoliyat ko'rsatib kelgan.

Namangan shahar Bolalar va o'quvchilar texnik ijodiy markazi

Namangan shahar o'quvchilar texnik ijodiy markazi shahar hokimining qaroriga asosan 1988-yilda Mirzo Ulug'bek nomi bilan tashkil etilgan. Markazga O'zbekiston xalq ta'limi a'lochisi Mahmudjon Abdurahimov rahbar etib tayinlangan. Markazning ilk tashkil etilgan vaqtida 28 turdagi texnik yo'nalishdagi to'garaklarda 280 nafardan ortiq o'quvchilar jalb etilib, 30 nafardan ortiq pedagog xodimlar ularga boshlang'ich kasb sirlarini o'rgata boshlaganlar.

Markazda to'garaklarga o'z kasbining mohir ustalari bo'lgan murabbiylar ishga taklif etilgan. Ulardan A. Avdeev (Raketsozlik to'garagi), D. Antonov (Samolyotsozlik to'garagi), V. Dmitriev (Avtomodel to'garagi), S. Zaxar'yan (Yosh konstruktor to'garagi), S. Sodiqov (milliy o'ymakorlik to'garagi), M. Qoraboyeva (Chevarchilik to'garagi), A. Payzullayev (Foto to'garagi), A. Abbosaliyev (kino to'garagi), R.Yo'ldosheva (Mashinkada yozish to'garagi), A. Obidov (Yosh diktorlar to'garagi), S. Nugmanova va S.Sadriddinova (to'qish to'garagi), A.Jo'rayeva (tikuvchilik to'garagi), hamda M. Yusupova (to'qish to'garagi) lar o'z mahoratlarini namoyish etib fidokorona mehnat qildilar<sup>97</sup>.

Ular boshlang'ich kasb sirlarini o'quvchilarga o'rgatish bilan bir qatorda ta'lim-tarbiya berishga ham e'tibor berdilar. O'quvchilarga ona Vatanni sevishtga, yurt tinchligini asrashga, kattalarni hurmat qilib, kichiklarni izzat qilishni, halol mehnat qilib mablag' topishni o'zaro do'st bo'lishlikni doimiy uqtirib, bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishlarida yaqindan amaliy yordam berdilar.

Markaz tashkil etilgan yili o'z samarasini ko'rsatdi. "Raketa-model", "Samolyotsozlik", va "Avtomodel" to'garaklari a'zolari viloyat va Respublika miqyosida o'tkazilgan musobaqalarda faol ishtirok etib, faxrli 1-o'rinlarni egalladilar. Albatta ushbu yutuqlarni qo'lga kiritishda to'garak rahbarlari A. Avdeyev, D. Antonov va V. Dmitriyevlarning qo'shgan hissalariga kata bo'ldi.

1989-yil M. Abdurahimov boshqa ishga o'tishi munosabati bilan uning o'rniga yosh izlanuvchan, o'z ishini ustasi bo'lgan Qahramon Isayev markazga direktor etib tayinlandi. Q. Isayev ham M. Abdurahimov olib brogan yo'ldan borib, pedagog xodimlar va o'quvchilarga talabchanligi bilan birga mehribon rahbar sifatida tanildi.

Markazning moddiy bazasini yaratib, o'quvchilarni mashg'ulotlardan har bir kuni kuni yangi hunar sirini o'rganib chiqib ketishlariga o'z hissasini qo'shib

---

<sup>97</sup> Ражабов В. Наманган шаҳар халқ таълими тизимининг ривожланиш тарихи. "Ноширлик ёғдуси", 2011. – Б. 77.

keldi. O'z kasbining fidoyisi bo'lgan xodimlarga ish o'rinlarini yaratishga erishdi.

#### Namangan shahar 11-sonli bolalar musiqa va san'at maktabi

1-sonli Bolalar musiqa va san'at maktabi, Namangan shahrida 1934-yilda tashkil etilgan. Dastlabki tashkil etilgan. Davrida musiqa maktabida fortelyano, skripka, damli cholg'u asboblari bo'limlari mavjud bo'lgan. Bu colg'u asboblari o'qitish uchun milliy kadrlarning kamligi tufayli hamdo'stlik o'qitish uchun milliy kadrlarning kamligi tufayli hamdo'stlik davlatlaridan mutaxassis o'qituvchilar taklif qilingan.

Bolalar musiqa va san'at maktabi asta-sekin rivojlanib, ota-onalar tomonidan bolalarni musiqa yo'nalishida istagi tobora ko'payaveradi. Musiqa maktabida yangi-yangi bo'limlar tashkil qilindi. Bulardan, o'zbek xalq cholg'u asboblari, bayan-akkordeon, an'anaviy qo'shiqchilik bo'limlaridir. Asta-sekin milliy kadrlar yetishib chiqadi.

1947-yilda Namanganda musiqachi bolalar uyi tashkil etildi. Bu maktabga bolalar uylarida tarbiyalanayotgan musiqaga layoqatli 135 nafar bola tanlab olinadi. Maktabda bolalarga nota asosida o'zbek va rus muzikasi asboblari bo'yicha dars berila boshlaydi.

Namanganda xotin qizlarning ta'lim olishiga mahalliy aholi tomonidan toki 50-yillarga qadar juda yomon munosabatda bo'lib kelingan, masalan, H.H. Niyoziy nomli 8-sonli qizlar maktabi 8 sinf o'quvchisi O'g'ilxon Dadaboyeva maktabga kelmayotganligi sababini bilish uchun maktab direktori uning uyiga borganida uni otasi tomonidan zo'rlab turmushga uzatilaganligi aniqlanadi. Bu holat shaharning boshqa maktablarida ham uchragan. Quyi sinflarda qizlarning soni ko'p bo'lsa, ular yuqori sinfga o'tganlarida anchaga qisqarganlar. Masalan 5-sonli maktabning quyi sinflarida 335 ta qizlar o'qigan bo'lsa, yuqori sinflarida atigi 60 nafar qiz o'qigan<sup>98</sup>.

<sup>98</sup> «Тарих тилга кирганда». // даврий тўплам № 2. Наманган. 2008. Б. 37

Xulosa sifatida shuni qayd etish mumkinki, 30-yillardan boshlab sovet hukumati ta'lim sohasida bir qator isloxlarni amalga oshira boshladi. Xususan, O'zbekistonda 1930–1931-o'quv yilidan boshlab boshlang'ich majburiy ta'limning joriy qilindi. Biroq birdaniga amalga oshirila boshlagan bu islohot – katta moliyaviy sarf-xarajatlarni talab qilar edi. Keng miqyosida bolalarni maktablarga jalb qilish uchun maktablar uchun moslashtirilgan binolar yo'q, ularni qurish uchun esa avvalambor vaqt talab etilib, undan so'ng esa juda kata mablag', qurilish ashyolari va cheksiz ishchi kuchi kerak bo'lardi. Hatto mavjud binolarni tuzatish, ta'mirlash uchun ham vositalar etishmas edi. O'qituvchi va o'quvchilarni tegishli o'quv qurollari, darsliklar va boshqa jihozlar bilan ta'minlash yo'lga qo'yilmagan edi. 1938-yilning 3-aprelida O'zbekiston SSR Sovetlar MIQ va XKSning “O'zbekiston maktablarida va ruscha bo'lmagan boshqa maktablarda rus tilini majburiy o'rganish haqida” qarori e'lon qilindi. Ammo, O'zbekistonda 1938 – 1939-o'quv yilidan boshlab rus tilini umumiy va ommaviy tarzda o'rganish uchun shart-sharoit tayyorlanmagan edi. O'zbekistondagi 3481 o'zbek va rus bo'lmagan milliy maktablarning 2159 tasida rus tili o'qituvchilari yo'qligi sababli, rus tilini o'rgatish imkoniyati bo'lmagan. Rus tili o'qitiladigan maktablarda ham o'qituvchilarning ixtisosligi bo'sh bo'lganligi uchun o'qitish juda sayoz, yuzaki, darsliklar, o'quv qurollari yetarli emas edi. Bu xolatlar isloxlarning amalga oshirilishida qiyinchiliklar tug'dira boshladi.

### **III BOB. O'ZBEKISTON SSRDA MADANIY-MA'RIFIY HOLATLAR (1946-1991-YILLAR)**

#### **3.1. Sovet mafkurasining madaniy-ma'rifiy hayotga ta'siri va oqibatlari**

Mustaqillik yillarida O'zbekistonning madaniy-ma'rifiy hayotining har tomonlama rivojlanishi, uning jahon sivilizatsiyasi bilan erkin integratsiya qilishi uchun barcha shart-sharoitlar yaratildi. Eng muhimi, madaniy-ma'rifiy sohadagi bosh vazifaning mamlakatda barpo etilayotgan jamiyatga, yurtimizda istiqomat qilayotgan barcha millat va elatlar manfaatlariga mutanosibligi ta'minladi. "Biz barpo etayotgan yangi jamiyat,- deb ta'kidlaydi Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov, - yuksak ma'naviy va axloqiy qadriyatlarga tayanadi va ularni rivojlantirishga katta e'tibor qaratadi. Bu jarayon milliy istiqloq g'oyasi va mafkurasiga, o'sib kelayotgan yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga asoslanadi. Jamiyatni ma'naviy yangilashdan ko'zlangan bosh maqsad - yurt tinchligi, vatan ravnaqi, xalq erkinligi va farovonligiga erishish, komil insonni tarbiyalash, ijtimoiy hamkorlik va millatlararo totuvlik, diniy bag'rikenglik kabi ko'pdan-ko'p muhim masalalardan iborat"<sup>99</sup>.

Istiqloq yillarida O'zbekistonda moddiy va ma'naviy rivojlanish uchun barcha huquqiy asoslar yaratildi. Jamiyatda mavjud madaniy meros va qadriyatlarni o'zlashtirish, yangilarini yaratish uchun ijtimoiy-siyosiy, mafkuraviy muhit yaratildi. Ayni vaqtda, mavjud imkoniyatlarning saviyasi va darajasi hech shubhasiz, o'tgan davrning tahlili oqibatidagina yuzaga keladi, zero solishtirish, taqqoslash bularning bari xolis xulosaga kelishning yagona yo'li hisoblanadi.

Shu o'rinda bizning yaqin va uzoq tariximizdagi ijobiy va salbiy holatlarni o'rganish to'g'ri ilmiy xulosa va tasavvurlar uchun o'ta muhimdir. Rossiya mustamlakachiligi va sovet mustabid tizimi davrida tarkib topgan va istibdod

---

<sup>99</sup> Каримов И. Миллий истиқлол мафкураси-халқ эътиқоди ва буюк келажакка ишончдир. - Тошкент., 2000. –Б.18-19.

hamda bosqinchilikdan iborat mexanizmning tub mohiyatini ochish shu ma'noda juda zarurdir. "Shu davr ichida - deydi I. Karimov,-xalqimiz boshiga ne-ne kulfatlar, baloyu ofatlar yog'ilmadi. Xoh siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayotni olaylik, xoh ma'naviy, madaniy sohani kezi kelganda, so'nggi mustamlaka davri tarixini tadqiq qilayotgan olimlarimizga bir maslahat bermoqchiman, aniqrog'i, ularning e'tiborini bir narsaga qaratmoqchiman. Bu davrning ilgari zamonlardan farqi shuki, shu vaqtda, ayniqsa, sho'rolar va sovet davri hukmronligi yillarida xalqimiz tashqi dunyodan butunlay uzib qo'yildi. Yetmish yildan ortiq davrda boshimizdan qanday ma'naviy, madaniy tazyiq, xo'rliklar kechganini ham yaxshi bilamiz. Men bu yerda til, adabiyot, tarix, din, xalqimiz genofondi, demografiya bilan bog'liq ayanchli kechmishlarni nazarda tutyapman. Lekin gap hozir ularning sharhida, sabablari, oqibatlarida emas.

Men aytmoqchi bo'lgan fikr shundan iboratki, ana shunday har tomonlama mudhish, chetdan qaraganda xalqimiz, uning madaniyati, milliy tafakkuri, urf-odatlar, turmush tarzi, hech bir mubolag'asiz aytish mumkinki, nasl-nasabi yo'q bo'lib ketishi kerak bo'lgan sharoitda bari bir, qator yo'qotishlar bilan bo'lsa ham, millatimiz o'zligini saqlab qololdimi yo yo'qmi? Olimlarimiz shu savolga javob bersinlar"<sup>100</sup>.

Masalaning shu tahlitda qo'yilishining bir necha sabablari bor. Nazarimizda, ular quyidagilardan iborat:

Birinchidan, millatning tarixi, uning yaqin va uzoq o'tmishini aniqlab beradigan eng asosiy mezon uning ma'naviyati, madaniy merosidir. Bunday merosning paydo bo'lishi, shakllanishi, taraqqiy etishini tadqiq etmasdan millat to'g'risida, uning salohiyati haqida berilgan baho noxolis bo'lishi mumkin.

Ikkinchidan, millat har doim ijtimoiy harakterga ega. Shuning uchun ham u hech qachon tamomila izsiz yo'qolib ketishi mumkin emas. Tabiiyki, moddiy madaniyat ko'rinishida u varvarlarcha munosabat asosida yo'q bo'lish ehtimoli mavjud. Ammo, ma'naviy madaniyat, millatning milliy mentaliteti, ruhiyati bilan bog'liq jihatlari esa hech qachon yo'qolmadi. U avloddan-avlodga o'tadi,

<sup>100</sup> Каримов И. Тарихий хотирасиз келажак йўқ.-Тошкент, 1998. –Б 18-19.

Uchinchidan, yaqin va uzoq tariximiz, uning ma'naviy jihatlarini o'rganish milliy immunitet darajasini aniqlashga yordam beradi. Gap shundaki, dunyodagi ayrim millat, xalqlar tashqi ta'sirga o'ta beriluvchan bo'lib, o'zaro ayrboshlash jarayonida sust, faolsizlik ko'rsatadi. Pirovard natijada uning yo'q bo'lib ketish imkoniyatlari ko'payadi. Ayni paytda, boshqa xalqlarda, jumladan, birinchi Prezidentimiz aytgani kabi, o'zbek xalqida o'zini himoya qilish va saqlanib qolish uchun ma'naviy-ijtimoiy himoya tizimi mavjud. Bu esa ushbu millatning madaniy merosi, boy tarixi, mentalitetiga bog'liqdir.

To'rtinchidan, so'nggi paytlarda sovet mustabid tizimi, uning mazmun-mohiyati bizga yaxshi tanish, shuning uchun ham uni alohida tadqiqot ob'yektlari sifatida o'rganishga hojat yo'q, degan ayrim mulohazalar uchrab turibdi. Nazarimizda, bu mutlaqo xato fikr.

Gap shundaki, har bir o'tgan tarixiy davr, bosqich, kerak bo'lsa, kunimiz-bu tarix. Tarix-o'rganilishi lozim. Tarix-tafakkur mahsuli bo'lganligi uchun ham o'rganilishi lozim. Biroq har bir millat, elatning shunday davrlari borki, ular, hech shubhasiz, har tomonlama, kompleks tarzda tadqiq etilishi lozim, zero bu davr ushbu millatning taqdirida o'ta muhim ahamiyatga ega bo'lgan bosqichdir.

Sovet mustabid tuzumi davri ham ana shunday davrlardan biridir. Ho'sh, biz sovet davri tarixini genesologik nuqtai nazardan, uning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy-mafkuraviy yo'nalishlarda yahshi bilamizmi? Yo'q albatta. Ana shu holatga erisha olmaganligimiz, ya'ni sovet mustabid tuzumi tarixidan saboq ololmaganligimiz hozirgi kunda ham o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatmoqda.

Sovet mustabid tuzumi o'zbek xalqi ijtimoiy hayoti, siyosiy tarixi, madaniyatida og'ir qiyinchiliklar tug'dirdi, degan mavhum fikrning o'zi yetarli emas. Buning uchun o'sha davrga hos bo'lgan barcha jihatlarini yangi usul, ilmiy tadqiq yo'li asosida tahlil qilish muhimdir.

Tarixiy voqea-hodisalar rivojini o'rganishda ana shu usul o'ziga xos muvozanat rolini o'ynashi mumkin. Ilmda muvozanatning yo'qligi esa tadqiqotchini boshqa yo'llarga yetaklashi mumkin. Albatta yaxlit tarix jamiyat

ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy-mafkuraviy jihatlarining barchasini umumlashtirilgan holda tadqiq etishni taqazo etadi. Sovet mustabid tuzumi davrida O'zbekiston madaniy-ma'rifiy hayotida, ayniqsa, ma'muriy-buyruqbozlik tizimi haddan tashqari kuchaygan davrini madaniy jarayonlar tarixini o'rganish shu ma'noda juda muhim.

Sovet mustabid tuzumi, xususan, o'tgan asr mobaynida yo'l qo'yilgan xato, konseptual cheklanishlar shundan iborat ediki, eng avvalo, madaniy jabha siyosiyashtirildi. Ma'lumki, siyosat va madaniyat har doim ham bir-birini taqazo etadi. Boshqa so'z bilan aytganda, ular o'rtasida millat va Vatan manfaatlari nuqtayi nazaridan yaqinlik hamda bir-birini qo'llash amaliyoti mavjud. Bunga tarixdan misollar ko'p.

Ammo, madaniy-ma'rifiy hayot har doim ham siyosatdan nisbiy mustaqillikka ega. Uning bu mustaqilligi siyosatning ijodiy jarayonlarga ko'r-ko'rona, ma'muriy yo'llar bilan aralashishini bartaraf etilishi bilan bog'liqdir.

Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, jamiyatda sodir bo'layotgan barcha adabiy-badiiy jarayonlar millatning ma'naviy barkamolligini ta'minlash darajasiga qarab baholanadi. Ya'ni adabiy-badiiy jarayonlar millatning va Vatanning kamoloti hamda rivojlanishiga ijobiy ta'sir etsa, ular jamiyat a'zolari tomonidan ixtiyoriy suratda qabul etilsa shunday sharoitda u ijobiy holatga aylanadi. Boshqacha so'z bilan aytganda, madaniyat badiiy estetik nuqtai nazardan baholanadi.

Ammo sobiq sovet mustabid tuzumi sharoitida badiiy madaniyatning siyosiy unsurlar asosida baholash amaliyoti yuzaga keldi. Badiiy jamoalar, madaniyat maskanlari, ijodiy uyushmalarining mehnat faoliyati faqat bitta narsaga - sovet voqeligini madh etish, uning dunyoda eng nufuzli va adolatli tuzum ekanligini isbotlashga qaratildi. Madaniy-ma'rifiy hayotning bosh maqsadi o'tmish madaniy merosi, hozirgi zamon adabiy-badiiy jarayonlar bilan uyg'unligi natijasida insonda ma'naviy-ruhiy barkamollik sifatlarni shakllantirishdir. Sovet mustabid tuzumi davrida umumiy holat buning aksini ko'rsatdi, badiiylik o'rnida siyosiylik ustuvor ahamiyat kasb etdi.

Bu esa, jamiyat a'zolarining sovet madaniy-ma'rifiy hayotidan ommaviy ravishda bezish va begonalashuv jarayoni yuzaga keltirdi. Madaniyatdagi begonalashuv millatning o'z milliy zaminlarini yo'qota borishini, milliy xususiyatlarning siyosiy-mafkuraviy aqidalar asosida bachkalanishini, anglatadi. Afsuslanarli joyi, shundaki, madaniy-ma'rifiy hayotdagi begonalashuv jarayoni odamlarda hafsalasizlik, tevarak-atrofda yuz berayotgan voqea-hodisalarga befarqlik kayfiyatini tug'diradi. Bunday ijtimoiy hodisa keyinchalik mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy sohalaridagi muammolarning yuzaga kelishiga sabab bo'ladi.

Sobiq sovet mustabid tuzumi sharoitida milliy madaniy-ma'rifiy hayot, xususan, o'zbek madaniyatidagi eng jiddiy kontseptual xatolardan biri hukmron kommunistik partiya va madaniyat masalasidagi nisbatning yo'qligida bo'ldi. Mazkur partiya umuminsoniy qadriyatlar, umumbashariy orzu-umidlarni himoya qilishga qaratilgan nazariy g'oyalarni amaliyotga joriy etmaganligi ham inqirozga yuz tutdi.

Kommunistik partiya avval boshidan proletariat partiyasi sifatida o'zini-o'zi e'tirof etdi. Bu esa, shubhasiz jamiyatdagi boshqa ijtimoiy-milliy guruhlarini unga nisbatan muholifatda bo'lishga zamin yaratdi. Keyinchalik ushbu partiya "umumxalq partiyasi"ga aylandi. Ammo amalda u jamiyatdagi amaldorlar, tanlab olingan elitaning partiyasi bo'lib qolaverdi.

Sobiq sovet tuzumi davrida kommunistik partiyaning milliy madaniyatlar masalasida o'ziga xos siyosati mavjud bo'lib, ular uch bosqichdan iborat edi. Masalan, sovet mustabid tuzumining dastlabki davrlarida, aniqrog'i, 1917-yildan o'tgan asrning 20-yillari ikkinchi yarmigacha (ma'muriy-buyruqbozlik tizimiga asos solinguncha) partiya madaniy-ma'rifiy jarayonlarga kuchli tarzda aralashmaslik, neytral holatda munosabatda bo'lish yo'lidan iborat birinchi bosqichni o'tadi. Bu davrda shuning uchun ham turli al'ternativ fikrlar, adabiy-badiiy yo'nalishlar, maktablar yuzaga kela boshladi.

Kommunistik partiya asta-sekin o'zining yakkahokimligini qo'lga kiritdi. Bu esa undan jamiyatda sodir bo'layotgan barcha voqea-hodisalarga bemalol

aralashishiga imkon yaratdi. Shuning uchun ham o'tgan asrning 20-yillari birinchi yarmidagi madaniy jarayonlarga ko'r-ko'rona aralashmaslik siyosatidan endi asta-sekinlik bilan madaniy-ma'rifiy sohani nazorat qilish amaliyotiga o'tila boshlandi. Bu ikkinchi davr taxminan o'tgan asrning 20-yillari ikkinchi yarmidan 60-yillarning o'rtalarigacha-rivojlangan sotsializm to'g'risidagi “yangi g'oya”ning yuzaga kelishigacha davom etdi.

Ushbu davrning o'ziga xos jihatlari shundan iborat ediki, endi madaniy-ma'rifiy soha asta-sekinlik bilan partiyaning barcha sohalarida uni qo'llab-quvvatlovchi vositaga aylana boshladi. Boshqacha so'z bilan aytganda, madaniyat endi “ijtimoiy buyurtma” ni bajaruvchi kuchga aylandi. Haqiqatdan ham shunday edi, zero sobiq sovet davlati o'zining barcha ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy vazifalarini madaniyat va san'at orqali bajara boshladi. Buning kommunistik partiya uchun “afzallik” joylari bor edi. Ya'ni, madaniyat va san'at doimo insonga, uning xarakteriga yaqin ijtimoiy faoliyat turi hisoblanadi. Shuning uchun ham teatr, qo'shiqchilik-musiqqa, badiiy asarlar, madaniy-ma'rifiy tadbirlar orqali hukmron siyosiy kuch o'zining maqsadlariga erishish yo'lini tutdi.

Mazkur davrning eng xususiyatli jihatlardan yana biri-madaniyat va san'at orqali “yangi insonni tarbiyalash” vazifasini bajarish edi. Xo'sh, partiyaning nuqtayi nazaridan “yangi inson” kim edi? U “Yangi inson” o'ziga rahbarlik qilayotgan partiyaning maqsad va vazifalarini bekami-ko'st bajarishga doimo shay bo'lgan asta-sekinlik bilan o'zligini yo'qotib boradigan olomonning vakili edi.

Sobiq mafkuraviy hukmron kuchning madaniy-ma'rifiy soha masalasiga munosabatidagi uchinchi davr o'tgan asrning 60-yillari oxiridan to SSSRning parchalanib ketishigacha davom etdi. Bu davr partiyaning madaniyat sohasi ustidan to'liq siyosiy hukmronligini o'rnatgan bosqich sifatida baholanishi mumkin.

Albatta, madaniy-ma'rifiy hayotda ma'lum darajada boshqarish amaliyoti sodir bo'lishi lozim. Madaniy-ma'rifiy sohani boshqarish tizimi davlatning

jamiyat taraqqiyotining ma'lum bir bosqichida aniq ijtimoiy zaruriyatga ko'ra, ma'lum bir maqsadga qaratilgan siyosatini amalga oshiruvchi vosita bo'lib bunda bir tomondan, jamiyat madaniy hayotini harakatga keltiruvchi institutlar munosabati nazarda tutilsa, ikkinchi tomondan, shu munosabatlarni qaror toptiruvchi qonunlar, yo'l-yo'riqlar va boshqa huquqiy hujjatlarga asoslangan faoliyat tashkil qiladi.

Shu bilan birga ma'naviy omillar, g'oyalar dunyoqarash ham madaniy-ma'rifiy taraqqiyotning harakatlantiruvchi kuchlari sifatida namoyon bo'ladi. Mana shu murakkab ta'sir jarayonida madaniyat boshqaruvining nafaqat ob'yekti, shuningdek, sub'yekti sifatida ham ishtirok etadi. Madaniyatning boshqarish sub'yekti va boshqaruv ob'yekti sifatidagi o'рни shular bilan izohlanadi. Umuman, madaniyatni boshqarish haqida fikr yuritishda, avvalo kishilarning intilishlari, ijtimoiy mo'ljali, manfaatlari va munosabatlarini nazarda tutish lozim.<sup>101</sup>

Demak, madaniy-ma'rifiy soha boshqarilishi lozim. Ammo bunday boshqarish tizimi jamiyat a'zolari manfaatlari, ularning barkamollik sifatleri darajasini taqazo etishi lozim. Qayd etish lozimki, madaniy-ma'rifiy jarayonlar ustidan partiyaviy nazorat hamda boshqaruv tamomila boshqa maqsadlar asnosida olib borildi. Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, sovet davri madaniy-ma'rifiy soha ustidan rahbarlik qilish o'zining klassik shakliga ega bo'ldi. Masalan, kutubxonalarning sovet kishilarini kommunistik ruhda tarbiyalashda o'рни, xalq badiiy ijodiyotini yanada takomillashtirish, klub muassasalarining omma orasida g'oyaviy-siyosiy ishlarni kuchaytirishdagi roli kabi partiya qarorlarining qabul qilinishini shu asosda tushunish mumkin. Ushbu partiyaviy ko'rsatmalarda madaniy-ijodiy jarayon partiyaning nazorati ostida bo'lishi va yo'naltirilishi lozimligi to'g'risidagi g'oya ustuvor ahamiyat kasb etdi.

Masalaning yana boshqa jihati ham bor: madaniy-ma'rifiy, ijtimoiy-madaniy faoliyat erkinlashishi lozim. Sovet mustabid tuzumi davrida erkinlik, xususan, ma'naviy hayotni erkinlashtirish mavhum holatda tushunildi. Erkinlik

<sup>101</sup> Юлдашев А. Мустақил Ўзбекистонда маданиятни бошқариш муаммолари. -Тошкент, 2000. – Б 14.

va tenglik hammani bir xil andozaga solish degani ham emas, u barcha uchun teng imkoniyat yaratish hamda uni kafolatlashdir. Mazkur imkoniyatdan foydalanish darajasi esa har xil bo'ladi. Natijada, ma'naviy hayotni bir qolipga solish, uni markazdan turib boshqarish, uni yo'naltirishdan iborat amaliyot yuzaga keldi. Buning oqibatida ma'naviy omillarni nazar-pisand qilmaslik, uni o'z maqsadiga erishishning faqatgina vositasi sifatida qabul qilish ruhiyati yuzaga keldi. Pirovard natijada quyidagi sifatlarga ega bo'lganlar shakllandi:

- sovet kishisi o'z erkinligi va ozodligini anglab yetmasi, zero bunday erkinlik berilmadi;

- uning ma'naviy darajasi faqat siyosatdan iborat bo'ladi, ichki ma'naviyatida milliy madaniyatga muholifatda turishi lozim bo'lgan qarashlarni shakllantirishga harakat qilinadi;

- odamlarda o'z kuchi va imkoniyatlariga ishonish ruhiyati so'ndirildi, zero bunday qadriyatni rivojlantirishga imkon beruvchi milliy tarix va milliy madaniyatni o'rganishga rasmiy hokimiyat siyosiy andozalar orqali munosabatda bo'lardi;

- mustaqil fikr, o'z dunyoqarashini o'zgartirishga bo'lgan ehtiyoj yo'qqa chiqarildi. Buning sababi esa odamlarda hamma uchun fikrlaydigan va xulosa chiqaradigan mafkuraviy institutlarning mavjudligiga "ishonch"ning borligi.

O'rganilgan davrda madaniy-ma'rifiy sohaning partiyaviy nazorat jabhasiga aylanganligining yana boshqa ko'rinishi bor edi. Bu jamiyat a'zolarining madaniy qadriyatlarni yaratuvchisidan uni iste'mol qiluvchiga aylanganligi bilan izohlanadi. Buning boisi shundan iborat ediki, kommunistik mafkura siyosatiga ko'ra ijodda erkinlik boshboshdoqlikka olib keladi. G'ayriodatiy, g'ayri "ilmiy" xulosalar chiqarish, noan'anaviy tarzda fikrlash sovet tizimining asl mohiyatini ochib tashlashi mumkin edi.

Shuning uchun ham, sovet mustabid tuzumi iste'molbop asarlar yaratish hukmron siyosiy kuchning yakkahokimlikdan iborat monopoliyasiga aylandi. Bir tomondan xalq ichidan chiqqan ijodkorlarni tergap-turish, ikkinchidan partiyaviy ijodkorlarni doimo qo'llab-quvvatlab turish, zarur hollarda ularni

to'g'ri yo'lga yo'naltirib borish mazkur davr ma'naviy hayotining o'ziga xos xususiyati edi.

Natijada, milliy ruh, milliy tafakkurga mos kelmaydigan, xalq beziydigan "asar"lar soni muttasil ravishda ko'payib bordi. Pirovard natijada xalq faqatgina madaniy asarlarni iste'mol qiluvchiga aylandi. Birinchi Prezidentimiz madaniy sohani erkinlashtirish, yagona ma'naviy tizimni shakllantirish, unda ma'naviyat, ahloq-odob va ma'rifat kabi o'lmas qadriyatlar lozimligini ta'kidlab, xalq tom ma'noda madaniy faoliyatning asoschisi bo'lishi lozimligini, "Chinakam insoniy fazilatlarga ega bo'lgan yoki ega bo'lishga intilgan odam demokratiya ne'matlarining oddiy iste'molchisi emas, balki ularning faol yaratuvchisi va himoyachisiga aylanadi. Va demokratiya, fuqarolik jamiyati asoslarini amalda barpo etish, inson haq-huquqlari va erkinliklarini ta'minlash mumkin bo'ladi. Shundagina inson o'z mamlakatining tom ma'nodagi munosib fuqarosi bo'la oladi"<sup>102</sup>, deydi.

Kommunistik mafkuraning eng katta kontseptual xatolaridan biri madaniyat masalalariga metodologik jihatdan vul'gar munosabatining shakllanishi va ayniqsa adabiyot, san'atning ob'yektiv qonunlar asosida ijtimoiy hayotga majburiy bo'ysunishi lozimligini qayd etganligidir. O'sha davr mafkuraviy rahbarlari uchun adabiy-badiiy ong, tafakkur tom ma'nodagi siyosatning ko'rinishlaridan boshqa narsa emasdi.

Masalaga shu nuqtayi nazardan qarash esa keyinchalik juda katta xatolar, milliy yo'qotishlarning yuzaga kelishiga sabab bo'ldi. Masalan, kommunistik mafkura asoschilari milliy madaniyatlarning o'rni va rolini kamsitish, ularni yo'q qilish maqsadida o'z umrini o'tab, tamom bo'layotgan "burjua" madaniyati o'rniga yangi madaniyatni barpo etishlari lozimligini ta'kidladilar. Shu bilan birga, bu uzoq davom etadigan o'tish davri ekanligini, shunday sharoitdagi madaniyat inqilobiy madaniyat bo'lishini tushuntirdilar. Ammo, o'tish davriga xos bo'lgan va "inqilobiy madaniyat" xarakteridagi bunday madaniyatni shakllantirish oson

---

<sup>102</sup> Каримов И. Ўзбекистонда демократик ўзгаришларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамияти асосларини шакллантиришнинг асосий йўналишлари. «Халқ сўзи», 2002, 30 август.

bo'lmashligini ham esdan chiqarmadilar. Gap ochiqdan-ochiq shunday madaniyat yaratish uchun boradigan kurash haqida ketyapti.

Sovet mustabid tuzumi davrida o'zbek milliy madaniy-ma'rifiy hayotiga juda katta zarar keltirgan holatlardan biri madaniyat va san'at sohasining funksional vazifasini aniqlab olish muammosi bo'ldi. Madaniyat, ma'lumki, juda rang-barang va boy. Uning tarkibiga ong, tafakkur, san'at, ahloq, adabiyot, din, e'tiqod kabi qator tushunchalar kiradi. Ularning har birini alohida tarzda tahlil etish mumkin. Ammo bu narsa madaniyat to'g'risida yaxlit tasavvur va xulosa berishga imkon yaratmaydi. Demak, madaniyat to'g'risidagi umumlashgan xulosa uning barcha komponentlarini yaxlit xolatda o'rganish natijasidagina yuzaga kelishi mumkin.

Endi yuqoridagi xulosa, ya'ni madaniyat sohasining funksional vazifasini aqinlash bilan bog'liq masala xususida. Madaniyatning bosh vazifasi "iymon-e'tiqodi butun, irodasi baquvvat erkin fuqaro ma'naviyatini shakllantirishdir. Ya'ni mustaqil dunyoqarashga ega, ajdodlarimizning bebaho merosi va zamonaviy tafakkurga tayanib yashaydigan barkamol shaxs - komil insonni tarbiyalashdan iborat".<sup>103</sup> Demak, yuqoridagi ta'rifdan shu narsa ma'lumki, madaniyatning ustuvor vazifasi erkin fuqaro madaniyatni shakllantirish, zamonaviy tafakkurga ega komil insonni tarbiyalashdir. Ushbu vazifa strategik ahamiyatga ega.

Ammo sovet mustabid tizimi davrida esa madaniy-ma'rifiy sohaning siyosiylashuvi, uning mafkuraviy mezonlarga solinganligi oqibatida ma'naviy hayotga qo'yilgan vazifalar klassifikatsiya qilindi. Ya'ni, har bir kichik-kichik ijtimoiy-siyosiy, tarixiy davrlar uchun "maxsus" vazifalar qo'yildi. Masalan, o'tgan asrning 70-yillarining boshlarida madaniy-ma'rifiy muassasalarining asosiy vazifasi sifatida ommani g'oyaviy-siyosiy jihatdan tarbiyalashga e'tibor qaratildi. 80-yillarning boshida madaniy-ma'rifiy muassasalarida ishlab chiqarish madaniyatini yuksaltirish talab etila boshlandi. 80-yillarning ikkinchi

---

<sup>103</sup> Каримов И. Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт-пировард мақсадимиз. Тошкент, 2000. – Б. 25.

yarmida esa madaniyat va san'at muassasalari oldiga eskilik qoldiqlariga, diniy aqidalarga qarshi kurashish vazifasi qo'yildi.

Bu shundan dalolat beradiki, madaniyat va san'at mustabid tuzum sharoitida uning bir muddatlik vazifalarini bajaruvchi muassasaga aylantirildi. Bunday holat madaniy-ma'rifiy muassasalar faoliyatida bir tekisda ishlash, maxsus tizim ostida faoliyat ko'rsatishdan iborat muhim amaliyotni yo'qqa chiqardi.

Madaniyat, san'at, badiiy ijod natijasi ularning faqat o'ziga bog'liq bo'lgan qonunlari asosida yuzaga kelishi kerak. Boshqacha so'z bilan aytganda, madaniyat omillari shu sohaga hos bo'lgan, uning ichki tabiatini o'zida aks ettiradigan qonunlar bilan uyg'undir. Bunday uyg'unlikning yo'q bo'lishi esa madaniy sohaga ma'muriy yo'l aralashishidan boshqa narsa emas. Sobiq partiya o'z davrida umumiy tarzda rivojlanishi lozim bo'lgan bunday ichki qonunlarni inkor etdi va o'ziga xos tarzda turli tajriba-eksprementlar o'tkazdi.

Shunday tajribalardan biri har bir sinf, ijtimoiy tabaqa uchun alohida madaniyat yaratish bo'ldi. Ya'ni, proletar-ishchilar madaniyati, kolxozchi-dehqonlar madaniyati, ziyolilar madaniyati. Bu narsa, shak-shubhasiz, jamiyatda ijtimoiy adolatsizlik natijasida bo'linishning, tabaqalanish jarayonining kuchayishiga olib keldi.

Bunday madaniyatlar asosini esa partiyaning siyosiy-mafkuraviy g'oyalarigina tashkil etardi xolos. Aslida esa sovet mustabid tuzumi davrida na proletariat, na kolxozchi-dehqon madaniyati yaratildi. Umuman, madaniyat ijtimoiy tabaqalanish oqibatida yuzaga kelmaydi. Madaniyatning bitta konseptul-kategorial qonuni bor: u faqat insonga, insoniyatga uning shaxs erkinligini, tafakkur o'zgarishini, komillik sari qadam tashlashini ta'minlashi kerak. Qolgan boshqa barcha siyosiy-mafkuraviy aqidalar vaqtinchalik, ta'sirsiz va natijasiz harakatdir.

Ijtimoiy-madaniy faoliyatdagi muhim o'ziga xosliklardan biri shundaki, inson doimo badiiy-estetik va siyosiy madaniyatga muhtojlik sezadi. Badiiy-estetik madaniyat shaxsning mavjudlik belgisi, ruhiy-psixologik xolati, uning bir

sifatdan boshqa, tamomila yangilangan, takomillashgan sifatga o'tish imkoniyatidir. Bunday madaniyat odamlar o'rtasidagi o'ziga xoslikni anglashga, ularni bir-biridan farqlashga shart-sharoit yaratadi.

Siyosiy madaniyat esa shaxsning jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy institutlar bilan aloqa qilish va muomala yuritish usuli, ularning tafakkur tarzi hamda tevarak-atrofdagi ro'y berayotgan voqea-hodisalarga baho berish darajasidir.

Ushbu ikkala qadriyat ham inson uchun o'ta zarur. Ammo, ularning qay biri ustuvor, qaysinisi birlamchiyu qaysisi ikkilamchi? Buni aniqlash juda muhimdir. Gap shundaki, har doim badiiy-estetik madaniyat birlamchi bo'lgan. Inson o'zidagi siyosiy madaniyatni doimo badiiy-estetik, umumiy madaniyati asosida rivojlantirib kelgan.

Biroq, sobiq mustabid tuzumi sharoitida buning teskarisi yuz berdi. Hukmron siyosiy-mafkuraviy kuch sovet voqeligini tanlash va uni ulug'lashga yo'naltirilgan siyosiy madaniyatga birlamchi, ustuvor ahamiyat berildi. Albatta, mazkur masalaga shu tarzda yondashishning o'ziga xos jihatlari bor edi. Birinchidan, siyosiy rahbarliyatga o'zligini anglagan, mustaqil tafakkurga ega shaxs doimo xalaqit qilar edi. Ikkinchidan, sovetcha siyosiy madaniyat jamiyat a'zolarida bir xil fikrlovchi hamfikrlarni tarbiyalashning vositasi edi.

Sovet mustabid tuzumiga xos bo'lgan siyosiy madaniyat aslida tashqari mavjud tuzumni g'oyaviy-mafkuraviy jihatdan himoya qilish uchun zarur edi. G'oyaviy himoyalaniish, sovet turmush tarzi va voqeligining ijtimoiy nufuzini orttirish uchun olib borilgan harakatlar siyosiy madaniyatni ko'tirishni talab etardi. Bu narsa yana bir salbiy xolat bilan bog'liq bo'ldi. Ya'ni sovet mafkurachilari siyosiy mezonlarni madaniy mezonlar bilan uyg'unlashtirish va mutanosibligini ta'minlashga harakat qildilar. Bu aslo bo'lishi mumkin emas, zero siyosat va madaniyat har doim ham bir-birini e'tirof etavermaydi.

Masalan, mafkuraviy-siyosiy biqirlilik avj olgan sovet mustabid tuzumi davrida tom ma'nodagi siyosat va madaniyat uyg'unligi haqida gap bo'lishi haqiqatdan yiroqdir. Bunday sharoitda mustamlakachilik siyosati o'zlikni anglash jarayoniga kuch beruvchi milliy madaniyat bilan hech qachon

hamkorlik qilmaydi. Bunday o'zaro hamkorlik sovet turmush tarzining poydevoriga salbiy ta'sir ko'rsatmasdan qolmasdi. Aslida ham shunday bo'ldi.

Shuning uchun ham mafkuraviy-siyosiy hokimiyat o'z siyosatiga mos madaniyatni "shakllantirish" yo'lini tanladi. Madaniyatdagi milliylik, o'ziga xoslik, badiiylik, xalqchilikning yo'qolishi shu tarzda amalga oshdi.

Bu bilan o'sha davr rahbariyati juda katta xatoga yo'l qo'ydi. Ya'ni, jamiyat rivojlanishi ehtiyojlar yuksalishi qonuniyatiga mos kelishi inkor etildi. Ma'lumki, ehtiyojlar va madaniyatning rivojlanishi darajasi o'rtasida dialektik bog'liqlik mavjud. Madaniyat darajasi qancha yuqori bo'lsa, ehtiyojlar shunchalik yuksak va rang-barangdir. Shuningdek, ehtiyojlar qancha yuksak va rang-barang bo'lsa madaniyat rivojlanishi uchun shunchalik katta va ko'p imkoniyatlar tug'iladi. Chunki bu ehtiyojlar madaniy qadriyatlar orqali qondiriladi. Oqibatda insonning o'zida yangi madaniy-ijodiy (bunyodkorlik) qobiliyatlari paydo bo'ladi. Paydo bo'lgan yangi ehtiyoj ertami kechmi muqarrar ravishda uni qondirishga xizmat qiladigan yangi qobiliyatni tug'diradi. Qondirilishi mumkin bo'lmagan va yangi qobiliyatni tug'dirmaydigan ehtiyojlar esa vujudga kelmaydi<sup>104</sup>.

Insoniyatni harakatga keltiruvchi kuch ham ehtiyojdir. Ehtiyojning yo'qligi turg'unlikka mahkum etilishning ko'rinishi hisoblanadi. Sovet mustabid tuzumi mafkuraviy-siyosiy rahbariyati bu haqiqatni yaxshi bilganligi uchun ham insondagi adabiy-badiiy ehtiyojlarni rivojlantirishga doimo imkon bermaslikka harakat qildi. Xususan, turli adabiy-badiiy uyushmalar, klublar, bahs-tortishuvlar to'garaklari bularning bari odamlarda yashirincha paydo bo'lgan ehtiyojni qondirish mumkin ekanligini e'tiborga olgan holda ta'qiqladilar. Salohiyatli va intellektual odamlarning sobiq ittifoqdan 70-80 yillar davomida horijga ketish bilan bog'liq holatlar ham aslida tobora rivojlanib borayotgan ehtiyojning mavjudligidan iborat edi.

Yuqorida bildirilgan mulohazalar, albatta, kommunistik-bolshevistik rahbariyatning milliy madaniyatlar, jumladan o'zbek madaniyatiga yetkazgan

<sup>104</sup> Эркаев А. Маънавият-миллат нишони. -Тошкент, 1999. – Б. 208.

barcha zararlarining mazmun-mohiyatini to'liq ochib bera olmaydi. Ammo, keltirilgan fikrlarning o'zi ham sovet mustabid tizimi davrida milliy madaniyatlarda sovetlashtirish va siyosiylashtirish va siyosatlashtiruv jarayoni qanday tarzda ro'y bergan ekanligi haqida ma'lum xulosalar chiqarishga imkon beradi.

Madaniy-ma'rifiy hayotning sovet davri haqida gapirganda yo'qotishlarimizning butun ko'lamini nazarda tutish kerak. Uning eng qattol g'animi "g'oyaviylik", sinfiylik va partiyaviylik nazariyasi bo'ldi. Butun madaniyat bir g'oyaga – "kommunistik g'oya" ga hizmat qildirildi. "Insoniyat tarixi-sinflar kurashidir" deyildi. Ikki sinf, ikki madaniyat nazariyasi "burjua madaniyati" va "proletar madaniyati" gina bor ekan. Leninning siyosiy kurashlarni nazarda tutgan qarashlarini keyinchalik eng nozik sohalarga, shu jumladan madaniyatga ham tadbiiq etildi.<sup>105</sup>

Eshqobil Shukurning fikricha, sovet mustabid tuzumi davrida yaratilgan adabiyotlar faqat partiya mafkurasiga xizmat qildi. Yaqin-yaqinlargacha shoirlarimiz partiya haqida, Lenin to'g'risida yoki sotsializm haqida she'r yozmasalar kitob chiqara olmasdilar. Istasang-istamasang yozishing kerak. Qolaversa, "Sotsialistik realizm metodi" degan tuturuqsiz gaplar bilan barcha ijodkorlarni bir katakka qamab qo'ydilar.<sup>106</sup>

Boshqa bir maqolada kommunistik mafkura tildan keyin qo'l-oyoqni ham qo'lga olganligi yoziladi. Yugurib-yelib yuraverardingiz, chopganingiz-chopgan edi, ammo charchash, horish nimaligini bilmasdingiz. Uydagi bola, chaqa esingizdan chiqib ketardi. Tarbiyasi buzilib ketayotgani sizni mutlaqo qiziqtirmasdi. Partbyuro bor nima g'amim bor, deb yuraverardingiz.<sup>107</sup>

Albatta, tarixiy voqea va hodisalarga baho berishda xolislik tamoyillariga e'tibor berish lozim. Sovet mustabid tuzumi davrida madaniy-ma'rifiy soha tamomila rivojlanmadi, deyish xato bo'lardi. Bu davrda ham turli mafkuraviy

<sup>105</sup> «Ўзбекистон адабиёти ва санъати», 1991, 11 октябрь

<sup>106</sup> «Ўзбекистон адабиёти ва санъати», 1991, 1 феврал

<sup>107</sup> «Ўзбекистон адабиёти ва санъати», 1996, 15 март

tazyiqlarga qaramasdan o'zbek milliy madaniyatida umumiy rivojlanish ko'zga tashlandi.

Ammo, juda katta intellektual imkoniyatlarga, buyuk madaniy merosga ega bo'lgan o'zbek xalqi bundan ham ko'ra ko'proq yutuqlarga erishishi mumkin edi. Madaniyatga sinfiylik, g'oyaviylik, partiyaviylik asosida munosabatda bo'lish milliy madaniyatimizga juda katta salbiy ta'sir ko'rsatdi.

Mustaqillik yillarida ijtimoiy hodisalar, xususan, madaniyatni tadqiq etish, undan xulosalar chiqarishning mezonlari sifat, jihatdan, tubdan o'zgardi. Sinfiylik, g'oyaviylik, partiyaviylik tamoyillari o'rniga xolislik, tarixiylik, ilmiylik, kabi tamoyillari tarkib topmoqda. Ushbu mezonlar natijasida yaqin va uzoq tariximizni xolis ravishda baholash imkoni tug'ildi. Ilgari "qora", "milliy uyat" sifatida tilga olingan ayrim voqea, hodisalar endi o'zining tom ma'nodagi haqqoniy bahosini olmoqda.

Sovet davrining madaniy-ma'rifiy sohadagi metodologik kamchiliklaridan biri-milliy madaniyatlarning jahon madaniyati, umuminsoniy qadriyatlardan ajratib qo'yilgani edi. Endi esa, jamiyatdagi erkinlashtirish jarayoni o'zbek milliy madaniyatini jahonga chiqishiga barcha imkoniyatlarni yaratib berdi.

Hozir sovet mustabid tuzumining o'zbek milliy madaniyati rivojiga ko'rsatgan salbiy ta'sirini o'rganish, uning siyosiy va mafkuraviy cheklanganligini tahlil etish juda zarur, zero bunday hol mustaqillik sharoitida O'zbekiston madaniyatini yangi sifat bosqichiga ko'tarishga imkon beradi.

### **3.2. O'zbekistonda XX asr 80-yillaridagi madaniy-ma'rifiy muassasalar faoliyatidagi o'zgarishlar**

Mamlakatda demokratik, huquqiy, insonparvar jamiyat qurish, bozor munosabatlariga o'tish ko'p jihatdan ma'naviy-ma'rifiy islohotlar va ularning samaradorligiga bog'liqdir. Ushbu holat mamlakatimiz Prezidenti va hukumati tomonidan istiqlolning dastlabki yillaridanoq anglab etildi. Shuning uchun ham mustaqillikni mustahkamlashda ma'naviy-ma'rifiy ishlarga alohida e'tibor

qaratildi. Yangi, jamiyatning ma'naviy negizini mustahkamlashning ahamiyati ko'rsatib berildi.

Bu o'rinda O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimovning "Ma'naviyat va ma'rifat" jamoatchilik markazi faoliyatini yanada takomillashtirish va samaradorligini oshirish to'g'risida"gi farmoni muhim ahamiyatga molikdir. Jamiyatda yuksak ma'naviy fazilatlarni kamol toptirish, milliy mafkurani shakllantirish, yoshlarni boy madaniy merosimiz, tarixiy an'analarimizga, umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, Vatanimizga muhabbat, istiqlool g'oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalash mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha islohatlarning, ayniqsa demokratik jarayonlarning hal qiluvchi omili ekani ta'kidlandi<sup>108</sup>. Boshqacha so'z bilan aytganda, ma'naviy-ma'rifiy ishlar davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi bo'lishiga alohida e'tibor berildi.

Ma'naviyat sohasida bosh vazifa qilib "Milliy qadriyatlarimizni tiklash, o'zligimizni anglash, milliy g'oya va mafkurani shakllantirish, muqaddas dinimizning ma'naviy hayotimizdagi o'rnini va hurmatini tiklash kabi mustaqillik yillarida boshlangan ezgu ishlarimizni izchillik bilan davom ettirish, ularni yangi bosqichga ko'tarish va ta'sirchanligini kuchaytirish"<sup>109</sup>dan iboratligiga alohida urg'u berildi.

Madaniy faoliyat, ma'naviy-ma'rifiy ishlar, ular samaradorligini oshirish mustaqillik va barkamol avlod tarbiyasi nuqtai-nazaridan kun tartibiga tamomila yangicha tarzda qo'yildi. Madaniy faoliyat jamiyatni rivojlantirish vositasi sifatida yuzaga keladigan jarayon ekan u insonni moddiy, ijtimoiy va ma'naviy faoliyat subyekti sifatida o'zgartirishga ham hozirdir. Faoliyatning mazkur turini Hegel "amaliy madaniyat" deb ta'riflagani bejiz emasdi.

U madaniyatni inson individual faoliyatining yuksalishi, ya'ni inson faoliyatining umumiy me'yorlarini to'la egallash vositasi deb tushunadi, zero «ana shundagina inson haqiqiy faoliyat erkinligiga erishadi».

<sup>108</sup> «Халқ сўзи», 1994, 10 сентябрь

<sup>109</sup> Каримов И. Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт-пировард мақсадимиз.-Т. 2000. – Б. 24-25.

Masalaning yana boshqa jihati ham mavjud ya'ni, amaliy faoliyatni madaniyatdan ajratib bo'lmagani kabi madaniyat ham amaliyotdan ayri holatda tushunish mumkin emas. Darhaqiqat, madaniy faoliyat-dunyo go'zalliklarini anglash va hayotni yanada farovonlashtirishga, insoniyatning tarixiy, axloqiy va ma'naviy an'analarini takomillashtirishga yo'naltirilgan.

Madaniy- ma'rifiy ishlar ayni paytda maqsadga erishishning vositasi hamdir. Xususan, shu o'rinda F. Bekonning quyidagi fikrlari o'rinnidir: "Kim o'z ishini bilsa, u ko'zlagan maqsadiga yetadi va har qanday usta-o'z ijodining hukmdoridir". Ayni shunga o'xshash fikr T. Gobbsda ham bor. "San'at va hunarmandchilikdagi yangi kashfiyot,-deydi u-agarda ular foydali bo'lsa, ajoyibdir, ana shundagina ular nooddiy qobiliyatdan dalolat beradi"<sup>110</sup>.

Ma'lumki, madaniy-ma'rifiy ishlar madaniy- ma'rifiy muassasalar (o'tgan asrning 70-yillarigacha madaniy-oqartuv muassasalari, deb atalgan) tomonidan olib borilgan. Bunday muassasalar tarkibiga klublar, madaniyat saroylari, uylari, kutubxonalar kirgan bo'lib, ularning asosiy vazifasi jamiyatning keng tabaqalari o'rtasida ommaviy- madaniy tadbirlar o'tkazishdan iborat edi.

Keyingi paytlarda sovet mustabid tizimiga xos bo'lgan va o'sha davrda faoliyat ko'rsatgan madaniy-ma'rifiy muassasalar hozirgi kunda kerakmi, degan turli qarashlar yuzaga keldi. Bizningcha madaniyat va ma'rifat ishlari va ularning olib borayotgan muassasalar juda ham kerak. Ular o'zbek milliy madaniyatining bir qismi hisoblanadi va azaldan u yoki bu shaklda mavjud bo'lgan va keng xalq ommasi o'rtasida juda katta ijtimoiy-madaniy nufuzga ega bo'lgan.

Ayni vaqtda sovet mustabid tuzumi davrida madaniy-ma'rifiy muassasalarning o'z funktsional vazifalarini bajarishda jiddiy cheklanganligini ham unutmaslik kerak. Unda madaniyat va ma'rifat muassasalarining eng asosiy vazifalari nimalardan iborat bo'lishi kerak? Ular sovet mustabid tizimi sharoitida o'zlariga yuklatilgan vazifalarni qanday bajardilar? Bu-o'ta

---

<sup>110</sup> Ражапов.В. XX асрнинг 80- йилларида Ўзбекистонда маданият соҳасидаги ўзгаришлар ва муаммолар.тарих фан. ном....дисс. автореф.– Наманган: 2006. – Б. 105

muhimdir, zero madaniy- ma'rifiy muassasalar ishlariga berilgan baho ularning keyingi faoliyatini belgilashda muhim ahamiyatga ega.

Madaniy-ma'rifiy muassasalarning bosh vazifasi-jamiyat a'zolarining bo'sh vaqtini unumli va samarali tashkil etish, ularning barcha turdagi madaniy ehtiyojlarini qondirishga ko'mak berish hamda aholi o'rtasidagi iqtidorlarni tanlash, ulardagi madaniyat va san'at sohasidagi faoliyatini yo'naltirishga yordam berishdan iboratdir.

Umuman, har qanday ijtimoiy-madaniy faoliyat turiga xolisona baho berish o'sha davrdagi ijtimoiy-siyosiy tizim hamda tarixiy-aniq voqelik nuqtai nazaridan berilgandagina xolisona bo'lishi mumkin.

Ayniqsa o'sha tarixiy davr, uning xususiyatlari, madaniyat muassasalari va rasmiy hokimiyat faoliyatidagi munosabatlar aniqlanmas ekan-bunday muassasalar ishini to'g'ri tasavvur etish mushkul. Yana bir masala, ya'ni madaniy-ma'rifiy muassasalar o'rganilayotgan tarixiy davrdagi madaniy-ijtimoiy hamda siyosiy- mafkuraviy organizmning bir bo'lagi ekanligini ham unutmasligimiz zarur. Shu asnoda madaniy-ma'rifiy muassasalarni, ularning faoliyatini mazkur davrda hukm surgan g'oyaviy-siyosiy, mafkuraviy muhitdan ajratib olingan holda qilingan tahlil ilmiy ahamiyatga ega emas.

Madaniy-ma'rifiy muassasalarining eng muhim ish shakli- klub va boshqa madaniyat muassasalarida badiiy havaskorlik to'garaklari ishini yaxshilashdir. Darhaqiqat, san'atga qiziqish juda kuchli bo'lgan bizning xalqimiz qishloq, shaharlarda turli badiiy havaskorlik uyushmalariga birlashgan xolda katta va jiddiy san'atning deyarli barcha jabhalariga kirib keldilar. Bunday dasta, to'garaklarning soni ham ortib bordi.

Masalan, O'zbekistonda 1980 yilda 14 ming turli xildagi badiiy havaskorlik, texnik ijodiyoti, xalq amaliy san'ati bo'yicha to'garaklar faoliyat ko'rsatdi. Bu raqam 1988 yilda 17 mingga etdi. Ulardagi ishtirokchilar soni esa 283 ming kishini tashkil etdi. Yoki, har bir to'garakda o'rtacha 17 tadan a'zo bor edi.

Uyushma, to'garak, dastalarning aksariyat ko'pchiligi madaniyat vazirligi tasarrufidagi klub muassasalari qoshida edi. Xususan, 1991-yilda O'zbekiston bo'yicha madaniyat vazirligi tasarrufidagi madaniy-ma'rifiy muassasalarda hammasi bo'lib 13248 ta dasta, uyushma, jamoalar bo'lgan bo'lsa, ularning katta qismi- 100057 tasi badiiy havaskorlik jamoalari edi<sup>111</sup>.

Masalan, 80-yillarning oxirlarida O'zbekistonda olib borilgan tadqiqotlar natijalariga ko'ra aholining uchdan ikki qismi teatrlarga, 5 dan 4 qismi muzeylarga, 2 dan bir qismi, ya'ni, yarmi kontsert tomoshalariga bormay qo'ydi. Ular o'zlarining 15,4 bo'sh vaqtini televideniya qarshisida, 2 foizini kino teatrlarda o'tkazadilar<sup>112</sup>. Umuman, 80- yillarda odamlarning madaniy-ma'rifiy faoliyatdan bezish xollari yuzaga keldi.

Madaniy-ma'rifiy ishlarning eng sinalgan shakli hisoblangan xalq badiiy havaskorligi ijodiyotida ham "qaytish" undan bezish ruhiyati yuzaga keldi. Buning obyektiv sababi mavjud bo'lib, u asosan siyosiy-mafkuraviy unsurlar bilan bevosia bog'liq edi.

Gap madaniy-ma'rifiy faoliyatning XX asr 80-yillariga kelib to'liq siyosiylashuv jarayonidan o'tganligidadir. Sobiq mustabid tizimining dastlabki yillarida madaniy-oqartiruv muassasalari oldidagi asosiy vazifalardan biri xalq ommasining badiiy-estetik ehtiyojlarini qondirish bo'lgan bo'lsa, keyinchalik bu jarayonga partiyaviy zo'ravonlikning kuchayishi oqibatida unda nohush holatlar yuzaga kela boshladi. Hattoki, madaniy- ma'rifiy muassasalarning eng ommaviy va ko'p tarqalgan shakli bo'lgan badiiy havaskorlik ijodiyoti ham siyosiylasha boshladi. Klublar, madaniy muassasalarining asosiy vazifasi hukmron kommunistik partiyaning g'oyalarini omma orasida targ'ib etishdan iborat bo'ldi.

Klub muassasalariga "ijtimoiy buyurtma" berish bu davrda an'anaga aylandi. Ayniqsa, sovet turmush tarzini madh etuvchi, kommunizm dohiylarini, partiyaviy rahbarlikni ulug'lovchi asarlarni yaratishga undash avj oldi. Masalan,

<sup>111</sup> Маданий- маърифий муассасаларнинг 1990-1991 йиллардаги фаолиятининг асосий кўрсаткичлари.- Тошкент, 1992. – Б 9.

<sup>112</sup> Абдурахимов Б. Художественная культура Узбекистана XX век.- Т.: 2000. – С 117.

birgina 1982 yilda O'zbekiston madaniyat vazirligi respublikadagi madaniyat uylari, saroylari, klublardagi badiiy havaskorlik jamoa, uyushmalari uchun 118 ta turli janrlardagi musiqiy-qo'shiqchilik asarlarni buyurtma tarzda sotib oldilar. Ular orasida M. Bafojevning «Ленин» poema-kontatasi, B. Glinkaning ikkinchi jahon urushida partiyaning rahbarligi haqidagi «Гареть земли» vokal-simfonik poemasi, shuningdek S. Yudakov va boshqalarning sovet tuzumini madh etuvchi asarlari ko'pchilikni tashkil etardi.

Tegishli partiya va sovet organlari tomonidan madaniy-ma'rifiy muassasalarga siyosiy-tarbiyaviy ishlarni kuchaytirish, ularning samaradorligini oshirish bo'yicha tavsiya va topshiriqlar berish an'anaga aylandi. 80- yillarga kelib madaniy- ma'rifiy muassasalar amalda partiyaviy-tashkilot, siyosiy-mafkuraviy targ'ibotning markaziga aylanib qoldi. Masalan, birgina 1980 yilda Namangan viloyatidagi 297 klub muassasalarida 20500 ta turli mavzulardagi suhbat, ma'ruzalar o'qildi. Uning 10000 dan ortig'i ijtimoiy-siyosiy mavzularga tegishli bo'lib , qolgan o'n ming turli tematik kechalar uchrashuvlar, og'zaki jurnallardan iborat edi<sup>113</sup>.

Arxiv materiallari shundan dalolat beradiki, bunday tadbirlarning deyarli barchasi u yoki bu tarzda kompartiyani madh etish bilan bog'liq edi. L.Brejnevning «Малая земля», «Возрождение», «Целина» asarlarini o'rganish, M. Shatrovaning «Именем революции», L. Leonovning «Нашествие», M. Drutsening «Коса мааре», E. Mirxonning «Ishchi farzandi» kabi sahna asarlarini sahnalarda namoiy etish o'sha davrda juda an'anaga kirgan edi. Mazkur siyosiy sahna asarlari respublikaning barcha viloyatlaridagi madaniy- ma'rifiy muassasalarda namoyish qilindi.

Ta'kidlash lozimki, respublika madaniy-ma'rifiy muassasalarining siyosiylashuv jarayoni hukmron mafkuraviy davlat tomonidan alohida ishlab chiqilgan reja asosida olib borildi. Bunda barcha madaniy-tarbiyaviy ishlar siyosiy- mafkuraviy mezonlarga solindi. Mafkuraviy talabga javob bermagan tadbirlar "yuksak talablarga javob bermaydigan" ish sifatida tanqid qilinardi.

<sup>113</sup> НВДА. 590-фонд, 10-руйхат, 693-иш, 2-варақ.

Shuningdek, madaniyat organlari, tashkilotlari bevosita partiyaviy rahbarlik ostida ish olib borar, ularning topshiriqlarini bajarish majburiy edi. Viloyat madaniyat boshqarmalarining vazifasi ham asosan ma'naviy-mafkuraviy ishlarni mafkuraviy-siyosiy jihatdan ta'minlashdan iborat bo'ldi. Shuning uchun ham bunday Boshqarmalarning yig'ilishlari, Kengash majlislarida ijodiy muammolar, madaniyat va san'atning ta'sirchanligini oshirishga qaratilgan masalalar kam kiritilar edi. Partiyaviy nazorat madaniyat muassasalari ustidan rahbarlik qilishning asosiy shakli edi.

Masalan, 1980-yilda Andijon viloyat madaniyat Boshqarmasida partiyaviy nazorat bo'yicha 7 marta yig'ilish o'tkazildi. Birgina 1980-yilda viloyat madaniyat boshqarmasi Kengashi yig'ilishlarida 30 ta rejalashtirilgan masala ko'rilgan bo'lsa, 35 tasi rejalashtirilmagan, yuqoridan "tushirilgan" vazifalar edi. Bulardan tashqari kengash o'z ish faoliyati davomida partiya va sovet organlari, tashkilotlaridan jo'natilgan 22 ta xujjatda ko'rsatilgan vazifalarni hayotga tadbiq etish bo'yicha xujjatlar ishlab chiqildi.

Demak, 1980-yilda Andijon viloyati Madaniyat Boshqarmasida hammasi bo'lib 87 marta turli masalalar ko'rildi. Ammo ularning 12 tasi kutubxona, 10 tasi madaniy-ma'rifiy ishlar, 2 ta teatr, 3 tasi madaniyat va istirohat bog'lari masalalariga bag'ishlandi xolos<sup>114</sup>. Ko'rilgan 87 ta masalaning 27 tasigina ijodiy masalalarga bag'ishlangan holda 50 tasi partiyaviy-mafkuraviy va tashkiliy muammolarga ta'luqli edi. Yuqoridagi xulosaning o'zi ham viloyat madaniyat boshqarmalarida asosiy e'tibor partiyaviy rahbarlikni amalga oshirishdan iboratgina bo'lganligidan dalolat edi.

O'tgan asrning 80-yillarida O'zbekiston madaniy-ma'rifiy muassasalarida qator tashkiliy ishlar bajarildi. Shulardan biri-kutubxona va klub muassasalarini markazlashtirishdan iborat edi. Buning sabablari quyidagilardir: a) bu davrga kelib deyarli barcha vazirlik va idoralar o'zlarining madaniy-ma'rifiy muassasalari, xususan, klub va kutubxonalarga ega edi. Ammo ularning

<sup>114</sup> Ражапов.В. XX асрнинг 80- йилларида Ўзбекистонда маданият соҳасидаги ўзгаришлар ва муаммолар.тарих фан. ном....дисс. автореф.– Наманган: 2006. – Б. 109-110.

faoliyati, ayniqsa madaniyat vazirligi tasarrufidagi muassasalar bilan muvofiqligi ta'minlanmagan, ular bir-biridan ajralgan xolda faoliyat ko'rsatar edi. Umuman, markazlashtirishdan ko'zda tutilgan asosiy maqsad madaniyat maskanlarining ish samaradorligini oshirish edi. Ammo, bu tashkiliy tabdir avval madaniy-ma'rifiy ishlar shaklini biroz bo'lsada yaxshilaganiga qaramasdan, yakuniy natijasi yaxshi bo'lmadi.

b) Ma'naviy-ma'rifiy ishlardan ko'zlangan asosiy maqsad partiyaning rolini oshirish, uning ta'sirini omma orasida kuchaytirishdan iborat edi. Ammo 70-yillar oxiri, 80-yillar boshlaridan boshlangan milliy o'zlikni anglash jarayoni madaniy sohada noan'anaviy tadbirlar o'tkazishga moyillik kayfiyatini tug'dirgan edi. Bu esa madaniy-ma'rifiy muassasalar faoliyatini markazlashtirishni, muammolarni bir nuqtadan turib hal etishni talab qilardi. Markazlashtirish shu tufayli yuzaga keldi.

O'rganilayotgan davrda madaniy-ma'rifiy ishlarni yanada takomillashtirish maqsadida yana bir tajriba-eksperiment o'tkazildi. Bu narsa respublika qishloq, ovullarida madaniyat komplekslarini tashkil etish bilan bog'liq bo'ldi. 80-yillarning boshlaridan tashkil etila boshlangan bunday komplekslar tarkibiga ma'lum xududiy birlikdagi klub, kutubxona muassasalari, muzeylar, sog'lomlashtirish inshootlari, ijtimoiy- mazmundagi nuqtalar kiritila boshlandi.

Albatta, bu tadbirlar o'sha paytda madaniy-ma'rifiy ishlarni ma'lum darajada yaxshilashiga, inson kamoloti uchun mas'ul bo'lgan barcha muassasalar faoliyatini muvofiqlashtirishga shart-sharoit yaratdi. Biroq, bu tadbirlar ko'zlangan maqsadga erishishga imkon bermadi.

Mazkur holatni badiiy havaskorlik jamoalari misolida ko'rish mumkin. Gap shundaki, 80-yillarda yuqori tashkilotlarning topshiriqlarini bajarish maqsadida tezlikda, faqulodda tarzda badiiy havaskorlik jamoalarini tashkil etish xollari ko'p bo'ldi. Shuningdek, bunday jamoalarning ko'rik tanlovlarini uyushtirish ham an'anaga aylangan edi. Masalan, birgina Andijon viloyatida 1980-yilda 13 ta shunday ko'rik-tanlovlar tashkil etildi.

Keyinchalik esa madaniy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish, aholini ko'proq san'at, madaniyatga jalb etish maqsadida har bir ishlab chiqarish brigadasida badiiy havaskorlik jamoalarini tuzish topshiriqlari berildi. Masalan, aynan shu viloyatda 127 ta badiiy dastalar tashkil etildi. Ular brigadalar xuzurida barpo etildi. Ushbu dastalarda 3 ming ishtirokchi qatnashganligi qayd etildi. Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, tuzilgan bunday ansambllar ma'muriy yo'llar bilan barpo etilganligi uchun ham uzoq yashay olmadi va tezlikda tarqalib ketdi.

Madaniy-ma'rifiy ishlar markazni mafkuraviy-siyosiy tadbirlar tashkil etardi. Bunda ko'proq turli suhbatlar, ma'ruzalar, ochiq mulokatlar o'tkazishga e'tibor berildi. Masalan, birgina Andijon viloyatida 1980-yilda 26343 ta ma'ruza va suhbatlar tashkil etildi. Ularda 2102978 kishi qatnashdi. Ushbu suhbat, ma'ruzalarning 10 ming, deyarli yarmi ijtimoiy- siyosiy, mafkuraviy masalalarga tegishli edi. 7,5 mingga esa ishlab-chiqarish va xo'jalik sohalariga ta'luqli bo'lib, faqatgina 5,5 mingtasigina adabiyot, san'at, madaniyat masalalarini qamrab olgan edi<sup>2</sup>.

Ateizm bo'yicha tadbirlar o'tkazish ham juda kuchaydi. Yuqori tashkilotlarning ko'rsatmasi bo'yicha barcha klub muassasalarida ateizm burchaklari tashkil qilindi. Har bir madaniy-ma'rifiy muassasada "Ro'za va uning mohiyati", "Din va meditsina", "Islomning reaksiya mohiyati" kabi mavzularda suhbatlar uyushtirish vazifasi qo'yildi.

Ta'kidlash lozimki, 80-yillarda madaniy-ma'rifiy muassasalar shaxs ijodiy qiziqishlarini qondirishdan iborat vazifani bajarish lozim edi. Umuman, madaniy faoliyat natijasida inson o'zining ijodiy salohiyatini to'la ifoda etish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak. Ushbu yo'nalishda shaxs individual faoliyatining mazkur faoliyat shakli uchun xos bo'lgan umumiy me'yor, qoida va tamoyillar darajasiga o'sib o'tishi kuzatildi. Madaniy faoliyatning ma'naviy madaniyat tizimidagi xizmatlari quyidagilardan iboratdir:

1. Mazkur faoliyatning maqsadi shaxsda ma'lum xususiyat hamda sifatlarni tarbiyalashdan iborat bo'ladi.

2. Kishilar o`rtasidagi muloqot mazkur faoliyatning asosiy vositasi bo`lib, u tajriba, g`oya bilim almashish sifatida namoyon bo`ladi.

3. Madaniy faoliyatni tadbiq qilish jamoat tashkilotlari yoki individual faoliyat asosida amalga oshiriladi<sup>115</sup>.

Madaniy faoliyat doimo individning ijtimoiylashuvi asosida, ya`ni ijtimoiy munosabatlar tizimini izchil o`zlashtirish asosida olib boriladi. Madaniy yaratuvchanlik inson faoliyatining individual o`ziga xosligiga bog`liq bo`lganligi sababli uning muayyan me`yorlarini hisobga olish maqsadiga muvofiqdir.

Ushbu fikrlardan uchta xulosaga kelish mumkin. Birinchisi, madaniy faoliyat insonda ijtimoiylashuv jarayonini yuzaga keltiradi. Ikkinchidan, madaniy faoliyat natijasida shakllangan ijtimoiy munosabatlar jamiyat a`zolari tomonidan izchil o`zlashtirilganligi lozim. Uchinchidan, yuqoridagi ijobiy xolatga tushish uchun jamiyat a`zolarida maxsus tayyorgarlik kerak. O`tgan asrning 80-yillaridagi O`zbekistondagi umumiy holatni tahlil etish asosida shu narsani anglash mumkinki, madaniy-ma`rifiy muassasalar tomonidan olib borilgan ishlar etarli natijalar bermadi. Bunday muassasalarning aholining madaniy ehtiyojlarini qondirish bo`yicha ishlari siyosiy mafkuraviy andoza ostida olib borilganligi uchun ham samarasiz bo`ldi.

Madaniyat uylari, saroylari, klublarining "ijtimoiy buyurtma" asosida ish olib borishi og`ir oqibatlarga olib keldi. Masalan, turli sanalar, inqilobiy kunlarga bag`ishlangan tadbirlar, jumladan, 1983-yildagi klub muassasalari ko`rik-tanlovida 4048 ta madaniyat muassasalari ishtirok etdi. Yagona "Klub dekadasi" tashkil etildi. Unda "Biz-sovet xalqi", "Sovet turmush tarzi", "Kuchimiz-do`stlikda", "Lenincha xalqlar do`stligi-abadiy bo`lsin" kabi tadbirlar o`tkazildi.

Madaniy-ma`rifat ishlarning eng muhim va asosiy turi hisoblangan badiiy havaskorlik jamoalari faoliyatini takomillashtirishga alohida e`tibor berildi. Buning asosiy sababi esa milliy mentalitet, millatning ma`naviy qadriyatlarni

<sup>115</sup> Содиқова М. Истиқлол шароитида қишлоқ маданияти ва жамоат ташкилотлари.-Т.: 2001. Б. 27.

o`zlashtirishga bo`lgan intilishida edi. Xususan 80- yillarning o`zida 3 marta (1980-1982, 1984-1985, 1987-yillarda) yirik, davlat miqyosidagi badiiy havaskorlik ijodiyotining ko`rik- tanlovlari, festivallari o`tkazildi. Bunday festivallar xalq badiiy havaskorlik san`atining rivojlanishiga, professional hamda havaskorlik san`atining ijodiy hamkorligini mustahkamlashda ham muhim o`rin egalladi.

O`rganilayotgan tarixiy davrda madaniy-ma`rifiy muassasalar faqatgina badiiy havaskorlik guruhlarini tashkil etish bilangina cheklanib qolmadi. Ayni paytda havaskor kompozitorlar, bastakorlar, xoreograflar, rejissyorlar ham tarbiyalandilar.

Bunday san`atkorlar turli ijodiy guruhlarga birlashgan holda ijod qildilar. “Qayta qurish” boshlangan 80-yillarning o`rtalarida badiiy havaskorlik jamoalarining faoliyati ham qaytadan ko`rib chiqila boshlandi. Ammo, bu yerda ikki bir-biriga zid holatni kuzatish mumkin edi. Birinchidan, badiiy havaskorlik jamoalarida milliylik, o`zligini anglash jarayoni kuchaydi. Ammo, ayni vaqtda, erishilgan “yutuqlarni” qo`lda saqlab qolish maqsadida madaniy-ma`rifiy muassasalarni haddan tashqari siyosiy iskanjaga olish boshlandi. Bu esa, o`z navbatida 80-yillarning o`rtalari, ikkinchi yarmiga kelib madaniy-ma`rifiy muassasalar tarkibida faoliyat ko`rsatgan badiiy jamoalar sonining kamayishi va odamlarning ular faoliyatidan bezish hollari yuzaga keldi.

Jumladan, 1985-yilda respublikaning barcha klub muassasalarida barcha turdagi 12786 ta to`garaklar faoliyat ko`rsatgan bo`lsa, ularning 9348 tasi badiiy havaskorlik jamoalari edi. Ularda 226793 kishi ishtirok etdi. Ularda 226793 kishi ishtirok etdi, shu bilan birga, madaniy-ma`rifiy faoliyatda o`tgan asrning 80-yillaridan yana bir faoliyat turi-qiziquvchilar klublari tashkil etila boshlandi. 1985 yilda O`zbekiston bo`yicha 22520 fuqaro ana shunday klublar ishida ishtirok etdilar<sup>116</sup>.

---

<sup>116</sup> Ражапов.В. XX асрнинг 80- йилларида Ўзбекистонда маданият соҳасидаги ўзгаришлар ва муаммолар.тарих фан. ном....дисс. автореф.– Наманган: 2006. Б. 114-115.

Biroq, yuqorida ta'kidlangani kabi, 80-yillarda jamiyat a'zolarining mavjud siyosiy-mafkuraviy tizimdan bezish holati kuchaydi. Odamlar endi sovet hukumati tomonidan olib borilayotgan ishlarga qiziqmay qo'ydilar. Bu shubhasiz madaniyat sohasida ham jiddiy sezila boshlandi. Teatr, kontsert tashkilotlari, boshqa madaniyat maskanlari kabi madaniy- ma'rifiy muassasalarga ham ommaviy qiziqish susaydi. Masalan, 80-yillarning ikkinchi yarmida O'zbekiston madaniy-ma'rifiy muassasalariga tomoshabinlarning tashrif buyurish darajasi 30 foizdan oshmasdi.

Respublikaning deyarli barcha viloyatlarida xuddi shunday xolat yuzaga keldi. Masalan, Buxoro viloyatida 1985 yilda har bir klub muassasasiga 20-25 o'ringa 10-12 tadan odamni birlashtirgan 2 tadan to'garak to'g'ri kedi xalos. Bunday to'garaklarning 80 foizi ishtirokchilari esa asosan maktab o'quvchilaridan iborat edi. Har ming aholi soniga to'g'ri keladigan badiiy havaskorlik jamoalari ishtokchilari soni 11,4 tani tashkil etdi xolos. Buxoro shahrida esa bunday jamoalar soni 1980 yilga nisbatan 2 martaga kamayib ketdi.

Ana shunday salbiy holatlar respublika siyosiy raxbariyati, soha mutaxassislaridan badiiy havaskorlik san'atini qanday yo'llar bilan bo'lmasin yaxshilashni talab qildi. Shu maqsadda 80- yillarning ikkinchi yarmidan madaniy-ma'rifiy ishlarning yangi shakllari yuzaga keltirila boshlandi. Xususan, dam olish kuni bayramini nishonlash Namangan viloyati Norin tumani madaniyat xodimlari tomonidan tavsiya etildi. Chirchiq shahrining "Ximik", "Elektroximprom" kombinatlari madaniyat saroylarida "Oilaviy hordiq" tadbiri. Xorazm viloyatida esa oilaviy ansambllarning ko'rik-tanlovlarini o'tkazish joriy etila boshlandi.

Albatta, mazkur tadbirlar madaniy-ma'rifiy faoliyatni takomillashtirish, ularni yangi usul va shakllar bilan boyitish nuqtai nazaridan to'g'ri edi. Ammo, bunday tadbirlar bevosita fuqarolarning o'zlari tomonidan, milliy ehtiyoj tufayli tashkil etilmasdan, "yuqori"ning ko'rsatmasi asosida yuzaga kelganligi uchun ham uzoq vaqt amaliyotda saqlanib qolmadi.

Shunday sharoitda 80-yillarning ikkinchi yarmidan badiiy havaskorlik jamoalari repertuarlarida ma'lum ijobiy o'zgarishlar ham yuz berganligini e'tiborga olish kerak. Masalan, sotsialistik turmush tarzi, KPSS ning rahbarlik rolini madh etuvchi badiiy asarlar o'rniga milliy ruh, kayfiyat, milliy mentalitetga mos janrlarning rivoj topa boshlaganligini ko'rishimiz mumkin. Masalan, birgina 1988-1989 yillarda Samarqand viloyatida milliy uslub asosida 30 dan ortiq ko'rik tanlovlar o'tkazildi. Ularning eng faol ishtirokchilari esa xorijiy davlatlardan o'z san'atlarini namoyish etdilar. Shu o'rinda Samarqand viloyati Pstdarg'om tumanining "Shashmaqom", Kattaqo'rg'on tumanining "Zarafshon", "Sarbozlar", Payariq tumanining "Chinor" ansambllarining Chexoslovakiya, Vengriya, Rossiyaning qator viloyatlarida milliy uslubda o'z san'atlarini namoyish etganliklarini ko'rish mumkin.

Ana shunday ishlar deyarli barcha viloyatlarda amalga oshirildi. Masalan, Namangan viloyatida qo'shni respublikalar, jumladan Tojikiston va Qirg'izston bilan madaniy, adabiy-badiiy uchrashuvlar, festivallar tashkil etishda ma'lum siljishlarga erishildi. Ayniqsa, 1989-yilda Pop tumanining "Navro'z", "Go'zal" xalq badiiy jamoalari Leninobod (Xo'jand) tumani Isfara shahri aholisi oldida, Zadaryo (Mingbuloq) tumanidagi "Yulduz", "Oydin" xalq badiiy havaskorlik jamoalari esa Tula viloyati Kireevsk shahri aholisi oldida badiiy chiqishlar qildilar<sup>117</sup>.

80-yillarning ikkinchi yarmidan butun sobiq mustabid davlat tarkibida bo'lgani kabi O'zbekistonda ham millatlararo munosabatlarda juda nohush holatlar yuzaga keldi. Uzoq yillar mobaynida to'planib qolgan iqtisodiy-ijtimoiy, siyosiy muammolar mazkur davrga kelganda haddan tashqari keskinlashib ketdi. SHunday sharoitda mavjud muammolarni hal etish, millatlararo totuvlik va bag'rikenglikni ta'minlashda madaniyat va san'atga alohida e'tibor berildi.

Respublika madaniy-oqartiruv muassasalarida ko'p millatli xalqlar o'rtasida o'zaro do'stlik va inoqlikni ta'minlash borasida qator ibratli ishlar olib

<sup>117</sup> Наманган ВДА. 590- фонд, 1- рўйхат, 829-иш, 3- варақ.

borildi. Masalan, Andijon viloyatidagi Paxtaobod tumani Moskva xo'jaligida «Отуш» uyg'ur ansambili, Andijon shahar 2-madaniyat uyida «Идель» boshqird tatar ansambili, Jalolquduq tumani «Ильич» jamoa xo'jaligida qirg'iz, Marhamat tumani Paxtakor jamoa xo'jaligida "Xurshid" tojik ashula va raqs ansambillari turli joylarda millat va elatlarni o'zaro hamkorlik va ahillikka chaqiruvchi tadbirlar bilan chiqdilar. Shuningdek, Leninakan, Spitak, Moskva, O'sh, Qo'rg'ontepa viloyat va shaharlarida ham shunday ishlar olib borildi.

80-yillarning oxirlariga kelib O'zbekiston madaniy-ma'rifiy muassasalari faoliyatida bir qancha yo'nalishlar aniq sezilib qoldi. Bular quyidagilardan iborat edi:

1. Agar 80-yillarning birinchi yarmida Respublika madaniy-ma'rifiy muassasalari ish faoliyatida siyosiy-mafkuraviy aqidalar ustuvor ahamiyat kasb etgan bo'lsa, mazkur davrning ikkinchi yarmida ayrim ijobiy o'zgarishlar ro'y berdi. Siyosiylikdan milliylikka qaytish jarayoni yuz bera boshladi. Jumladan, bu davrda milliylikning muhim ko'rinish (madaniyatdagi) bo'lgan folklor-etnografik jamoalarning tashkil etilishi jadallashdi. 1990 yilga kelib ular soni 200 ga etdi.

2. Siyosiy xarakterdagi tadbirlarni o'tkazish 80-yillarning ikkinchi yarmidan kamaya borganligini kuzatish mumkin. Masalan, ko'rilgan davrning birinchi yarmida milliy masala, millatlararo munosabatlar muammolari kun tartibiga qo'yilgan bo'lsa, ikkinchi davri ular bo'rtib chiqdilar. Madaniy-ma'rifiy muassasalar o'z faoliyatida bunday muammolarni ko'tarish imkoniyatiga ma'lum darajada ega bo'ldilar.

3. Madaniy-ma'rifiy faoliyatni tashkil etishda qo'llanilgan eski ish usul va yo'llari o'rniga yangilari, zamonaviy usullari paydo bo'la boshladi. Ammo, bular mavjud qiyinchiliklarni bartaraf etishdagi faqat shakliy o'zgarishlar edi xolos. Madaniy-ma'rifiy muassasalar hukmron kommunistik mafkuraning "yordamchisi" sifatida ahamiyatini yo'qotmadi.

Masalan, urf-odat, an`analarga qarshi hujum bu davrda, ayniqsa “qayta qurish” davrida avj oldi. Jamiyat a`zolarida mavjud siyosiy tuzumdan norozilik, bor holatdan qoniqmaslik ruhiyati paydo bo`ldi.

4. Madaniy-ma`rifiy muassasalar oldiga qo`yilgan vazifalar asosan quyidagilardan iborat edi: a) ta`limiy jarayonni jadallashtirish; b) tarbiyaviy ishni takomillashtirish; v) aholi bo`sh vaqtini samarali tashkil etish.

Ammo, amalda bu vazifalar bajarilmadi. Hukmron siyosiy kuch madaniyat maskanlariga siyosiy-mafkuraviy kuch, vosita sifatida qarashni davom ettirdilar.

Mazkur o`rganilgan davrda O`zbekiston madaniy-ma`rifiy muassasalarida ma`lum siljishlarga qaramasdan ushbu madaniyat maskanlari yuklatilgan vazifani bajara olmadilar. Ular ishida siyosiy-mafkuraviy ustuvorlik doimo sezilib turdi. Klublar, boshqa madaniyat muassasalarida demokratik tamoyillarga e`tibor berilmadi, ijodiy jarayonga “yuqori”ning ko`r-ko`rona aralashuvi davom etdi.

## XULOSA

XX asr oxirida xalqimizning asriy orzulari ro'yobga chiqdi, O'zbekiston mustaqillikka erishdi. Mamlakatimiz jahon hamjamiyatining teng huquqli a'zosiga aylandi, yangi jamiyat qurish uchun tub o'zgarish va islohotlar amalga oshirila boshlandi. O'zbekistonda barpo etilayotgan siyosiy tuzum demokratik, huquqiy davlat bo'lsa, ijtimoiy tuzumni-qonun ustuvor bo'lgan fuqarolik jamiyatidir. O'zbekistonda tarixiy jihatdan qisqa bir davr ichida milliy davlatchilikni barpo qilish, bozor iqtisodiyotiga o'tish, xalqaro munosabatlarni yo'lga qo'yish va rivojlantirish bobida ulkan ishlar amalga oshirildi. Mustaqillik tufayli o'zbek xalqining ko'p asrlik boy tarixiy, ilmiy, madaniy va diniy merosini o'rganish, undan xalqning umumiy va bebaho mulki sifatida foydalanishga keng yo'l ochildi. Ma'naviy boyliklar, qadriyatlar, davlat, millat, shaxsning bebaho xazinasini va taraqqiyot manbayi hisoblanadi. Aynan ushbu ma'naviy va mafkuraviy asosni mustahkamlash hamda rivojlantirishda tarix fani alohida ahamiyatga egadir. Zero, O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov ta'kidlaganidek: "...Tarix xotirasi, ... milliy o'zlikni anglashni, ta'bir joiz bo'lsa, milliy iftixorni tiklash va o'stirish jarayonida g'oyat muhim o'rin tutadi"<sup>118</sup>. Shuningdek, Prezident I. A. Karimov o'zining bir qator risola va nutqlarida "Milliy mafkurani shakllantirishdagi eng katta manba - bu haqqoniy yoritilgan tarixdir" - deb ko'rsatadi<sup>119</sup>.

Mustaqillik yillarida O'zbekiston tarixchilari oldida haqqoniy tarixning yoritilishi lozim bo'lgan masalalari ko'lami ham aniqlandi. Mustabid sovetlar hukmronligi davrida, kommunistik mafkura ta'sirida o'zbek xalqi tarixida kechgan jarayonlar sinfiylik, partiyaviylik prinsiplari asosida ma'muriy-buyruqbozlik tizimi manfaatlariga bo'ysundirilgan holda soxtalashtirildi, noto'g'ri talqin etildi. Bu davrga oid tadqiqotlarda o'zbek xalqi tarixining ayrim

<sup>118</sup> Каримов И. А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: ҳавфсизликка таҳдид: барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. – Т.: Ўзбекистон, 1997. – Б. 102.

<sup>119</sup> Каримов И. А. Миллий истиёлол мафкураси – ҳалы эътиёоди ва буюк келажакига ишончдир. – Тошкент: Ўзбекистон, 2000. – Б. 14.

muammolari umuman chetlab o'tildi. Bunday masalalar jumlasiga o'zbek davlatchiligi tarixini kiritish mumkin.

XX asr Sovet mustabid tuzumi davrida O'zbekistonning ma'naviy-madaniy va ma'rifiy hayoti o'ziga xos murakkab qiyinchilik bilan kechdi. 20-yillar boshlariga kelib, O'zbekiston hududida madaniy qurilishning eng dolzarb vazifalaridan sanalgan sovet ta'lim tizimini shakllantirish ishlari boshlab yuborildi. Sovetlarning bundan o'z oldiga qo'ygan maqsadi, o'lkada xalq ta'limini rivojlantirish bo'lmay balki, ularning ongi va shu'uriga kommunistik g'oyalarni singdirish orqali o'zlariga vijdonan xizmat qiladigan avlodni yetishtirishni maqsad qilgan edilar. Ayni paytda bolsheviklar tomonidan "Madaniy inqilob" siyosatining amalga oshirilishi zamirida mahalliy xalqlar madaniyati, urf-odatlarini, ayniqsa uning milliy jihatlarini yo'q qilish g'oyasi ilgari surilgan edi. Bu jarayonni biz boshqa madaniy-ma'rifiy muassaslar faoliyati orqali ham ko'rishimiz mumkin.

O'zbekiston tarixining eng dolzarb muammolaridan biri – sovet davri hisoblanadi. Mazkur davrda o'zbek xalqi madaniy-ma'rifiy hayotida quyidagi jarayonlar sodir bo'ldi:

- Turkistonda sovet hokimiyatining o'rnatilishi bilan madaniyat hayot to'la ma'muriy-buyruqbozlik tizimiga moslashtirildi.
- Sovet davlatining O'zbekistonda yuritgan madaniy-ma'rifiy sohadagi siyosati va uni amalga oshirishda ziddiyatlar sodir bo'ldi.
- Sovet davrida O'zbekiston madaniy meros ob'ektlarining ahvoli va uning matbuotda aks etishiga kommunizmga xos bo'lgan siyosiy tus berila boshlandi.
- O'zbek ziyolililarining madaniy merosni asrash sohasidagi faoliyati va uning matbuotdagi talqini noto'g'ri ko'rsatib berildi.
- Sovet davri O'zbekiston tarixi, xususan, madaniyat tarixida ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy sohalarda ziddiyatlarning haddan tashqari keskinlashib ketgan davri hisoblanadi. Mamlakatda ma'muriy-buyruqbozlik tizimi barcha sohalarda o'zining mustahkam siyosiy-mafkuraviy zo'ravonligini o'rnatgan edi. Madaniy sohani rivojlantirish insonni tarbiyalash, uni

barkamolligiga erishish nuqtai nazaridan emas, aksincha, uni o'z milliy o'zligidan ayirish, milliy urf-odat, qadriyatlarni kamsitish ma'nosida siyosiy rahbarlikning bosimini oshirish bo'yicha olib borildi.

- Sovet mustabid tuzumi davrida o'zbek milliy madaniyatiga salbiy ta'sir etgan kontseptual xatolar kuchaydi. Buning eng asosiysi badiiy-estetik jarayon, ijtimoiy-madaniy faoliyatga partiyaviy aralashning kuchayganligidadir. Natijada badiiy asarlar, sahna asarlari bularning barisida badiiylilik o'rnini partiyaviy aqidalar egallay boshladi. Shaklan milliy, mazmunan sotsialistik, ruhan baynalmilal deb nomlangan sovet madaniyati aslida xalqning ruhi, mentalitetiga tamomila mos kelmaydigan madaniyat holatiga olib kelib qo'yildi.

- Sovet mustabid tizimi davrida madaniyat va san'at sohasidagi ishlar samaradorligiga erishish mezonlari noto'g'ri belgilandi. Masalan, madaniy-ma'rifiy muassasalarning asl maqsadi-barkamol avlodni tarbiyalash, fuqarolarda madaniy ehtiyoj hissini shakllantirish pirovardida ularda o'zini rivojlantirish va anglashga turtki beradigan tafakkur tarzini paydo qilishdir. Ammo, o'rganilgan davr madaniyatida bunday xol uchramadi. Mazkur madaniyatdan ko'zlangan asosiy maqsad insondan sovet voqeligini yagona haqiqat sifatida qabul qilish ko'nikmasini shakllantirish va u orqali iqtisodiy muammolarni hal etishga qodir bo'lgan kishilarni tayyorlash edi.

- O'rganilgan davrda madaniy-ma'rifiy muassasalarning umumiy siyosiy lashuv jarayoni yuzaga keldi. To'g'ri, madaniyat maskanlari mamlakatimizda ommaviy madaniyatni rivojlantirishda, ayniqsa, xalq badiiy ijodiyotini takomillashtirishda yangi iqtidorlarni topish va ularni tarbiyalashda ma'lum rol o'ynadi.

Ammo, nazariy - kontseptual tarzda bunday muassasalar aslida kommunistik mafkuraning kuchli bosimi ostida ishlashga majbur bo'ldi. 80-yillarda madaniyat maskanlarida bir qancha strukturaviy o'zgarishlar, islohatlarni amalga oshirishga harakat qilindi. Masalan, klub muassasalari va kutubxonalarni markazlashtirish, qishloq madaniyat komplekslarini barpo etish masalalari amalga oshirildi.

Biroq, undan ko`zlangan maqsad amalga oshmadi. Uning sababi esa tadbirning moddiy iqtisodiy jihatdan ta`minlanmaganligi, faqatgina shaklni o`zgartirish bilan bog`liq ishlargagina ahamiyat berilganligida edi.

Madaniy-ma`rifiy muassasalar ish samaradorligi esa siyosiy-mafkuraviy hamda sof iqtisodiy mezonlar bilangina belgilanar edi. Siyosiy tarbiyaviy ish klub muassasalarining eng ustivor yo`nalishi ekanligi ta`kidlanardi. Sobiq kommunistik mafkura tomonidan 1985 yilda chiqarilgan qarordan ko`zda tutilgan maqsad ham aynan shu edi. 80-yillarning oxirlariga kelganda ushbu madaniyat maskanlari tamomila siyosiylashib bo`lgan va unga kishilarning qiziqishi juda pasayib ketgan edi.

▪ Milliy madaniyatda demokratik jarayonlarning inkor etilishi, mafkuraviy unsurlarga ustivor ahamiyat berilishi, milliy madaniyyatni har qadamda kamsitish, jahon tsivilizatsiyasi jarayonlaridan chetda qolish - bularning barisi odamlarda sovet madaniyatidan begonalashuv holatini yuzaga keltirdi. Bunday ijtimoiy begonalashuv quyidagilarda ko`rindi:

- kishilarning sovet madaniyatini o`rganishga intilishi so`ndi;
- madaniyat muassasalari, teatr-kontsert, tashkilotlariga kirish keskin kamayib ketdi;
- o`zbek tilidagi adabiyotlar, nashrlarning kamayishi oqibatida kitob o`qish madaniyati pasaydi.
- Sovet madaniyatining kuchli mafkuralashganligi va siyosatlashganligi oqibatida ijodkorlarning yangi asarlar yaratishga qiziqishi kamayib ketdi.

## **FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

### **I. Magistrlik dissertasiyasi uchun nazariy asos bo‘lgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1.1. Каримов И. А. Она юртимиз бахту иқболи ва буюк келажаги йўлида хизмат қилиш-энг олий саодатдир. –Т.: Ўзбекистон, 2015.

1.2. Каримов И. Ўзбекистонда демократик ўзгаришларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамияти асосларини шакллантиришнинг асосий йўналишлари. // «Халқ сўзи», 2002, 30 август.

1.3. Каримов И. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. –Тошкент, 1998.

1.4. Каримов И. Тарихий хотирасиз келажак йўқ.-Тошкент, 1998.

1.5. Каримов И. Милий истиқлол мафкураси-халқ эътиқоди ва буюк келажакка ишончдир. - Тошкент., 2000.

1.6. Каримов И. Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт-пировард мақсадимиз. Тошкент, 2000.

### **II. Arxiv manbalari:**

2.1. Наманган вилоят Давлат архиви (НВДА) 796-фонд, 1-рўйхат, 26-иш, 9-варақ.

2.2. НВДА, 796-фонд, 1-рўйхат, 26-иш, 13-варақ.

2.3. НВДА, 796-фонд, 1-рўйхат, 51-иш, 54-варақ.

2.4. НВДА, 796-фонд, 1-рўйхат, 44-иш, 2-варақ.

2.5. НВДА, Иномжон Низомбоевнинг шахсий фонди. 66-варақ.

### **III. Adabiyotlar:**

3.1. Ўзбекистоннинг янги тарихи. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. Иккинчи китоб.-Т.: Шарқ, 2000.

3.2. Расулов А. Туркистон ва Волгабўйи, Уралолди халқлари ўртасидаги муносабатлар. -Т.: Университет, 2005.

3.3. Зияева Д. Ўзбекистон шаҳарлари XIX асрнинг иккинчи ярми-XX аср бошлари. – Тошкент., 2013.

3.4. Раҳмонов М. Ҳамза ва ўзбек театри. – Тошкент: Ўз ССР Давлат бадиий адабиёт нашриёти, 1959.

- 3.5. Ўзбекистон Республикаси Миллий Энциклопедияси. – Тошкент: ЎзМЭ, 2005. 11-том.
- 3.6. Турсунбоев С. Андижон театри. – Тошкент: Гафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1970.
- 3.7. Раҳмонов М. Ҳамза ва ўзбек театри... Тошкент. 2001.
- 3.8. Шодмонова С. Ўзбекистон шаҳарларида трансформация жараёнлари (1917-1924 йиллар). – Тошкент: Adabiyot uchqunlari, 2015.
- 3.9. Юлдашев А. Мустақил Ўзбекистонда маданиятни бошқариш муаммолари. -Тошкент, 2000.
- 3.10. Эркаев А. Маънавият-миллат нишони. -Тошкент, 1999.
- 3.11. Qo'ldoshev E, Hamidov H. O'zbekiston tarixi. T.: "G'afur G'ulom", 2014.
- 3.12. И.Ю. Юсупов, Э.Ю. Мирзалиев. Наманган вилояти меъморий обидалари. Наманган. 2008.
- 3.13. И.Ю. Юсупов, Э.Ю. Мирзалиев. Наманган шаҳри тарихидан лавҳалар. Наманган. 2010.
- 3.14. Э.Ю. Мирзалиев. М.Т. Базаров. Наманганнинг XIX аср охири XX аср бошидаги социал-иқтисодий ва маданий ривожланиши. Наманган. 1998.
- 3.15. Э.Ю. Мирзалиев. Наманган шаҳар халқ маорифи тараққиёти тарихидан. Наманган. 1989.
- 3.16. Мирзалиев Э. Наманган вилоят ўлкани ўрганиш музейи: кеча ва бугун. – Фарғона., 2010.
- 3.17. Қосимов Й. Наманган тарихидан лавҳалар. – Т.: Фан, 1990.
- 3.18. Б. Рўзинов, С. Ражабова. Наманган вилояти маданий мероси. Наманган. 2013.
- 3.19. О. Абдуллаев. Наманган вилояти. Наманган. 1995.
- 3.20. Самадов Ю. Мавлоно Ибрат ворислари. – Наманган. 1999.
- 3.21. U. Qoraboyev, G'.Soatov. O'zbekiston madaniyati. T. 2011
- 3.22. Наманган тарихидан лавҳалар. I - китоб Наманган. 2010.

3.23. Тарих тилга кирганда. // Даврий тўплам № 2, Наманган. 2008

3.24. Ю. Исмоилов. Наманган фахри. Наманган. 2005.

3.25. Ражабов В. Наманган шаҳар халқ таълими тизимининг ривожланиш тарихи. “Ноширлик ёғдуси”, 2011.

3.26. Умматов Р., Парпиев М. Наманганнинг саркитоби. Т. 2019.

#### **IV. Dissertatsiya va avtoreferatlar:**

4.1. Ражапов. В. XX асрнинг 80- йилларида Ўзбекистонда маданият соҳасидаги ўзгаришлар ва муаммолар.тарихфан. ном....дисс. автореф.– Наманган: 2006

4.2. Хайдаров З. Наманган вилоятининг совет даври ва мустақиллик йилларидаги ижтимоий-иқтисодий ва маданий тарихи: қиёсий таҳлил. тарих фан. ном....дисс. Автореф.– Наманган: 2006

4.3. Мансуров У. 1917-1924 йилларда Фарғ’она водийси шаҳарлари тарихи. тарих phd....дисс. Автореф. – Наманган: 2018

4.4. Комилов О. К. XX асрнинг 20-йилларида Ўзбекистон миллий маорифидаги ўзгаришлар. Тарих фан. ном. ... дис. – Т., 2009. – Б. 43.

4.5. Насретдинова Д. Туркистон маданий ҳаётида татар-бошқирд аёлларининг тутган ўрни (XIX аср охири – XX асрнинг биринчи чораги): Тарих фан. ном.... дис. – Т., 2011. – Б. 103.

4.6. Чориев А. Х. Мустабид шўро тузуми шароитида Ўзбекистон халқ таълими ва ўқитувчи кадрлар тайёрлаш: миллий-анъанавий ва шўро таълим тизимлари ўртасидаги зиддиятлар (20-30 йиллар). Тарих фан.док... дисс. – Тошкент, 1998. – Б. 115.

4.7. Камилов А.А. Туркистонда миллий масала муаммоларини ҳал этишда Туркистон МСР миллатлар ишлари халқ комиссарлигининг фаолияти. Тарих фан. номзоди. ... дисс. – Т., 1993. – Б. 104.

## ILOVALAR.

**1923 yil 1 yanvar holati bo'yicha Farg'ona viloyati shaharlaridagi  
xalq ta'limi muassasalari soni quyidagicha edi<sup>120</sup>**

**1-Ilova**

| Shaharlar     | Bir bosqichli maktablar |               |             | Ikki bosqichli maktablar |               |             | Barcha toifadagi jami maktablar |               |             |
|---------------|-------------------------|---------------|-------------|--------------------------|---------------|-------------|---------------------------------|---------------|-------------|
|               | Maktablar soni          | o'qituvchilar | O'quvchilar | Maktablar soni           | o'qituvchilar | O'quvchilar | Maktablar soni                  | O'qituvchilar | o'quvchilar |
| Andijon       | 4                       | 28            | 777         | 1                        | 6             | 261         | 5                               | 34            | 1038        |
| Qo'qon        | 15                      | 89            | 2381        | 2                        | 18            | 369         | 17                              | 107           | 2750        |
| Namangan      | 9                       | 33            | 740         | -                        | -             | -           | 9                               | 33            | 740         |
| O'sh          | 3                       | 9             | 229         | -                        | -             | -           | 3                               | 9             | 229         |
| Farg'ona      | 3                       | 25            | 618         | 1                        | 10            | 176         | 4                               | 35            | 794         |
| <b>Umumiy</b> | <b>34</b>               | <b>184</b>    | <b>4745</b> | <b>4</b>                 | <b>34</b>     | <b>806</b>  | <b>38</b>                       | <b>218</b>    | <b>5551</b> |

<sup>120</sup> Мансуров У. 1917-1924 йилларда Фарғона водийси шаҳарлари тарихи. тарих phd....дисс. Автореф. – Наманган: 2018. Б. 103.

**1922 yilga kelib Farg‘ona vodiysidagi barcha shaharlarda 1 tadan mahalliy,  
1 tadan rus aholisi uchun kutubxonalar bo‘lgan.**

**Farg‘ona vodiysi shaharlaridagi kutubxonalar soni quyidagicha bo‘lgan:**<sup>121</sup>

### 2-ilova

| Shaharlar              | muassasa soni | mahalliy | rus |
|------------------------|---------------|----------|-----|
| Andijon                | 2             | 1        | 1   |
| Qo‘qon                 | 2             | 1        | 1   |
| Chust                  | 2             | 1        | 1   |
| Marg‘ilon              | 2             | 1        | 1   |
| Namangan               | 2             | 1        | 1   |
| Skobelev<br>(Farg‘ona) | 2             | 1        | 1   |

**1923 yil 1 yanvar holati bo‘yicha Farg‘ona viloyati shaharlaridagi  
madaniyat muassasalari soni quyidagicha bo‘lgan:**<sup>122</sup>

### 3-Ilova

| Shaharlar                   | kutubxonalar | kitoblar fondi | klublar  | muzeylar |
|-----------------------------|--------------|----------------|----------|----------|
| Andijon                     | 1            | 7360           | 1        | -        |
| Qo‘qon                      | 4            | 9033           | 4        | -        |
| Namangan                    | 3            | 5397           | 2        | 1        |
| O‘sh                        | 2            | 1908           | 1        | -        |
| Farg‘ona                    | 1            | 10171          | -        | 1        |
| <b>Viloyat<br/>bo‘yicha</b> | <b>11</b>    | <b>33869</b>   | <b>8</b> | <b>2</b> |

<sup>121</sup> Мансуров У. 1917-1924 йилларда Фарғона водийси шаҳарлари тарихи. тарих phd....дисс. Автореф. – Наманган: 2018. Б. 107.

<sup>122</sup> Мансуров У. 1917-1924 йилларда Фарғона водийси шаҳарлари тарихи. тарих phd....дисс. Автореф. – Наманган: 2018. Б. 112.

**1923 yil 1 yanvar holati bo'yicha Farg'ona viloyati shaharlaridagi  
maktabgacha ta'lim muassasalari soni quyidagicha bo'lgan:<sup>123</sup>**

**4-Ilova**

| Shaharlar     | bolalar bog'chasi |               |            | bolalar uyi |               |             |
|---------------|-------------------|---------------|------------|-------------|---------------|-------------|
|               | mavjudlari        | tarbiyachilar | bolalar    | mavjudlari  | tarbiyachilar | bolalar     |
| Andijon       | 1                 | 3             | 73         | 1           | 6             | 162         |
| Qo'qon        | 1                 | 3             | 90         | 6           | 32            | 481         |
| Namangan      | -                 | -             | -          | 3           | 9             | 196         |
| O'sh          | -                 | -             | -          | 2           | 3             | 140         |
| Farg'ona      | 2                 | 5             | 158        | 2           | 11            | 164         |
| <b>Umumiy</b> | <b>4</b>          | <b>11</b>     | <b>321</b> | <b>14</b>   | <b>61</b>     | <b>1143</b> |

<sup>123</sup> Мансуров У. 1917-1924 йилларда Фарғона водийси шаҳарлари тарихи. тарих phd....дисс. Автореф. – Наманган: 2018. Б. 105.

**1944-1945-yillarda Namangan viloyatidagi maktablar to'g'risida  
ma'lumotlar<sup>124</sup>.**

| Tuman         | Boshlang'ich maktab  |                                  |             | To'liqsiz o'rta maktab |                                    |            | O'rta maktab       |                                     |        |
|---------------|----------------------|----------------------------------|-------------|------------------------|------------------------------------|------------|--------------------|-------------------------------------|--------|
|               | Mak<br>- tab<br>soni | I-V-sinf<br>o'quvchilari<br>soni |             | Makt<br>ab<br>soni     | V-VII-sinf<br>o'quvchilari<br>soni |            | Mak<br>tab<br>soni | VIII-X-sinf<br>o'quvchilari<br>soni |        |
|               |                      | Reja<br>da                       | Amal-<br>da |                        | Reja                               | Amal<br>da |                    | Reja<br>da                          | Amalda |
| Namangan sh.  | 8                    | 7998                             | 6381        | 18                     | 5057                               | 3781       | 12                 | 1121                                | 741    |
| Chust sh.     | 4                    | 1752                             | 1718        | -                      | 933                                | 625        | 4                  | 295                                 | 176    |
| Kosonsoy      | 15                   | 5879                             | 4674        | 8                      | 2625                               | -          | 6                  | 468                                 | -      |
| Namangan t.   | 18                   | 6725                             | 6260        | 11                     | 3588                               | -          | 9                  | 779                                 | -      |
| Norin         | 5                    | 3948                             | 3288        | 11                     | 2568                               | -          | 8                  | 479                                 | -      |
| Pop           | 4                    | 5300                             | 3895        | 15                     | 2813                               | -          | 7                  | 572                                 | -      |
| To'raqo'rg'on | 20                   | 6079                             | 5018        | 10                     | 3109                               | -          | 5                  | 367                                 | -      |
| Uchqo'rg'on   | 16                   | 3968                             | 2813        | 7                      | 1859                               | -          | 4                  | 294                                 | -      |
| Uychi         | 8                    | 5409                             | 4417        | 11                     | 2352                               | -          | 6                  | 396                                 | -      |
| Chust t.      | 9                    | 4073                             | 3381        | 14                     | 2858                               | -          | 5                  | 557                                 | -      |
| Yangiqo'rg'on | 29                   | 8186                             | 7341        | 19                     | 2833                               | -          | 7                  | 559                                 | -      |
| Jami          | 127                  | 59287                            | 48184       | 124                    | 3159<br>5                          |            | 73                 | 5887                                | -      |

<sup>124</sup> НВДА, 275-фонд, 1-руйхат, 13-иш, 178-варақ.

**1946-1951 yillarda Namangan viloyatidagi maktablar soni<sup>125</sup>.**

| Yillar    | Boshlang'ich | 7 yillik | O`rta | Hammasi |
|-----------|--------------|----------|-------|---------|
| 1946-1947 | 125 ta       | 154 ta   | 41    | 320     |
| 1947-1948 | 116 ta       | 169 ta   | 39    | 324     |
| 1948-1949 | 120 ta       | 169 ta   | 39    | 328     |
| 1949-1950 | 112 ta       | 175 ta   | 45    | 332     |
| 1950-1951 | 123 ta       | 177 ta   | 57    | 357     |

**Namangan viloyatining O`zbekiston Respublikasi faxriy unvonlariga  
sazovor bo`lgan madaniyat va san`at xodimlari<sup>126</sup>.**

| №                                  | Familiyasi, ismi         | Ish joyi va lavozimi, asosiy kasbi                         | Unvon<br>olgan yili |
|------------------------------------|--------------------------|------------------------------------------------------------|---------------------|
| <b>O`ZBEKISTON XALQ ARTISTLARI</b> |                          |                                                            |                     |
| 1.                                 | Ubaydullayev<br>Mamatxon | Viloyat teatri drama artisti                               | 1982                |
| 2.                                 | Oxunova Habiba           | Viloyat teatri vokal artisti                               | 1973                |
| 3.                                 | Rahimov Kamoliddin       | Viloyat teatri vokal artisti                               | 1983                |
| 4.                                 | Nuraliev O`rinboy        | ONMTS direktori                                            | 1991                |
| 5.                                 | Mamedova Tursunoy        | Pensioner, vokal artisti                                   | 1991                |
| <b>O`ZBEKISTON XALQ HOFIZI</b>     |                          |                                                            |                     |
| 1.                                 | Umarov Ja`farxon         | Respublika Muqimiy nomidagi<br>musiqali teatrdagi ishlagan | 1940                |
|                                    |                          |                                                            |                     |

<sup>125</sup> Хайдаров З. Наманган вилоятининг совет даври ва мустақиллик йилларидаги ижтимоий-иқтисодий ва маданий тарихи: қиёсий таҳлил. тарих фан. ном....дисс. Автореф. – Наманган: 2006. Б. 158.

<sup>126</sup> Хайдаров З. Наманган вилоятининг совет даври ва мустақиллик йилларидаги ижтимоий-иқтисодий ва маданий тарихи: қиёсий таҳлил. тарих фан. ном....дисс. Автореф. – Наманган: 2006. Б. 160.

| <b>O`ZBEKISTONDA XIZMAT KO`RSATGAN SAN`AT ARBOBI</b>       |                                        |                                                           |      |
|------------------------------------------------------------|----------------------------------------|-----------------------------------------------------------|------|
| 1.                                                         | Yo`ldoshev Karimjon                    | Viloyat teatri bidiiy rahbari                             | 1980 |
| <b>O`ZBEKISTONDA XIZMAT KO`RSATGAN ARTISTLAR</b>           |                                        |                                                           |      |
| 1.                                                         | Tojiboeva Onaxon                       | Viloyat teatri bosh administratori                        | 1964 |
| 2.                                                         | Isomiddinov<br>Mahmudjon               | Viloyat teatri vokal artisti                              | 1970 |
| 3.                                                         | Sohibov Sobirjon                       | Viloyat teatri vokal artisti                              | 1981 |
| 4.                                                         | Saydullaev Turdali                     | Viloyat teatri vokal artisti                              | 1981 |
| 5.                                                         | Zokirov Mag`zanur                      | Namangan shahar 49-maxsus<br>maktab-internat tarbiyachisi | 1982 |
| 6.                                                         | Norxo`jaev Jo`raxo`ja                  | Darboz, polvon. Hozir ishlamaydi.                         | 1982 |
| 7.                                                         | Asqarov Mamadjon                       | Viloyat teatrining tijorat direktori                      | 1991 |
| 8.                                                         | Qoraboeva Ma`rifat                     | Viloyat teatrining vokal artisti                          | 1991 |
| 9.                                                         | Rasulova Karima                        | Viloyat teatrining vokal artisti                          | 1991 |
| 10.                                                        | Rahmonov<br>Mirzaabdulla<br>Karimovich | Chortoq tuman madaniyat uyi<br>metodisti                  | 1991 |
| <b>O`ZBEKISTONDA XIZMAT KO`RSATGAN MADANIYAT XODIMLARI</b> |                                        |                                                           |      |
| 1.                                                         | Husanova Robaxon                       | Uchqo`rg`on tuman markaziy<br>kutubxonasi direktori       | 1967 |
| 2.                                                         | Qoraxonov erkin                        | Namangan shahar madaniyat bo`limi<br>mudiri               | 1982 |
| 3.                                                         | Turg`unova Karima                      | Uchqo`rg`on tuman kutubxonalari<br>tarmog`i filial mudiri | 1991 |
| 4.                                                         | Iminjonov Inomjon                      | Viloyat teatri sahna tsexi boshlig`i                      | 1991 |